

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

Hodjaeva Guzal Djahonobodhonovna

**Mavzu: «Adekvat tarjima yaratish muammolari
(tragediya janridagi asarlar misolida)»**

Mutaxassislik: 5A220101-Adabiyotshunoslik (Ingliz adabiyoti)

MAGISTRLIK DISSERTASIYASI

Adabiyotshunoslik magistri akademik darajasini olish uchun

Ish ko'rildi va himoya qilishga ruxsat berildi:

Ilmiy rahbar: dots., R. Karimov

Ingliz tili va leksiska-stilistika

kafedrasi mudiri: p.f.n., S.Misirov

Ilmiy maslahatchi: f.f.n. Q. Sidiqov

«_____» _____2012 yil

NAMANGAN-2012

ADEKVAT TARJIMA YARATISH MUAMMOLARI

(tragediya janridagi asarlar misolida)

Mundarija

KIRISH.....2

I. BOB

ASL NUSXA TILIDAN TARJIMA QILISH MUAMMOSI

I.1 Tragedik asarlar tarjimasida muallif, tarjimon, aktyor va tomoshabinning o`rni va ahamiyati.....7

I.2-Tarjima jarayonida muallif-tarjimonning maxorati.....14

I.3.Jahon adabiyotida V.Shekspir ijodining o`rni va hususiyatlari.....27

II. BOB

TARJIMA TA`SIR VA TAQLID

II. 1 “Hamlet” tragediyasida adabiy til muammosi.....34

II.2. «Hamlet» tragediyasining Cho`lpon va Shayhzoda tarjimalari qiyosiy tahlili.....39

III.BOB

TRAGEDIK JANR TARJIMALARI VA TARJIMON MAHORATI

III.1. Aktyorlik san`ati va tarjima muammolari.....54

III.2. Tugallanmagan tarjima, tanqid tahlil.....73

XULOSA77

SUMMARY.....82

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI85

KIRISH

MAVZUNING DOLZARBLIGI O`zbekistonda uzluksiz ta`lim sohasida olib borilayotgan islohotlar natijalari, erishilgan yutuqlar, yuksak salohiyatli avlodni tayyorlashda davlatning rolini xalqaro jamoatchilikka keng ma`lum qilish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 2012 yil 16—17 fevral kunlari “Bilimli va aql-zakovatli avlodni tayyorlash—mamlakatni barqaror rivojlantirish va modernizatsiyalashning muhim sharti” mavzusidagi xalqaro Konferentsiya o`tkazildi.

Konferentsiyada 1000ga yaqin odam ishtirok etib, shundan 300 dan ortig`i - 49 xorijiy davlatlarning va 9 xalqaro tashkilotlarning, ta`lim va ilmiy muassasalarning, olimlar va ta`lim, fan, madaniyat sohasining vakillaridir.

Konferentsiya doirasida qatnashchilar umumta`lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, oliy ta`lim muassasalari faoliyati bilan tanishdilar, shu bilan birga, ta`lim sohasidagi islohotlar va islohot natijalarini ta`lim sohasiga tadbiiq etishga bag`ishlangan ko`rgazmani borib ko`rdilar. Konferentsiya ishtirokchilarini O`zbekistonning boy tarixi, san`ati va madaniy yodgorliklari bilan tanishtirish maqsadida qadimiy shaharlarimiz Samarqand, Buxoro va Xivaga tashrifi rejalashtirilgan¹.

Konferentsiya ochilishida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ishtirok etib, nutq so`zladi.

¹ Karimov I.A. “Bilimli va aql-zakovatli avlodni tayyorlash—mamlakatni barqaror rivojlantirish va modernizatsiyalashning muhim sharti” mavzusidagi 2012 yil 16—17 fevral kunlari xalqaro konferentsiyada so`zlagan nutqi

Forum olti sho`bada ish olib bordi.

1. Maktab ta`limi – intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash asosi.
2. Kasbiy ta`lim va hozirgi mehnat bozorini shakllantirish.
3. Oliy ta`limni rivojlantirish ustivorliklari va mamlakatni modernizatsiyalashda uning roli.
4. Ta`lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.
5. Ta`lim va fan – uzluksiz aloqa.
6. Ta`lim va madaniy taraqqiyoti.

Mazkur konferentsiya O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida” va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to`g`risida”gi qonunlarining amalga tadbiiq qilinishi, O`zbekistondagi uzluksiz ta`lim tizimida shakllangan yo`nalishlarni aniqlash va yaqin kelajakda hal qilinishi zarur bo`lgan masalalarni belgilash, ta`lim shakli va mazmunini takomillashtirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish bo`yicha hamda shu sohadagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish borasida o`zaro tajriba almashish va kelishilgan tavsiyalarni ishlab chiqish imkoniyatini berdi.

Mustaqillik yillarida O`zbekiston ta`lim tizimida ulkan tarkibiy, tashkiliy va mazmuniy o`zgarishlar ro`y berdi. Eng asosiysi, u chindan ham zamonaviy talablarga javob beradigan “ta`lim - butun hayot davomida” paradigmasiga muvofiq uzluksizlik va izchillik kasb etdi.

O`zbekistonning ta`lim muassasalari mamlakatda amalga oshirilgan demokratik va bozor munosabatlari jarayoniga mustahkam bog`lanib, xalqaro ta`lim hamjamiyati bilan astoydil yaqinlashmoqda. Bu muassasalar, xuddi oynaday, O`zbekistondagi hamma ijobiy o`zgarishlarni aks ettirmoqda. Shu bilan birga, qiynichiliklarni ham boshdan kechirmoqda, ammo kelgusida davlat va jamiyat oldida paydo bo`ladigan muammolarni bartaraf qilib, hal qilmoqda.

O`zbekistondagi bugungi uzluksiz ta`lim tizimi - bu turli xildagi ta`lim muassasalari majmui - zamonaviy o`quv binolari, ilmiy laboratoriya qurilmalari, ijtimoiy-madaniy, jismoniy tarbiya va sport infratuzilmasidan iboratdir.

O`zbekistondagi kasbiy ta`lim tizimi butun jahon tamoyillari va Respublikada ishlab chiqarilgan yangi ta`lim standartlariga muvofiq o`rta maxsus, kasb-hunar, ikki bosqichli oliy ta`lim, izchil malaka oshirish tizimida kadrlarni uzluksiz tayyorlashga o`tgan.

Hozirgi paytda mamlakatda 9900ga yaqin maktab, 6000dan ortiq maktabgacha va maktabdan tashqari ta`lim muassasalari, 1537ta kasb-hunar kollejlari va akademik litseylari faoliyat yuritmoqda, 59ta oliy ta`lim muassasasi, 11ta Respublika markaziy oliy o`quv yurtlarining viloyatlardagi filiallari, 6ta yetakchi xorijiy oliy o`quv yurtlari filiallari magistratura mutaxassisliklari va bakalavriatning muhim yo`nalishlari bo`yicha kasbiy-ta`limiy dasturlarni amalga oshirmoqda. Alohida ta`kidlash kerakki, mustaqillik yillari davomida oliy ta`lim muassasalari soni ikki barobarga oshdi.

Respublikada kasbiy ta`lim yo`nalishlari va mutaxassisliklari talabga muvofiqlashtirib borilmoqda. Bozor iqtisodiyoti talab etayotgan yangi, kamyob yo`nalishlar - muhandislik, axborot texnologiyalari, agrar soha, qurilish va arxitektura, geologiya, neft va gaz sohasi bo`yicha kadrlar tayyorlash yo`lga qo`yilmoqda.

Hozirgi bosqichdagi ta`lim islohotlari yangi vazifalarni qo`ymoqda, global voqelik, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, axborot texnologiyalari va “bilimlar iqtisodi”ning o`ziga xos xususiyatlari, ishlab chiqarish kuchlarini modernizatsiyalash, davlat va jamiyatning olg`a siljishi yuzaga keltirgan yangi ustivorliklarni ilgari surmoqda.

Shunga ko`ra, O`zbekistondagi zamonaviy ta`lim tizimining mazmun va mohiyati insoniyat tomonidan to`plangan g`oyalar, tushunchalar va tajribani o`zlashtirishga qaratilibgina qolmay, balki har bir shaxsning intellektul ijodiy qobiliyati, aqliy va amaliy kasb faoliyatidagi hamda olingan axborot bilan ishlash ko`nikmalarini rivojlantirishga yo`naltirilgan. Ular jahon standartlari darajasidagi ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarda erkin ishtirok eta olishi, zamonaviy qurilmalar va malakali xodimlarning samarali ishlashini ta`minlashga qodir bo`lishi kerak. Bunda davlat ta`lim standartlariga muvofiq bilim, malaka va ko`nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq bundan tashqari, o`quvchi mustaqil fikrga ega bo`lishi, olingan bilimlarni amaliyotda qo`llay olishi, zarur kasbiy va tashkilotchilik xususiyatlarini o`zida

kasb etishi zarur. Zero, zamon ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarning o`ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda aniq ish joylari uchun yuqori kasbiy mahoratga ega kadrlarni tayyorlashni taqozo etadi.

Fikrimizcha xorijiy tilni puxta o`zlashtirish, tili o`rganilayotgan mamlakat tarixi va buguni, ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy ahvoli, urf odati madaniyati va sa`atini o`rganishni taqozo etadi. Ana shunday omillardan biri bu adabiyotdir. Adabiy asarlarda til materiali bilan bir qatorda biz yuqorida sanab o`tgan qadriyatlar ham o`z aksini topadi.

Badiiy tarjima masalasining mundarijasi keng, mazmuni chuqur. Bu mavzu ostida, keng ma`noda, Sharq G`arb o`rtasidagi ilmiy, madaniy, adabiy aloqalar tarixi, o`zaro tarjimalar vositasida ularning bir-birini boyitish jarayonini o`rganish mumkin. Tarixiy asnoda rus -o`zbek, ingliz va boshqa qardosh xalqlar adabiy aloqalari mundarijasini ham shu mavzu ostida o`rgansa bo`ladi.

Vilyam Shekspir! Jahon madaniyatining porloq yulduzi, halkaro adabiy harakatchilikning buyuk darg`asi, Uning o`lmas asarlari dunyo xalqlarining tillariga pgu qadar ko`p tarjima qilingan va qilinmoqdaki, bag`oyat xayrli bu ishda turli-tuman yo`l-yo`riq, tadbir, usul va tajriba, g`alabayu mag`lubiyatlar son-sanoqsizdir. Xususan, muazzam rus adabiyotida, uning tarixi va hozirgi taraqqiyot bosqichida Shekspir ijodiga munosabat, upi idrok etish, talqin, taxlil va tarjima qilishda nihoyatda boy tajriba to`reja gan, tarixiy va zamonaviy an`analar qaror topgan. Bu borada tushunish-anglashilmovchilik, qabul qilish-rad etish singari ziddiyatli hollarni ham uchratish mumkin, Bu chigalliklar orasidan buyuk Vilyamning obrazlar dunyosi, g`oyaviy olamiga to`g`ri yo`l topib borish uchun ularni bilish zarur.

MAVZUNI O`RGANILISH DARAJASI

Shekspir asarlarini tarixiy, adabiy, qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etish bo`yicha mamlakatimizda xam, xorijda ham bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Ishda birinchi bor, asl nusxadan tarjima qilish «Hamlet» tragediyasini aslidan mukammal tarjima qilish hamon kun tarti-bida jo`mboq bo`lib turganligi -asosiy vazifa qilib qo`yilgan, Shu bois, iigai urganilish darajasida o`zimiz olib borgan urinipglardan xam foydalandik.

TADQIQOTNING ASOSIY VAZIFALARI:

M. Shayxzodani «Hamlet» ni tarjima qilish muammosini hayratomuz mahorat bilan uddalay olganini qayd etildi; Hali biron-bir mamlakatda birorta asarning «mutloq» mukammal tarjimasi bunyod kilinmagan va bunday ideal tarjimaning bo`lishi mumkin emas. Viz xam taxlil jarayo-nida shunga e`tiborni qaratdik.

Badiiy tarjima-ijodiy ish ekan, uning badiiy ijodning xamma sohalariga xos mushtarak xususiyatlari bilan birga, o`ziga xos «injiqliklari» xam bor. Bu yerda biz, til-badiiy tarjimaning asosiy qurolidir degan g`oyani oldinga surdik.

O`zbek tilida V. Shekspir asarlarining vositali tarjima-dan kilinadigan yangicha talqin asosidagi a`lo tarjimalarini yaratishni davom qildirish bilan birga, asl nusxadan kilinishi lozim bo`lgan adekvat tarjimani barpo etish vazifasi oldinga surildi,

TADQIQOTNING METODOLOGIK VA NAZARIY ASOSLARINI

I. A. Karimovning asarlari va nutqlari, O`zbekiston Respubli-kasining milliy istiqlol g`oyasi, shuningdek, o`zbek , rus, ingliz va boshqa xalqlar adabiyotshunos, tarjimashunoslarining adabiyot nazariyasi, tarjima asoslari, qiyosiy adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlari ishning nazariy-uslubiy asosi bo`lib xizmat qildi. G`. Salomov, N.V. Vladimirova, F. Sulaymonova, A. Abduazizov, N. Komilov kabi olimlarning tarjima va talqin, tarjima masalalariga bag`ishlangan ilmiy asarlaridan kelib chiqadigan nazariy xulosalarga xam tayanildi.

TADQIQOTNING ASOSIY MAZ M U N I

Namangan Davlat Universitetida har yili o`tkaziladigan an`anaviy ilmiy anjumanlarda; Viloyat matbuotida, radio va televideniya ma`ruza va axborotlar bilan chiqilgan.

I-BOB ASL NUSXA TILIDAN TARJIMA QILISH MUAMMOSI

I.1 Tragedik asarlar tarjimasida muallif, tarjimon, aktyor va tomoshabinning o'rnini va ahamiyati

O'ttizchi yillar o'zbek matbuotida tragediyaning ilk tarjimasini xaqida adabiy munozaralar, butunittifoq adabiyoti bilan xam, jahon adabiyoti bilan xam o'zbek adabiyotining aloqalari gap g -bagap g bo'lgan.

Adabiyotimizga yangi mavzu, janrlar, yangi usul va formalar kirib keladi. O'z -o'zidan ravshanki, jahon adabiyotining juda ko'p asarlarini o'zbeklar bundan yarim asr muqaddam tarjima qilolmagan, basharti, tarjima qilgan taqdirda xam, ularni, extimol, o'sha davr avlodi hazm etolmasligi mumkin edi. Masalan, Vilyam Shekspirning «Hamlet» tragediyasi ilk bor 1934 yildagina o'zbek tiliga o'girildi. U turgan gap, o'ttizinchi yillardagi kitoblarga mo'ljallangan va o'sha davr jamoatchiligi tragediyani madaniy hayotdagi qandaydir hayratomuz bir voqea sifatida goxo ajablanib, gox mamnuniyat bilan qabul qilgandi. Chunki Shekspirning nazm bilan yaratilgan asari o'zbekchada sidirg'asiga nasrga ko'chgan, unda qo'pol lug'aviy qusurlar, noto'g'ri talqin qilingan voqea-hodisalar mo'l edi. Shubhasiz, bu eski tarjimani hozirgi mavjud Maqsud Shayxzoda tarjimasini bilan qiyos qilib ham bo'lmaydi.

Faqat o'zbeklardagina emas, balki jahon tarjimachiligi tarixida she'riy yo'lda barpo etilgan yuksak suz san'ati obidalarini nasrda o'girish hollari xiylagina uchraydi. Hatto hozirgi davrda xam ayrim mamlakatlarda (masalan, Fgap tsiyada) bu batamom normal hol hisoblanadi. Chunki she'rni she'r bilan berganda bu qayta yaratishdan ko'ra, ma'lum darajada interpretatsiya (talqin) bo'ladi. Aytaylik, bizga Shekspir nomidan taqdim qilinayotgan sonetlarda kim kuproq: Shekspirmi yoki o'zimizning Barot Boyqobilov, Yusuv Shomansurlarmi? «Faust» ida-chi? Unda Gyotening ruxi barhayotmi yoki Erkin Vohidovning qo'li balandmi? Dantening «Ilohiy komediya» si tarjimasida haqiqiy axvol qanday? Buyuk Danteni bugungi she'riyatimizning sobitqadamlaridan Abdulla Oripov, avvalo, kitobxon sifatida qanday «qabul qiladi» va tarjimon sifatida o'zbek kitobxoniga ne tariqa yetkazadi? «Dekameron» da usluban Jovanni Bokkachcho g'olibmi yoinki Qodir Mirmuxammedov?

She'rni she'r bilan o'giringanda qurbon berish mukarrar. Xuddi shu sababli ba'zi iste'dodli mutarjimlar ham asl nusxaga xiyonat qilishdan cho'chib, uning badiiy mazmunini nasrda ifoda etishni afzal deb bilganlar.

Har bir davrning o'z xususiyati, har bir avlodning o'z talabi, xar bir ijodkorning o'z e'tiqodi bor. Lekin, qanday bo'lganda ham, qurbon berishdan qochib nazm bilan bunyod qilingan badiiy asarni nasrga ko'chirishning o'ziyoq dastlabki katta fikrni nazmda ifodalab bo'lmagani singari, xar qanday she'riy asarni xam nasrga o'tkazishning iloji yo'q. Basharti, she'riyat namunalari bo'lak tillarga sidirg'asiga, yalpi nasrga o'girish rasm bo'lganida, bu, dastavval, kitobxonni taajjubga solgan bo'lar edi. Chunki u: muayyan she'riy g'oyani hammaga bab-baravar tuigunarli bo'lgan nasriy maqomda ajabtovur berib bo'larkan -u, shoir asl nusxada chiroyi o'zini-o'zi qiynovga solgan ekan-da, deb o'ylashi turgan gap .

Bas, «Hamlet» tragediyasining o'ttizinchi yillardagi o'zbekcha nasriy tarjimasini takrorlanmas va buyuk asl inglizcha originaliga nisbatan, shubhasiz, jiddiy «yo'qotish» bo'lsa, Maqsud Shayxzoda qalamiga mansub so'nggi she'riy adekvat tarjimasiga nisbatan ham xiyla sifatidir. Lekin hamma gap shundaki, buyuk ingliz dramaturgining qudratli ovozi ilk bor bizga yetkazgan birinchi vosita tragediyaning o'sha dastlabki tarjimasini edi. Bu-Shekspir daxosi olamiga jur'at bilan qo'yilgan birinchi dadil qadam bo'ldi. Ajab emaski, o'zbek tilidagi o'sh «ibtidosi» bo'lmaganda, tilimizda to'la mazmun va yuksak she'riy nafas bilan jagap glayotgan hozirgi qudratli tarjima ham bo'lmasdi.

Tarjima-avlodlar estafetasidir.

O'zbek tilida «Hamlet» ning ikki tarjimasi o'rtasida o'tgan vaqt chorak asrni tashkil etdi. Lekin, shunisi qiziqki, hozirgi mavjud tarjima yana, aytaylik, chorak asr o'tgandan keyin ham «o'z kuchi» da qoladimi yoki yo'qmi? Ellik yil, bir asrdan so'ngra axvol qanday bo'larkin?

Zabardast faylasuf shoir Maqsud Shayxzoda «birinchi tarjima to'sig'i» ni bartarf qila oladi: Shayxzoda Shekspirni, ya'ni ijodkor ijodkorni to'g'ri tushundi. Tarjimon fojiani asliga monand bir tarzda nazm bilan qayta tikladi. Shuning o'zi katta yutuk lekin Shayxzoda ham «lisoniy to'siq»ni bosib o'tolmadi. Boshqacha aytganda, asarni u asl inglizchasidan emas, balki uning rus tilida mavjud tarjimasidan o'girdi.

Maqsud Shayxzoda «Hamlet»ni o'zbek tiliga tarjima qilish muammosini hayratomuz mahorat bilan uddalay oldi. Ammo u *o'z vazifasini* bajardi, xolos. Davrlar o'tadi, avlodlar almashadi. Ajdodlarning xizmati unutilmaydi. Ammo tarjima muammosi qolaveradi. Yuqorida aytilganidek, hali biron-bir mamlakatda birorta asarning «mutlaq» mukammal tarjimasi bunyod qilinmagan va bunday ideal tarjimaning bo'lishi mumkin emas. Kamolotning cheki yo'q, deydilar. Tarjima ham shunday.

«Hamlet» tragediyasini aslidan mukammal tarjima qilish bizda xamon kun tartibida jumboq-tugun bo'lib turibdi. Umuman tarjimachilik xo'jaligining bir qismi bo'lgan xorijiy adabiyotlar, jumladan, ingliz adabiyotidan o'zbekchaga tarjima qilish ishining o'ziga xos qiynchiliklaridan biri asl nusxa tilidan tarjima qilish muammosining xal bo'lmaganligidadir.

Badiiy tarjima-ijodiy ish ekan, uning badiiy ijodning hamma sohalariga xos mushtarak xususiyatlari bilan birga, o'ziga xos «injiqliklari» xam bor. Chunonchi, til-badiiy tarjimaning asosiy qurolidir. Ikkinchi tilni bilmay turib, umuman, ijod qilish: roman, doston, drama yozish mumkin. Ammo til bilmay turib tarjima qilib bo'lmaydi. Aksincha, til bilgan xar xolatda inson ham tarjima kila olmasligi mumkin. Buning uchun tarjima ijod qilish, ta'bir joiz bo'lsa, «tarjima qilish» qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Hozirgacha G'arbiy yevropa tillarida yaratilgan adabiyot asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish masalasi xorijiy tillardan emas, balki rus tilidan tarjima qilish ishining tarkibiy qismi bo'lib keldi. Birok tarjima amaliyotidagi mavjud axvol «biz xoxlagan» dan ko'ra tubdan farq qilar ekan, bu hozirgacha milliy adabiyotlar o'rtasida badiiy asarlar ayirboshlash, boshqa xalqlarning buyuk daholari yaratgan san'at obidalaridan xalqimizni baxramand qilish, milliy madaniyatlar o'rtasida o'zaro aloqa o'rnatish va ularning bir-biriga ta'sir etishi jarayoniga xalal bera olgan emas.

Ingliz adabiyotidan o'zbek tiliga qilingan tarjimalarni o'rganish o'zbek adabiyotining umumjahon adabiyoti bilan o'rnatgan aloqasining umumiy zanjiridagi bir halqadir. Bu tarjimalar tarixini o'rganish esa tarixning butun bir davri, keng bir sohasini o'rganish demakdir.

Ingliz adabiyotining ba'zi taraqqiyparvar vakillari haqida dastlabki ma'lumotlar o'zbek tilida 1886 yildan boshlab uchraydi. Demak, o'zbeklar 1886 yildan to hozirgi davrgacha-salkam bir asr davomida ingliz adabiyoti bilan qiziqib kelmoqdalar. Ingliz-o'zbek va amerika-o'zbek adabiy aloqalari mavzuini tarjima reja ida uch davrga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Inqilobgacha bo'lgan davrda ingliz adabiyotidan qilingan ilk tarjima namunalari.
2. Inqilobdan keyin Ulug' Vatan urushigacha davr orasida qilingan tarjimalar.
3. Urushdan keyingi davrda yaratilgan tarjimalar.

O'tgan asrda «Turkiston viloyatining gazetisi» sahifalarida ba'zi chet el taraqqiyparvar kishilari, faylasuflar, olimlar, adiblarning hikmatli so'zlari berilib borilardi. Mazkur gazetada ahyon-ahyonda yevropa yozuvchilarining ayrim asarlari turkiy tillarga tarjima qilingani xususida qisqa xabar va e'lonlar ko'zga chalinib qolardi. Chunonchi, 1886 yil 28 fevral sonida mana bu so'zlarni o'qiydiz: «Sulton Abduaziz marxumning davrida Ovrupo iklimidagi eng baland musanniflarning ko'p kitoblari turkiy tillarga tarjima qilindi. Masalan,

Shatobrian, Gyugo, Molyer, Fenelen va Lafonten, Shekspir va yana ulardan boshqa bir necha kitoblar turkiy tilga tarjima qilindi».

Ingliz adabiyotining porloq yulduzi Vilyam Shekspir... Qayd qiladi: 1886 yil. Bir necha kitoblari turkiy tillardan biriga tarjima qilingan.

Keyinchalik mashhur ingliz romannavisti Daniel Defoning «Robinzon Kruzo» asari «Rubinzon hikoyasi» nomi bilan 1911 yili o'zbek tilida bosilib chiqdi. Asarning ruscha tarjimasida 400 bet, ilk o'zbekcha tarjimasida esa 48 saxifadan iborat edi, xolos. Qariyb o'n baravar qisqartirib o'g'irilgan bu «hikoya», Jumaniyoz Sharipovning shahodat berishicha, 77 betlik qisqartma ozarbayjoncha tarjimasidan o'zbekchalashtirilgan. Uning ozarbayjonchasi Abdulla Sho'iq Tolibzoda, o'zbekchasi Muxammad Fozilbek Otabek qalamiga mansubdir.

«Robinzon Kruzo» garchi qisqartirib tarjima qilinsa ham, tabiiy, o'sha davrda o'zbek madaniyatida katta voqea bo'ldi. Bu tarjima G'arbiy yevropa adabiyotiga qarab ochilgan birinchi darchaligi bilan adabiyotimiz tarixida aloxida ahamiyat qozonadi.

Shunday qilib, Ingliz-o'zbek adabiy aloqalarining ilk davriga xos xususiyatlar sifatida ayrim asarlarning asl inglizchasidan emas, balki ularning biron boshqa turkiy tilga (ko'pincha usmonli turk, tatar va ozarbayjonchaga) qilingan tarjimasidan o'g'irilganini ko'rsatish mumkin. Qisqartirib, o'zgartirib va moslashtirib tarjima qilingan bu asarlar haqida o'quvchiga ma'lumot berilmagan, odatda, qaysi tildan, qachon va tarjimoni kim ekanligi ham qayd etilmagan.

Inqilobdan keyin ingliz adabiyoti namoyandalari va ular yaratgan asarlarning nomlari bilan o'zbek kitobxonlari birinchi bor 1928 yildan tanisha boshlaydilar. Shu yili «Maorif va o'kituvchi» jurnalining 3-sonida M. Rafael ismli adabiyotchining «G'arb adabiyotining taqdiri» maqolasi e'lon qilinadi. Mazkur maqolada muallif Shekspir haqida ancha keng ma'lumot beradi va uning ba'zi asarlari nomlarini quyidagicha keltiradi:

«Romen Juliet» («Romeo va Julietta»), «Simbalin» («Tsimbelin»), «Qish matali» («Zimiston ertagi»), «Vindik savdogar» («Venetsiyalik savdogar»), «Otello» («Otello»),

1935-1936 yillar orasida «Hamlet» tragediyasining tilimizga tarjima qilinishi munosabati bilan o'zbek matbuoti saxifalarida ko'plab katta-kichik maqolalar, axborot va har xil rasmiy xabarlar bosilib chiqdi. Ana shu maqolalarning mazmuni bilan tanishar ekanmiz, ular orqali G'arbiy yevropa adabiyoti asarlarining bizning elimiz, tilimiz va hayotimizga qanday kirib kelganligi, saxna madaniyatining qaror topish va o'sish jarayoni, nihoyat, badiiy taraqqiyotda qanday ulkan yutuqqa erishilganini kuzatish mumkin.

V. Shekspirning «Hamlet» tragediyasi birinchi marta Angliyada 1601 yilda saxnalashtirilgan bo'lsa, oradan o'tgan chorak asr mobaynida jaxon teatrlari saxnasidan tushmay o'ynalib keladi. Ana shu katta davr ichida jaxonning turli mamlakatlarida, turli-tuman tillarda «Hamlet» faqat «o'ynaldi»gina emas, balki har xil talqin qilindi. Har bir avlod tragediyani, avvalo, uz tiliga turli printsiplar bilan o'girdi, qolaversa, asardagi bosh qahramonlar obrazi turlicha talqin qilindi. Asar goh she'riy gox nasriy, gox to'la, goh qisqartib, goh xijjalab, goh erkin yo'lda o'tirildi.

Tarjima maqsadiga kura, qilingan tarjimalarning mazmuni va sifati ham muttasil o'zgarib bordi. Hamlet obrazi xam turlicha: umidsiz, passiv, intiqom oluvchi, kurashchi, faylasuf sifatida talqin etildi. Birgina «Hamlet» tragediyasining o'zi jaxondagi kattayu kichik xalqlar tillariga necha bor va qanday ag'darilganligini kuzatish, ilmiy umumlashtirishning iloji bo'lganida edi, jahon tarjimachiligi tarixining ko'pgina zarvara saxifalarini yoritish, umumjahon adabiyotida Shekspirning tutgan o'rnini aniqlash, jaxon madaniyatida tarjimachilik sohasida istiqbolda bajarilishi lozim bo'lgan ishlarning mazmuni va mundarijasini belgilash mumkin bo'lar edi. Zero, ana shu yo'l bilan jaxon dramaturgiyasida tarjima tushunchasining mazmuni va mundarijasi, sifati va salmog'i, tarjima usul-larining o'zgarib borishi, tarjimaning janr xususiyatlariga doir bir talay muammolarning o'rganishga xam qulay imkoniyat yaratilardi.

Afsuski, jaxon adabiyoti miqyosida «Hamlet» tragediyasining tarjimalarini o'rganish va nazariy umumlashtirish u yoqda tursin, bu jiddiy masala zonal adabiyotlar va hatto aloxida olingan milliy adabiyotlarning o'zida ham har tomonlama, chuqur tadqiq qilinmagan.

«Hamlet» tragediyasi Hamza nomli Akademik drama teatri saxnasida qo'yilayotganiga o'ttiz yil to'lgan kezlardayoq (1965) asr o'zbek tilida ikki ming marta, «Otello» tragediyasi esa

besh yuz martadan ortiqroq o'ynalgan edi². Demak, hozirgacha oradan o'tgan salkam yarim asr mobaynida «Hamlet» ni yuz minglab kishilar tomosha qilganlar. Iste'dodli saxna ustalari Abror Hidoyatov, Olim Xo'jaev, Shukur Burxonovlar qiyofasida bir tragediya misolidagina ikki ming marta Shekspir dahosi bilan tanishish! Asarning o'zbek milliy tetri sahnasida ilk bor o'ynalgan kundan boshlab kechagi kundagi o'ynalishigacha bosib o'tilgan katta madaniy iulni qiyos etilsa, faraz qilingan bu ikki sana, ikki nukta orasida yer bilan osmoncha farq borligining guvovi bo'lasiz. Bu davrda tomoshabin ham o'sdi, teatr ham kamol topdi. Shu o'rinda 1943 yilda O'zbekistonga mexmon bo'lib kelgan Britaniya parlament delegatsiyasining Hamza nomli Akademik drama teatri saxnasida «Otello» tragediyasini tomosha qilganidan keyin teatrning taassurotlar daftariga yozib qoldirgan quyidagi so'zlarini keltirish o'rinlidir:

«Britaniya parlament delegatsiyasi Toshkent drama teatri saxnasida «Otello» ni ko'rib, juda xuzur kildi. Buyuk asarning bu kadar zo'r va moxirona ijro etilishini xonadonimnzdan juda uzoqda turib ko'rish-bu bamisoli kadimiy dust bilan yangi do'stlar davrasida uchrashish, uni yangilangan alp baxodir xolida ko'rishga o'xshaydi.

Shunday kuchli spektakl kuyganliklari bilan artist-larni, uni samimiy qabul qilganliklari bilan tomoshabin-larni chin kalbimizdan muborakbod etamiz.

Asarning bundan xam ko'ra katta maxorat bilan o'ynal-ganini hech qaerda, xatto Londonda xam ko'rgan emasmiz. Biz, xususan, Otello, Yago, Dezdemona rollarini ijro etgan uch artistning o'yinini alohida kayd etishni va ularga qoyil qolganimizni aytishni istar edik».

Bu-Shekspir vatandoshlarining so'zlari.

I.2 Tarjima jarayonida muallif-tarjimonning maxorati

Teatr da, saxna asari tarjimas ining muvaffaqiyati:

- a) tarjimaning sifati;
- b) teatr kollektivining mexnati, tajribasi va an`analari;
- v) aktyorning mahorati hamda;
- g) tomoshabinning tayyorgarligiga bog'liq.

Shu turt unsur bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Bular qatoriga tarjimada davr tafovutini xam hisobga olish lozimligini qo'shmoq kerak. Masalan, «Hamlet» tragediyasini 1934 yilda xozirgi tarjima saviyasida va maqomida turib tarjima kilib, hozirgi saviyada talqin va ijro etib bo'lsa edi. Xuddi shuningdek, xozirgi vaqtda tragediyaning bundan qirq besh yil oldingi nasriy tarjimasini qo'yib bo'lmasligi ham o'z-o'zidan ravshan-xozirgi tomoshabin bunday «badiiy eksperiment» ga sira xam rozi bo'lmas edi. Ayni vaqtda, asarning xozirgi tarjimasini, talqini va ijro etish mahorati bundan yana, aytaylik, qirq yil keyingi tomoshabinni qanoatlantira olmasa, buning ajablanarli joyi yo'q.

O'rganilayotgan masala murakkab va kompleks xarakterga egayu birinchidan, u san`at bilan bog'liq bo'lib, asarning talqini, rollarning ijrosi va aktyorning maxoratini o'z ichiga oladi. Ikkinchidan, u tarjimaga tegishli bo'lib, tarjimaning sifati, saviyasi, xususiyatlarini qamrab oladi. Uchinchidan, tomoshabinning tayyorgarligiga xam bog'liq. Asar juda yuksak badiiy mahorat bilan tarjima qilingan bo'lishi ham mumkin, lekin agar o'sha davr tomoshabinini uni «hazm» qila olmasa-bunday tarjima muvaffaqiyat qozonolmaydi. Yohud o'sha pyesa yuqori ilmiy saviyada o'girilishi barobarida, unda saxnalashtirish talablari va shartlari e'tiborga olinmagan bo'lsa, bunday tarjima ham «o'tmasligi», «sinishi» turgan gap, Saxnalashtirishga mo'ljallangan pyesa tarjimasida xatto muayyan rol ni kim, qanday aktyor ijro etishi ham hisobga olinsa ko'ngildagidek bo'ladi.

² Kado'rov M., Tursunov T. Shekspir va o'zbek skoy stsene (K 400-letsho so dnya rojdeniya V.Shekpira). «Obhestvenno'e nauki v O'zbek istane», 1964, № 4, s.52.

Nixoyat, saxna asarlari tarjimasida teatr tanqidchiligidan xam roli juda katta.

Aksari hollarda bizda masalaga bir yoqlama munosabatda bo'linadi. Chunonchi, san'atshunos masalaning faqat ijro etilishi tomonini taxlil etadi. Asarning qanday tarjima qilingani uni qiziqitirmaydi. Vaxolanki, mukammal tarjimanigina yuksak saviyada ijro etish mumkin, Asar yomon o'girilgan bo'lsa aktyorning maxorati xam ish bermaydi.

Tarjimashunos esa, ko'pincha faqat muayyan tarjimaning sifatini tadqiq etadi-yu, o'sha tarjimada aktyorlarimizning tayyorgarligini e'tibordan chetda qoldiradi. Agar tarjimada so'zlar joy-joyiga o'ylab qo'yilgan bo'lmasa, aktyorning talaffuziga ham halal yetadi. Binobarin, yozuvchi tomonidan talqin qilingan obraz tomoshabinga «etib bormaydi», u tushunarli bo'lmay, asarda «ortiqcha» day bo'lib qoladi.

Xuddi shuning uchun xam saxna asarlari tarjimasini o'rganayotganda masalaning butun qirralarini qamrab olib, kompleks tadqiqot yaratish muximdir. Albatta, rejissura, postanovka, aktyorlik mahorati, talaffuz va xokazolarning o'z xususiyatlari, talablari, «sirlari» bor. Binobarin, tarjima masalalarini taxlil etayotganda har sohadan bir shingildan gapirish kerak emas, albatta. Biroq, o'rni bilan, tarjimini saxna qonunlari talab taqozosi bilan o'rganilsa, ish samaraliroq va foydaliroq bo'ladi.

Shunday qilib, saxna asarlari tarjimasida quyidagi omillarni va ularning bir-biri bilan aloqadorligini hisobga olish lozim:

- a) muallif;
- b) tarjimon;
- v) aktyor;
- g) tomoshabin.

«Hamlet» tragediyasi o'zbek milliy teatri saxnasida qirq besh yildan beri qo'yilishi orasida asarning bir nechta tarjimalari almashdi. Ilk o'zbekcha tarjima shoir Cho'lpon qalamiga mansub (1934), uni so'nggi marta Maqsad Shayxzoda she'riy yo'l bilan o'girib (1948), o'z tarjimasini yanada mukammalashtiradi (1960).

Ana shu ikki tarjima o'rtasida surunkali tayyorgarlik, mehnat mashaqqatlari, inkor qilish hollari sodir bo'ladiki, bularni o'rganish faqat tarjima tarixini emas, umuman, tragediya tarjimasining xususiyatlarini aniqlash va uni yanada qayta ishlash, extimolki, qayta, asl nusxadan tarjima qilish nuqtai nazaridan xam muximdir. Chunki asarning dastlabki tarjimasini yuzasidan qo'yilgan bir qancha muammolarga hozirga qadar javob berilmagan, ba`zan xatto noaniqliklar xam xanuzgacha davom etib keladi,

Tragediyaning dastlab o'zbek tiliga tarjima qilinishi va saxnalashtirilishi respublikamizning madaniy hayotida: teatr san'atida xam, til sohasida ham ulkan voqea edi, Ana o'gu ajoyib hodisa munosabati bilan bosilgan maqolalarni birma-bir ko'zdan kechirganda, «Hamlet» ning o'zbeklar madaniy hayotiga ilk bor kirib kelishini shartli ravishda uch davrga bo'lish mumkin:

1. Tragediyani o'zbek tiliga tarjima qilish va sahnalash-tirishga tayyorgarlik ko'rish davri.
2. Asarning tarjima qilinishi va saxnalashtirilishi.
3. Asarni «o'zlashtirish» davri.

So'ngra davrni o'rganishda quyidagilarga e'tibor berildi:

- a) sahnalash-tirish san'ati;
- b) aktyorlar mahorati;
- v) tomosha - bin masalasi;
- g) tarjima tanqidchiligi.

Respublika adabiy tanqidchiligi «Hamlet» tragediyasining o'zbekchaga o'girilishi va asarning saxnalashtirilishidek g'oyat muxim voqeadan chetda qola olmas edi. Shu munosabat bilan matbuotda ko'zga ko'ringan teatrshunoslar, adabiyotshunoslar, tanqidchilar, tarjimon va tomoshabinlar nomidan allaqancha maqolalar bosilib chiqdi. Ularni xronologik tartibda qarab chiqish o'zbek xalqining G'arbiy yevropa adabiyoti namunalari bilan yuzma-yuz uchrashuvida

ro'y bergan adabiy-psixologik xolat, bir xalq hayoti va ruxiyatini aks ettiruvchi adabiy asar o'zga milliy til zaminiga qo'yganida yuz beradigan o'zgarishlarni kuzatish, tarjima tarixining dastlabki sahifalarini yoritish tarafidan muxim ahamiyatga egadir.

Jaxon adabiyotida Hamlet obrazi xakida turli-tuman fikrlar bayon qilingan. Masalan, Iogann Voltfgang Gyote bu xususda shunday yozadi: «Nafis gullarni solib qo'yishga mo'ljallangan kimmatbaxo guldonga eman novdasini o'tkazdilar, uning tomirlari o'sib ketib, guldon chil~chil sindi». Buyuk nemis mutafakkirining ajoyib o'xshatishini umuman asarning tilimizga tarjima qilinishiga nisbatan qo'llab ko'raylik. Chindan ham, ko'p ziyolilarimiz «Hamlet» ning o'zbek tiliga tarjima kilinishi va saxnalashtirilishini tilimiz, adabiyotimiz, teatrimiz, kitobxon va tomoshabin «hazm» kila olarmikan, asar o'zbek xalqiga tushunarli bo'larmikan, degan andishaga borgan edilar.

Hozirgi vaqtda o'zbek xalqi jaxon adabiyotining yirik namunalari, garb yozuvchilari Viktor Gyugo, O nore de Bal zak, Gi de Mopassan, Fridrix Shiller, Teodor Dreyzerlarning shox asar-larini o'z ona tilida o'kishga odatlanib qoldi. Odatlanib koldi~ gina emas, endilikda ularning ajoyib asarlarini tilimizga o'girish xam xech kimni «ajablantirmaydi»-go'yo asli shunday bo'lishi kerakday! O'ttizinchi yillarda esa ahvol s al boshqacharoq edi. U vaqtlarda: Shekspirni o'zbek tiliga tarjima kilib bo'la-dimi yoki yo'qmi? Buyuk Vilyam o'zbek xalqiga tushunarli bo'lar-mikan? Ingliz dramaturgining jaxonshumul tragediyasini o'zbek milliy sahnasida qo'yish mumkinmi? Yosh o'zbek aktyorlari asardagi rollarni muvaffaqiyatli ijro eta olarmikanlar? Degan taxli-kali mulohazalar hukmron edi.

Yuqorida aytilganidek, o'zbek matbuotida o'ttizinchi yillarda «Hamlet» tragediyasining tarjima qilinishi va saxnalashtirili-shiga doir ko'plab maqolalar e'lon qilingan: Bu manbalar qatoriga qo'yidagi risola va maqolalarni kiritish mumkin: Usmon Ya «Hamlet» («Hamlet» teatrida qo'iilishi oldidan) «Qizil, O'zbek istan», 1935 yil 9 fevral ;

Gafiz M. Bol shaya obeda. «Gamlet» va teatre im Hamz «Pravda Vostoka», 21 fevralya 1935 g.:

A`zam Ayyub. Ulug' hodisa. «Qizil O'zbek istan», 1935 yil 22 fevral;

K vershinam dramaturgii. Beseda s xudojestvenno'm rukovoditelem i direktorom teatra im. Xamzo' tov. Ziya -Saidovo'm «Pravda Vostoka», 22 fevralya 1935 g.:

Yapiev Usmon, Kasallik dramaturgiya, yuksakliklariga «Hamza» teatrida «Hamlet» postanovkasi va prollarining ijrosi to'g'risida. «Qizil O'zbekiston» 1935 yil 26 fevral ;

Ikramov A. Zaslujenno'y uspex, «Pravda Vostoka», 5 marta 1935 g.;

Ikramov A Teatr haqida. «Kizil O'zbek iston», 1935 yil 5 mart; Ziya Saidov, Pust teatra «Pravda Vostoka», 5 marta 1935 g.;

Zametki o dramaturgii O'zbek istana, «Pravda Vostoka», 5 marta 1935 g.;

Zohidov Mansur («Il ich» zavodining ishchisi) «Chapaev» va Hamlet;

Shokirov Toshmuxammad («Il ich» zavodining karavot tsexi ishchisi). Mening muloxazalarim. «San`at yuksakliklari sari» (Bosh maqola). «Qizil O'zbek iston» 1935 yil 5 mart;

Sanjar Siddiq. Saxanda til, «Qizil O'zbek iston», 1935 yil 9 mart;

S. Xusayn, «Gamlet» v perevode Chulpana. «Literaturno'y O'zbek istan», 1936, № 1;

Nazir To'raqulov, «Hamlet»ga tuxmat. «Qizil O'zbek iston», 1936 yil 27 iyul;

Sanjar Siddiq Tuzriatga o'xshagan tanqid. «Qizil O'zbekistoan», 1936 yil 16 avgust;

«Otello» o'zbek tiliga tarjima qilindi «Qizil O'zbek iston» 1938 yil 10 aprel

Turob To'la, «Hamlet», «Yosh leninchi», 1939 yil 28 noyabr

Vaqtli matbuot saxifalaridagi bu kabi ko'plab maqolalar va tarjima masalalariga bag'ishlangan maxsus kitoblar o'ttizinchi yillar o'zbek adabiyotida, xususan, 1934-1936 yillarda Shekspir yetakchi, mavzulardan biri bo'lganligini yaqqol ko'rsatadi.

Adabiyotshunos Usmon Yapiev «Hamlet»ning Hamza nomidagi o'zbek Akademik drama teatri saxnasida qo'yilishiga bag'ishlangan maqolasida bu postanovka teatr uchun jiddiy imtixon bo'lib, u badiiy kadrlarning o'n besh yillik ijodiy kamolotiga yakun yasashligi haqida so'z yuritadi. Maqolada asarning syujeti haqida qisqa va sodda hikoya qilinadi. Qizig'i shundaki, maqola muallifi tragediyaning ahamiyatini belgilashda o'ta sodda yo'ldan boradi. Fojianing

g'oyasi va mazmunini ham osongina tushuntiradi. Uning yozishicha, Hamlet «...qotil qirol Klavdiya(?)dan qasos olishga qasam ichadi, Shundan buyon Hamlet faqat otasini o'ldirganlardan qasos olish fikri bilangina yashaydi, Uning kayfiyati birdan o'zgaradi, u Ofeliyadan kechadi». «Hamlet»ning mavzui - otasini o'ldirib, taxtni jinoyatkorona yo'l bilan bosib olgan va onasiga uylangan uchun qasos olishdir». «O'lib boruvchi feodal dunyoning vakili bo'lgan Hamlet Vittenbergda falsafa xam o'qigan edi. U har narsadan avval fikrlovchi edi. Unga otasining o'limi uchun qasos olish kerak edi. Bir tomondan qaraganda bundan xam oddiyroq narsa bo'lmasa kerak. Lekin Hamlet bu masala ustida fikr qiladi, uni har tomondan o'ylab tekshirib boradi. Fikrlov uning ko'nglida harakatdan ustun chiqadi. Hamlet masalani, ya'ni qasosni amalga oshirish kerakmi yo-yo'q degan masalani hal qilolmaydi. Hamletda o'z o'gay otasining bu ishda aybli ekaniga dalillar bor. Uning qo'lida o'gay otasini o'ldirish uchun xam ko'p imkoniyatlar bo'ladi. Lekin undagi o'ychanlik, jur'atsizlik, ko'p fikrlov ishni to'sadi va Hamletning ishi faqat Poloniyni tasodifiy ravishda o'ldirishgagina yetadi».

U. Yapiev shu mazmunda yana davom etadi: «Hamlet qirolni o'ldirish yoki o'ldirmaslik masalasini o'ylash bilangina kolmay, o'z-o'zini o'ldirish mumkinmi ekani ustida ham bosh qotiradi.

Tragediyaning 3-pardasidagi mashhur monolog («yashov yoki yashamaslik») o'z-o'zini o'ldirish imkoniyati tutrisida fikrlashga oiddir».

Maqolaning mazmunidan quyidagicha xulosalar kelib chiqadi:

Birinchi tezis. Hamlet o'z qotil amakisi-taxt o'grisini o'ldirish paytida.

Ikkinchi tezis. Qirolvi o'ldirish jo'n ish bo'lsa-da, Hamlet jur'atsizlik qiladi.

Uchinchi tezis. Hamletning jur'atsizlik qilishiga uning kup fikrlashi xalal beradi.

To'rtinchi tezis. Jur'atsizlik va ko'p fikrlash oqibatida u endi o'z-o'zini o'ldirish ustida bosh qotiradi.

Bu asarda tasvirlangan voqealarni yuzaki kuzatish, uning moxiyatini tushunib yetmaslik oqibati edi. Maqolani o'qigan kishi tragediya qandaydir qotillikdan iborat voqeani tasvirlashga bag'ishlangan asar ekan, deb o'ylashi tabiiy.

Durust, kichik maqolada «Hamlet» kabi jiddiy tragediyada ilgari surilgan butun falsafiy kontseptsiyaning barcha masalalarini birma-bir yoritish iloji yo'q, deylik. Lekin bu asar haqida ibtidoiy fikrlar bayon qilishga xam asos bermaydi, albatta. Ammo tarjima tanqidchiligining mana shunday bosqichida, tragediyaning mohiyatini mana shunday tushunish mavjud bo'lgan bir sharoitda jaxon klassik adabiyotining yirik asarlarini o'zbek tiliga adekvat tarjima qilish xam, uni yuqori saviyada saxnalashtirish ham favqulotda qiyin ish edi.

M.Hofiz «Ulkan g'alaba» nomli maqolasida «Hamlet» ning o'zbek drama teatri saxnasida yuksak maxorat bilan qo'yilganiga munosib baho beradi. Bu, avvalo, postanovkasi Mannon Uyg'ur, rejissyor Boboxo'jaevning hamda yetakchi aktyorlar Abror Hidoyatov, Sora Eshonto'raeva, Lutfulla Narzullaev, qolaversa, butun teatr jamoasining ajoyib g'alabasi ekanligini ta'kidlaydi. Maqola muallifi qo'lga kiritilgan yutuqning nimadan iborat ekanini to'laroq ochib berish uchun Behbudiyning «Oyna» jurnalida aytgan so'zlarini keltiradi. U bir necha jurnalxonlarning o'zi yozgan asar nima uchun qo'yilmayotgani xususidagi savoliga shunday javob beradi: «Pyesa shuning uchun xam saxnalagntirilmayaptiki, Turkistonda saxnada o'ynay oladigan o'n kishi topilmaydi, chunki artistlik hunariga yomon nazar bilan qaraydilar, buni masxarabozlik deb tushunadilar. Agar saxnada o'ynay oladigan unta odam topilganda, biz ularga bajonidil 100 so'mdan maosh to'lar edik».

Butun o'lkadan saxnada rol ijro etadigan o'n nafar artist topilmagan bir sharoitda, oradan ko'p o'tamay, Hamza nomidagi o'zbek drama teatrlarining ta'asis etilganiga nihoyati o'n besh yil to'lishi munosabati bilan jaxon adabiyotining shox asarlaridan «Hamlet» ning o'zbek tilida qo'yilishi o'ziyoq chinakamiga buyuk voqea edi. Tragediyada shahzoda rolini ijro etishdan ilgari xam Abror Hidoyatov iste'dodli aktyor sifatida tanilgan, lekin Hamlet rovida u o'zining jo'shqin, mantiqli harakatlari, joziba-dor qiyofasi bilan barkamol san'atkor darajasiga ko'tarilganini ko'rsatib, yetuklik imtihonidan muvaffaqiyat bilan o'tadi. Shuninglek, Sora Eshonto'raeva ham

Ofeliya rolini nixoyatda ustalik bilan ishonarli ijro etadi. Xususan, Ofeliyaning aql-dan ozish manzarasi tomoshabinlarda chuqur taassurot qoldiradi,

«Hamlet» tragediyasining o'zbek tilida moxirona ijro etilishi tufayli teatr tomoshabinlar qalkib kela boshlaydilar. M.Hofiz shaxodat berishicha, ular orasida pagap ji yopingan kampirlar, salla uragan chollar, ishchilar, qizlar askarlar, o'zbek ziyolilari bo'lgan. Stanoklar oldida, oliy o'quv yurtlarida muassasalar, tramvay va ko'chalarda, el-yurt orasida eng ko'p ishlatiladigan so'z-*Shekspir, Hamlet, Ofeliya* bo'lib qolgan.

«Pravda Vostoka» gazetasida e'lon qilingan mazkur maqolada aytilishicha, «Hamlet» ning o'zbek tilida ko'yilishi Hamza nomidagi o'zbek drama teatrining ba'zi sohalarda Toshkentdagi rus drama teatridan o'zib ketganligini ko'rsatadiki, u «Hamlet» tajribasida Hamza nomli teatrdan ko'p narsani o'rganishi mumkin. Shuningdek, maqola muallifi «Hamlet» tragediyasi Sverdlov nomli teatr hamda viloyat teatrlarida ham namoyish qilinishi zarur, deb hisoblaydi. Uning fikricha, rus tomoshabini xam uni zavq bilan kurishi mumkin, negaki akterlarning yuksak maxorati va ishon-tirish san'ati til bilmaslikning o'rnini bemalol qoplay oladi.

A`zam Ayyub «Ulug' hodisa» nomli maqolasida Abror Hidoyatov Hamlet rolini o'ynashga hozirlik kurishi o'zi uchun imtihon ekanligini aytganini eslatib, aslida, tragediyaning qo'yilishi butun Hamza teatri kollektivi uchun ham katta imtihon bo'lgan edi, deydi. U yozadi; *«Daniya mamlakatinn va balki butun dunyoni kamokxona deb bilgan, ammo xakikatning nima ekanini bilishga intilgan bulsa~da, uni topishda idrok bilan din-imon orasnda o'ralib qolgan Hamlet fojiasini gavdalan tirish yengil gai emas. O'lmoq va yashamokdan kaysi biri afzal ekanini yecholmay, o'zini chuqur va natijasiz tafakkur daryosiga tashlagan, o'z siporligini yo'qotgan o'kimishli bir ziyolining rolini ko'ngildagidek bajarish kichkina bir yutuq emas. Yozuvlardan o'ch olishni ko'ngilga joy qilib olgan bo'lsa-da, Ofeliyaday sevilgai ezgu qizga ham ishonmay bolagan badbin va shakkok-skeptik bir figugap i bera bilish shunchaki bir o'yini emas».*

A`zam Ayyub Hamlet rolini ijro etish naqadar murakkab ish ekanini haqqoniy qayd etadi. Uning tomonidan bu obrazga berilgan ta'rif va tavsiflar o'sha davrda hali buyuk Shekspir daxosi olamiga kirib borish yo'llari ham o'nqir-chunqir bo'lganligini yana bir karra isbotlaydi.

«Hamlet» ni qo'yishga kirishuv oldidan,- deb yozadi maqola muallifi jiddiy bir savol to'tilgan edi: tomoshabin tushunarmikan? Bu savol o'z vaqtida o'rinli ham edi. Shekspirday dramaturgning asarini qo'yishda shunday savol berilmasa ham bo'lmas edi. Mumtoz asarlarini o'z sahnasidan namoyish qilayotgan Hamza nomli drama teatri o'z tomoshabinlarini o'rganayotgan edi. Tomosha paytida zalda hozir bo'lganlarning yuz-ko'z ifodasi va harakatlariga qarab, «asarning asosan tushunilmoqda ekanini sezamiz».

A.Ayyub juda bir muxim omilga-tomoshabin masalasiga e'tiborni qaratadi. Uning usuli bilan aytganda, faqat tomoshabin teatrn «o'rganmaydi», balki teatr ham tomoshabinni «o'rganishi» kerak. Zotan, tomoshabinning talabi, didi, saviyasini o'z vaqtida hisobga olib bora bilgan teatr kollektiv igina katta ma'rifiy rol o'ynay oladi.

Oradan qariyb bir yarim yil o'tgach, Nazir To'raqulov «Hamlet» ga tuxmat» nomli maqolasida bu «uncha jiddiy bo'lmagan kamchilik» larni ham, «juda jiddiy kamchiliklar»ni ham ancha bo'rttirib, qabartirib ko'rsatdi. Lekin bunday nuqsonlardan qat'iy nazar A`zam Ayyub so'zlari bilan aytganda, «Hamlet»ning qo'yilish dalilining o'zi xam hech bir esdan chiqarish emaski, «biz olamga tatiyturgan bir ish qildik».

Tragediyaning o'zbek teatri saxnasida qo'yilishi hamirdan qil sug'irgandek, silliq kechgani yo'q, murakkab vaziyatda amalga oshirildi. Buning sabablarini o'zbek adabiyoti va teatr san'atida unutilmas xizmat ko'rsatgan Ziyo Sayd tushuntirib berdi.

Hamza nomidagi o'zbek Davlat drama teatrining o'n besh yillik yubileyiga tayyorgarlik ko'rilayotgan bir davrda, 1933 yil oxirlarida Ziyo Sayd shu teatrning direktori vazifasiga tayinlanadi. Teatrning 1934 yiliga mavzu rejasi muxokama qilinayotganda u yubiley hisobot spektakli sifatida Villyam Shekspirning «Hamlet» tragediyasini sahnalashtirishni taklif etadi. Chunki xuddi shu asar teatr kollektivi uchun chinakam imtixon vazifasini o'tay olar edi.

Kollektiv oldida yana o'sha mash'um savol: *uddalay olarkanmizmi?* Spektaklni o'zbek tomoshabinlari qanday kutib olarkin? Degan muammo ko'ndalang turardi. Bu muammo qanchalik yoqimsiz bo'lsa, shunchalik asosli ham edi. Avvallo, G'arbiy yevropa dramaturgiyasi klassiklarining jahonshumul asarlarini saxnalashtirish an'anasi, tajribasi va bunday tajriba uchun zaminning bo'lmasligi bilan birga, bunday mushkul vazifani uddalay oladigan, uzoq yillar mobaynida uyushgan kuchli teatr kollektivining yo'qligi jiddiy tashvish tug'dirardi.

Lekin respublika maxalliy hokimiyati ko'rsatgan katta yordamlari tufayli Hamza teatrining moddiy bazasi mustaxkamlandi. Bundan tashqari, birinchi o'zbek mutaxassis artistlari «Turkiston tabibi» pyesasini ijro etganlaridan buyon (1920) o'tgan o'n besh yil ichida birmuncha tajriba ham to'plagan edi. Shu yillar ichida o'zbek aktyorlari rus teatr san'ati arboblari nazorati va yaqindan ko'rsatgan og'alarcha yordami tufayli ajoyib mahorat maktabini o'tadilar. Ular Vaxtangov hamda Meyerxol teatrlari studiyalarida o'qib-o'rganib, ijrochilik san'ati sirlarini ochdilar.

Ziyo Sayd ko'rsatishicha, «Hamlet» tragediyasining postanovkasini maxalliy rejissyorlar uddalay olmaydilar, Moskvadaga Vaxtangov nomidagi teatrning rejissyori Zaxauni taklif qilish kerak, degan masala ko'tariladi. Biroq Hamza teatrining bosh rejissyori Vitt bu mushkul vazifani respublika xalq artisti Mannon Uyg'ur bilan rejissyor Boboxo'jaevga ishonib topshiradi. Mamlakatimiz yirik teatrlarining Shekspir asarlarini saxnalashtirish yuzasidan orttirgan boy tajribasini o'rganmay, ijodiy o'zlashtirmay turib bu mushkul vazifani amalga oshirish qiyin edi. Shu sababli Mannon Uyg'ur bilan Boboxo'jaev Moskva va Leningrad teatrlarida ijodiy safarlarda bo'ladilar. Ular mashxur shekspirshunoslar (prof. Smirnov va b.), taniqli rejissyorlar (Sannovskiy, Zaxau va b.) bilan uchrashib, ulardan yo'l-yo'riq va maslahatlar oladilar. M.Uygur va Boboxo'jaev urtoqlar Moskva va Leningrad dan juda boy material bilan qaytadilar.

Biroq yuqorida aytilganlardan o'zbek milliy drama teatri Moskva va Leningrad teatrlarining tajribasidan quruq nusxa ko'targan ekan, degan xulosa kelib chiqmaydi. Bu chinakam ijodiy o'rganish namunasi edi. O'zbek san'at mutaxassislari «Hamlet» tragediyasini saxnalashtirish soxasida yo'l qo'yilgan ayrim xato va kamchiliklarni takrorlamadilar, ularni tuzatdilar. Masalan, Vaxtangov nomli teatrda qo'yilgan «Hamlet» spektaklida Daniya shaxzodasining butun faoliyati taxt uchun kurashdan iborat bo'lib qolgan edi. Bu esa Shekspir asarining mohiyatini xam, buyuk muallifning maqsadini ham siyqalashtirishga olib keladi. Huning uchun ham tragediya o'zbek saxnasida bo'lakcha g'oyaviy-falsafiy zaminga qurildi,

O'zbek tilida «Hamlet» tragediyasi mislsiz muvaffaqiyat qozonadi.

Shuni qayd etish kerakki, o'z milliy teatri saxnasida «Temur maqbarasi», «Turkiston tabibi», «Istilo» va boshqa asarlarni sufflyorning «faol yordami» da ko'ra olgan o'zbek tomoshabinlari «Hamlet» tragediyasida tamomila o'z gacha ijtimoiy-badiiy muxit, o'zga olam manzarasi, boshqacha mantiqiy talqin va maxoratga duch keldi. O'zbek tilida «Hamlet» fojiasining qo'yilishi hammaga: san'atshunoslarga xam, aktyorlaru endigina shakllanib kelayotgan teatr va tarjima tanqidchiligiga ham birday yangilik edi. Asarning g'oyasi, dramaturgning o'y-niyati va aktyorlarning mahoratidan tortib, ayrim obrazlar talqini, tarjima va til masalasigacha-xamma jabhalarda ana shu yangilik sezilib turardi. Masalan, Hamlet kim, u qanday obraz degan masalada xam har kim o'zicha fikr yuritardi. Chunonchi, Hamlet ko'proq kim: otasining taxti uchun kurashuvchimi? Padari buzrukvorining xuni uchun intiqom oluvchimi? Zulm va qabohatni tag-tomiri bilan yo'qotishga bel bog'lagan adolatparvarmi? Yoki o't bilan suv o'rta-siga tushib, arosatda qolgan, o'z g'animlarini o'ldirishni xam, o'z-o'zini mahv qilishni ham bilmay sarsonu sargardon, tarkidunyo qilgan bir kimsami? Faol obrazmi yoki passivmi? Va hokazo. Ana shu masalalarni aniqlamay, ularga javob bermay turib «Hamlet» postanovkasining muvaffaqiyati haqida gap bo'lishi mumkin emas edi.

Yuqorida hali asarni sahnalashtirish oldidan U. Yapiyevning e'lon qilingan maqolasi va unda yo'l qo'yilgan nuqsonlar xususida to'xtab o'tilgan edi. Tragediya saxnalashtirilishi tomoshabinlarga ko'rsatilganidan so'ng o'sha gazetaning o'zida xuddi shu muallifning «Klassik dramaturgiya yuksakliklariga» nomli maqolasi bosib chiqadi. U. Yapiyevning asar g'oyasi haqida aytgan nazariy firklari va talqini bilan fojining saxnadagi talqini o'rtasida juda katta farq bor

edi. Ana shu tafavutni ko'rgan maqola muallifining o'z mavqeiga munosabati qanday bo'larkin, degan masala chinakam qiziqish tutdiradi.

Maqolaning bosh qismida U. Yapiyev Ziyoy Said va Boboxo'jaevlarning fikrlariga havola kilib, Hamletning «...bunda passiv unsur emas, balki teatr tomonidan faol unsur sifatida tasvirlanishi» qayd etiladi. Muallif davom etib aytadi: «Shekspirning yozishiga Karaganda, Hamlet har xil o'y va fikrlarni boshidan kechiraturgan kishi. Bu kishining fikri irodani yengadi. Bu kishi o'z oldida turgan masalalarni darrov hal kilolmaydi, Bu kishidagi passivlik teatr tomonidan birinchi o'ringa qo'yilmoqchi bo'lgan aktivlikdan ustun».

U. Yapiyev bundan oldingi maqolasida yo'l qo'ygan nuqsonlarini ko'r -ko'rona takrorlamasa-da, uning Hamletga hamon o'sha eski darveshnamo obraz sifatida qaragani, teatr talqiniga xam unchalik moyil emasligi ko'rinib turadi.

Asardagi obrazlarning ijrosi taxliliga o'tar ekan, muallif «jung'uriyat xalq artisti Abror Hidoyatovga O'rta Osiyoning milliy junguriyatlarida birinchi martaba Hamletday qiyin rolni o'ynashga to'g'ri kelgan» ligini qayd etadi. Abror Hidoyatovning mahoratiga yuksak baxo bergan munaqqid ijrodagi ba'zi qusurlarni ham ko'rsatib o'tadi: «O'lish yoki yashash»(Shahzoda Hamletning «yo o'lish, yo qolish» («bo't ili ne bo't») , (to be or not to be) monologi nazarda tutiladi.) to'grisidagi mashhur monolog tomoshabinga bo'rttirib ko'rsatilmadi, aytilmadi.

Holbuki, Hamletning o'z kuchlariga ishonmagani, o'z-o'zini o'ldirmoqchi bo'lgani va qarama-qarshiliklardan bezor bo'lgani xuddi shu monologda ko'rinib turadi». «So'z san'ati ustida jiddiy ishlash kerak,- deb yozadi u-«Hamlet» singari qiyin spek-aklda tomoshabinning bosh qahramonning butun so'zlarini eshitmay qolishi uncha yaxshi emas, albatta».

Tabiiyki, Hamlet rolining ijrosidagi dastlabki qadam-larda aktyorlik san'ati, harakat va talaffuzda ma'lum nu sonlar bo'lmay iloji yo'q. Hali rol aktyor tomonidan «hazm qilinmagan» bo'ladi, Bundan tashqari, so'zlarni «dona-dona qilib gapirish» xamda talaffuzdagi qusurlarning hammasini aktyorning zimmasiga yuklayverish ham to'g'ri bo'lmas. Bunday «nutqiy passivlik» ning negizi bir tomondan tarjimaga borib taqaladi.

U. Yapiyev Abror Hidoyatovning Hamlet rolini ijro etishdagi kamchiliklari haqida gapirganida ham uning Daniya shahzodasi rolini noto'g'ri tushunganligi namoyon bo'ladi. Maqola muallifi uchun hammadan muximi Hamletning «o'z kuchiga ishonmasligi», «o'z-o'zini o'ldirmoqchi bo'lgani» va unga «qarama-qarshiliklardan bezor bo'lganidir». Asarni sayoz tushunish, obrazlarning g'oyaviy va badiiy-estetik mohiyatini anglab yetmaslik ularning ijro etilishiga nisbatan ham noto'g'ri talab qo'yishga olib kelgandi.

I.3.JAHON ADABIYOTIDA V.SHEKSPIR IJODINING O`RNI VA

HUSUSIYATLARI

Uyg'onish davri adabiyotiga nazar tashlar ekanmiz, insonparvarlik g'oyalari bu davr uchun suv va havo kabi zaruriy ehtiyoj bo'lganligini, uning talqini esa har bir satrda tajassumini topganiga iqrar bo'lasiz. Hoh drama, hoh komediya, hoh tragediya, hoh poema bo'lsin bularning bari birgina inson ma'natlarini ko'zlab yaratilgan. Boisi bu asarlarning egalari ya'ni Angliya adabiyotining ayni shu davrda ijod qilgan har bir vakilida insonga muhabbat, ezgulikka umid, razolatga nafrat va albatta ma'rifatga intilish hissi hukmron edi. Ana shunday insonparvar vakillar orasida esa eng hurmatli o'rinlardan birini shubhasiz jahon dramaturgiyasining buyuk namoyondasi adabiyot olamida mislsiz yangiliklar yaratgan V.Shekspir egallaydi.

V.Shekspir Uyg'onish davrining eng yirik vakillaridan biridir. U haqida yuzlab kitoblar yozilgan, ko'plab Shekspirshunoslar yetishib chiqqan, uning ijodi turli, o'ta ziddiyatli fikr-mulohazalar uyg'otgan. Bizdan 400 yil oldin yashab ijod etgan bu buyuk dramaturg ushbu sohada egallagan cho'qqi hanuz zabt etilgani yo'q.

V.Shekspir hayotiga oid uncha ko'p ma'lumotlar saqlanib qolmagan, borlari ham to'liq va aniq emas. V.Shekspir 1564-yil 23-aprelda Eyvon daryosi sohilidagi Stratford shahrida tug'ilgan. V.Shekspirning ajdodlari yemenlar-ya'ni, erkin dehqonlar bo'lganlar. Ular orasida jasur jangchilar, nayzadorlar, yoyandozlar bo'lganligi taxmin qilinadi. «Shekspir» so'zi – “nayza o'ynatuvchi” ma'nosini anglatadi.³

Shekspirning otasi hunarmand-savdogar bo'lgan, u charm va charm qo'lqop bilan savdo qilgan. Ishlari yurishgan davrlarda hatto shahar meri qilib ham tayinlangan. Biroq ishlari orqaga ketib singach, oila haqida qayg'urish, g'amxo'rlik qilish katta o'g'li Uilyam zimmasiga tushadi.

Stratfordda Shekspir ta'lim olgan maktab hanuz saqlanib qolgan. Bu maktabda ingliz tili bilan bir qatorda qadimgi lotin va yunon tillari o'qitilgan. Uilyam qobiliyatli o'quvchi bo'lgan, hatto keyinchalik shu maktabda o'qituvchi yordamchisi bo'lib ishlagan. Ayni paytda go'sht do'konida yollanma ishchi (shogird) bo'lib xizmat qilgan. Uka va singillarini boqish uchun qo'shni o'rmonda ovchilik qilgan. Bu esa taqiqlangan edi, chunki barcha o'rmon va parklar qirollik mulki hisoblanardi. Biroq ov asosiy tirikchilik vositasi edi va Shekspir shunday qaltis yoi tutishga majbur edi. Albatta, botir ovchi, sevimli xalq qahramoni Robin Gud haqidagi afsonalar ruhida ulg'aygan yosh Shekspir uchun bu romantika bo'lib tuyulgan bo'lishi ham mumkin.

V.Shekspir 18 yoshida 26 yoshli fermer qizi Anna Xetueyga uylanadi va 20 yoshida kattagina oilaning boshlig'iga aylanadi - qizi Syuzen, egizaklar Yudef va Hamletga ota bo'ladi. Endi u ikki oilani - o'zining va atasining oilasini boqishi lozim edi. Uning noqonuniy ovchiligiga barham beradilar, o'rmon qorovullari Uilyamni o'ldirilgan bug'u bilan tutib oladilar va sudya ser Tomas Lyusi oldiga olib boradilar. V.Shekspir Lyusi haqida epigrammalar to'qigan va ular xalq orasida mashhur edi. Brakonyerlarga beriladigan jazo og'ir edi—qamchi bilan savalash, badaniga qizdirilgan temirni bosish, hatto qatl qilishgacha borilar edi. V.Shekspir Stratforddan qochadi va Londonda panohtopadi. Oradan besh yil o'tgach, uning yurtdoshi, hunarmand Berbej tomonidan qurilgan London teatrida aktyor va dramaturg sifatida paydo bo'ladi. V.Shekspir teatrdagi ishni badavlat tomoshabinlarning otlariga qo'riqchilik qilishdan boshlaydi. Keyinchalik aktyorlik qiladi. So'ngra unga eski pyesalarni qayta ishlash vazifasini topshiradilar. Tajriba to'plagach, mustaqil ijod bilan shug'ullana boshlaydi.

XVI-asrning 90-yillarida V.Shekspir hayotining moddiy va ma'naviy jihatdan gullab-yashnagan davri hisoblanadi. Oilasi hali ham Stratfordda yashar, u tez-tez kelib ularning holidan xabar olib turar edi. Shekspir shahardagi eng yaxshi uy va shahar tashqarisida yer sotib oladi. Otasiga barcha qulayliklar yaratdi, unga dvoryanlik unvonini olib berdi.

V.Shekspir davri teatri hozirgisiga uncha o'xshamaydi. Sayyoh aktyorlar, asosan, mehmonxona hovlilarida tomosha ko'rsatishar, tomoshabinlar oldindan, yon tomondan hamda mehmonxona balkonlaridan sahnani tomosha qilardilar. XVI asrdagi Londonning doimiy teatrlari ham ana shunday qurilgan bo'lib, parda va dekoratsiyalari bo'lmagan ochiq maydonchadan iborat edi. Aktyorlar sahnaga orqa tomondagi eshikdan kirar edilar, tomoshabinlar esa hatto ba'zan sahnaga ham chiqib o'tirardilar.

³ V. SHEKSPIR. Saylanma : 1-jild T. Fan nashriyoti -2007, 68-b

Tomoshada ayollar qatnashmasdi, teatrga kelgan ayollar yengiltabiat hisoblanardi. Ba'zi gap-so'zdan qo'rqmaydigan kibor ayollar teatrga kelishga jur'at qilardilar, lekin ular ham yuzlarini niqob bilan to'sib olardilar. Aktyorlar ichida ham ayollar yo'q edi Dezdemon va Ofeliya rollarini chiroyli o'spirin yigitchalar ijro etardilar.

Shekspir biograflarining ma'lumotlariga qaraganda uning eng yaxshi roli Hamlet otasining arvohi bo'lgan. U qirollar rolini o'ynagani ham aytilgan. Bunday rollar esa faqat eng yaxshi aktyorlarga topshirilgan. Bu esa Shekspir yomon ijrochi bo'lmaganidan dalolat beradi.

1599- yilda Londondagi eng yaxshi teatr—«Globus» ochiladi va Shekspir uning boshqaruvchilaridan biri qilib tayinlanadi.

Buyuk o'zgarishlar davri bo'lgan Renessans ayni paytda yangicha munosabatlarning shakllanish davri edi. Anghyada jun ishlab chiqarish sanoati rivojlanishi natijasida dehqonlarning yerlari qo'y-qo'zilar uchun o'tloqlarga aylantirdi, bu esa ularning qashshoqlashuviga sabab bo'ldi. Angliya qirolichasi Yelizaveta shafqatsiz hukmdor edi, lekin u bu xnsusiyatini pardalay bilar, ish yuritishda parlamentga va dinga tayanar edi. Ayniqsa hukmronligining oxirgi bosqichiga kelib qo'l ostidagilarga nisbatan shafqatsizligi va ularning taqdiriga befarqligi kuchaydi. U badavlat kiborlaiga xo'jalikning muhim sohalarini boshqarishni berar, evaziga esa ulardan mo'may haq olar, endi pariamentga emas, maxfiy politsiya va kengashga tayanar edi. Oqibatda hur fikrlilik uchun ta'qiblar, oziga yoqmagan kishilarni qatl etishlar boshlandi.

Shekspir sehrgar qilmishida o'z qismatini bashorat qildi. Buyuk fojiaavis sahnani va ijodni tark etdi. 1612-yilda dramaturg qadrdon Stratfordga qaytdi. Oradan to'rt yil o'tgach, 1616-yilning 23-aprelida 52 yoshida vafot etdi. Uni Stratford cherkoviga, mehrob ostiga ko'madilar. O'limi oldidan qabriga shunday so'zlarni yozib qo'yishlarini vasiyat qildi: «Aziz do'stim, Iso haqqi bu yerga ko'milgan xokni bezovta qilma. Ushbu toshlarga shafqat qilganlar xudoning marhamatiga sazovor bo'lsinlar, mening suyaklarimni bezovta qilganlar xudoning qarg'ishiga qolsinlar».

V.Shekspir bu so'zlar bilan go'yo kelgusida uning ijodiga nisbatan adolatsiz munosabatlarning oldini olmoqchi bo'lgan. Aslida Shekspirning vasiyatini juda jo'n izohlash mumkin. U qo'yilgan joy badavlat va obro'li kishilarning o'rni edi. Keyinchalik birorta puldor odam bu joyni sotib olishi mumkin edi. V.Shekspirni shu narsa bezovta qilgan bo'lsa kerak. Biroq XIX asrga kelib Shekspirning muallifligi masalasi atrofida bahs-munozaralar vujudga kelganda Shekspir qabridagi vasiyatnoma ham go'yo bir dalil vazifasini o'tadi. Gap shundaki, XIX asrda Shekspirning asarlari boshqa biron tomonidan yozilgan, degan fikr o'rtaga tashlanadi va hatto jiddiy ilmiy tadqiqotlar uchun mavzuga aylanadi. Bunda oddiy, adabiyot va san'atdan yiroq oiladan chiqqan, maxsus ta'lim ko'rmagan aktyor shunday buyuk asarlar yaratishi mumkinligi, buning ustiga, o'z davri fanlariga oid bilimlardan bu qadar keng ma'lumotga ega bo'lishi (masalan, tibbiyot to'g'risida shifokor, huquq to'g'risida huquqshunos, o'simliklar to'g'risida botanik sifatida fikrlashi) shubhaga olinadi. Bir turkum tadqiqotchilar Shekspir asarlari yozuvchi va olimlar guruhi tomonidan yozilgan, degan fikrni ilgari suradilar.⁴

Ikkinchi turkum tadqiqotchilar esa, uslubdagi yagonalikni sezgan holda, muallif kiborlar jamiyatidan bo'lgan, degan mulohazani o'rtaga tashlaganlar. XVI asr sharoitida shunday bo'lishi ham mumkin edi, chunki kiborlarning sahna uchun asar yozishlari juda past ketish, ularning sha'nlariga noloyiq hisoblanardi. Shu sababli Shekspir nomi ostiga biror obro'li kibor yashiringan bo'lishi ehtimol. Shu tariqa Shekspir pyesalari goh ingliz faylasufi Frensis Bekon, goh graflar Retlend, Derbi, Osfordlar ijodi, deb taxmin qilingan.

Amerikalik Deliya Bekon 1857-yilda «Shekspir falsafasiga izoh» asarida Shekspir va faylasuf Bekon qarashlaridagi yaqinlikni isbotlagan. Biroq xulosa munozarali edi, olima fikricha, go'yo Shekspir asarlarini faylasuf Bekon, u boshchiligidagi to'garak yozgan.

⁴ V. SHEKSPIR. Saylanma : 1-jild T. Fan nashriyoti -2007, 115-b

Deliya Bekon mualliflik jumbog'ining javobi dramaturgning qabrida yashiringan, degan fikrga ham borgan. Bu shunchalik asosli bo'lib tuyulganki, olima Angliyaga kelib, Stratfordga joylashgan. Kecha-kunduz Shekspir qabridan nari ketmagan. Nihoyat odam yollab Shekspir maqbarasiga tushmoqchi bo'lganida ushlab olingan.

Shifokorlar tekshirishidan so'ng Deliya Bekon aqldan ozgan, deb topilgan va ko'p o'tmay ruhiy xastaliklar shifoxonasida olamdan o'tgan. Bu hodisa go'yoki u Shekspir qabri ustida bitilgan vasiyatnomadagi so'zlar haq bo'lib chiqqandek, olima daho san'atkor qarq'ishiga qolqandek taassurot uyg'otadi.

XX asr o'rtalariga kelib Amerikada V. Shekspirning muallifligi masalasi yana ko'tariladi. Endi Shekspir asarlari uning zamondoshi, 1593-yilda fojiali halok bo'lgan Kristofer Marloniki deya isbotlashga urinildi. Bu qarash tarafdorlarining fikricha, Marlo qotillardan yashirinish maqsadida Shekspir imzosi bilan asarlar yozgan. Bu nazariyaning ham asosi puchligi tezda ma'lum bo'lib qoldi. Marlo bilan Shekspir bir davrda ijod qilgan bo'lib, ularning asarlarini farqlash qiyin emas. So'ngra Marloning o'limi ham aniq qayd etilgan. Shekspir asarlari Mario tomonidan yozilganligi xusasidagi taxminda hech qanday mantiq yo'qligi aniqlangan.

Bu kabi bahslarga allaqachon barham berilgan va har qalay o'tmishda Shekspir ismli daho yashab o'tganligi, uning o'lmas asarlari bugunga qadar insoniyat qalbini zabt etib kelayotgani aniq faktidir.

Shekspir ijodini she'riyatdan boshlagan. Uning ikki dostoni “Venera va Adonis” hamda “Lukretsiya” o'z davrida mashhur bo'lgan. Buyuk dramaturg, ayniqsa, sonet janrida shuhrat qozongan. Sonet Italiyada vujudga kelgan janr bo'lib, 14 satrdan iborat bo'lishi kerak. Ingliz soneti 4 va oxirgi 2 satrdan iborat. Shekspirning oddiy ingliz sonet shakliga chuqur mazmun singirdi. Uning 152 ta soneti mayjud bo'lib, 126 tasi shoirning do'stiga, 28 tasi qorasoch ayolga bag'ishlangan. Shekspirning ishqiy she'rlari hayotiyliigi bilan ajralib turadi. Petrarka va uning ingliz izdoshlari ijodida oltin sochli, farishtasimon, yetishib bo'lmas go'zal kuylanadi. Shekspirsonetlarining qorasoch qahramoni esa jonli va hayotiy obrazdir.

Tadqiqotchilar Shekspirning pyesalari sonini 37 ta deb ko'rsatadilar va uch davrga bo'lib o'rganishni ma'qul ko'radilar.

1590-1600- yillar. Bu davr yosh dramaturgning hayotga va kelajakka ishonchi barq urib turgan davri. Ko'plab komediyalari va «Romeo va Juletta» tragediyasi aynan ana shu davrda yozilgan.

1601—1608-yillar. Bu bosqichda, asosan, uning tragediyalari yaratilgan. Shekspir oilasida ro'y bergan fojialar hamda ingliz xalqining qashshoqlashuvi dramaturg ijodida iz qoldirmay ketmagan. «Hamlet», «Otello», «Qirol Lir», «Makbet» tragediyalari uning qalbidagi ruhiy jarayonlar silsilasi mahsulidir. Hatto shu davrda yozilgan komediyalarida ham dramatik run ustuvorlik qiladL

1609—1613- yillar dramaturg ijodida fojeiy run bir qadar susaygan davr. Chet ellik tadqiqotchilar buni dramaturgning voqelik bilan murosaga kelgani, kurashdan charchagani bilan izohlaydilar. Voqelik-dagi o'zgarishlar, hukmron tabaqaga xizmat qilishga majburlik Shekspir irnkoniyatlarini cheklagan bo'lishi mumkin. Biroq falsafylik, o'git kuchayganligi «Simbelin» (1610), «Qishki ertak», «Bo'ron» pyesalarida kuzatiladi.

V. Shekspir komediyalari xilma-xildir. Qadimgi Rim komediyasining qayta ishlangan shakli «Xatolar komediyasi», Angliya hayotidan olingan “Vindzorlik masxaraboz ayollar”, italiyaliklar hayotidan olingan “Veronalik ikki yigit” (1594), ‘O'n ikkinchi kecha” (1600), fantastik ertak-pyesa «Yoz tunidagi kecha» (1596) va boshqalar ham shular sirasiga kiradi. Biroq bu asarlar mavzu jihatdan bir-biriga yaqin bo'lib, deyarli hammasida muhabbat mavzusi ko'tariladi. Shekspir ijodiga xos kuchli tragizm hatto komediyalarida ham o'zini namoyon qilib turadi Kulgili vaziyatlar dramatism bilan yo'g'rilib ketadi, biroq asar nihoyasida porloq, ezgu tuyg'ular g'alaba qozonadi va bu

narsa ularni komediya deb hisoblanishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

II-BOB. TARJIMA, TA`SIR, TAQLID

II. 1 “Hamlet” tragediyasida adabiy til muammosi

«Hamlet» tomoshabinlarga namoyish qilingandan so'ng, tragediya barchaga tushunarli bo'larmikan? degan savolga xam javob olindi. Bu jihatdan 1935 yilda teatr tanqidchiligi buyicha matbuotda bosilib chiqqan maqolalar, tomoshabinlarning mulohazalari diqqatga sazovor.

Zavodning ishchisi Mansur Zohidov Hamza nomli teatr sahnasidan ko'rsatilgan «Iterventsiya», «Istiqlol», «tarix tilga kirdi», «Musofirxona bekasi», «Hamlet» asarlarini mamnuniyat bilan tilga oladi va «Chapaev» hamda «Hamlet» asarlarini bir-biriga qiyoslaydi. «Chapaev» asarida tasvirlangan voqealar garchi mehnatkash ommaga to'la tushunarli bo'lsa-da, vaqtli matbuot saxifalarida uni tushuntirib surunkasiga maqolalar yozilgan. Holbuki, «Hamlet» da bo'lsa «butun boshqa bir hayot», «necha yuz yillar burun bo'lib o'tgan tarixiy voqealar» tasvirlanadi. Shu sababdan zavodning bir talay ishchilari asarni birinchi marta tomosha qilganlarida uning mazmuni va ichki mohiyatiga tushuna olmaganlar. Jaxon klassik adabiyotining «Hamlet» singari salmoqdor asarlarini saxnalashtirish oldidan matbuotda ular haqida maqolalar berib borish lozim, degan istak bildiradi M.Zohidov.

Shu zavod ishchisi Toshmuxammad Shokirov esa o'zbek tomosha-binlarining saviyasi ancha o'sganligi haqida yozadi. U so'nggi bir-ikki yil ichida «Farhod va Shirin», «Tarix tilga kirdi», «Layli va Majnun» asarlarini tomosha qilgan. Dastlabki paytlarda meni artistlarning g'alati kiyinishlari, ur-yiqit, muzika va ashulalar qiziqtiradi, lekin keyingi vaqtlarda saxnadan aytilgan so'zlar va fikrlarning ma'nosiga ko'proq e'tibor qiladigan bo'lib qoldim, deb xikoya qiladi u. So'ngra teatr repertuariga nisbatan o'z istagini bayon etadi: «Tarixdan biz ko'p narsalarni o'rganib olmog'imiz lozim. Lekin proivzodstvodagi butungi hayotimizni ham esdan chiqarish yaramaydi. O'zbek saxnasida zavod, fabrika, turmushdan yozilgan asarlar yo'q darajasida. Udarnikning tsexda qanday ishlashini ko'ngildagidek qilib ko'rsatgan asarlarni, o'sha

udarnikning mukofot uchun kurortga putyovka (yo'llanma) olib dengiz qirg'og'ida dam olib, bemalol yotiqlarini saxnada ko'rsatish kerak edi».

Yuqorida aytilgan fikr ishchi nomidan keltirilgan. Zero, hali o'ttizinchi yillarda zamonaviy mavzuda yaratiladigan asarning mazmuni va mundariyasi haqida hatto mutaxassis san'atkorlar, dramaturg va matbuot xodimlarida xam mukammal tasavvur yo'q edi. Xususan, ishchi nomidan zamonaviylik xaqida yozilgan kjo'ridagi fikrlarni uning tarixiy mavzuni qanday talqin va tasavvur etish bilan mukoyasi etiladigan bo'lsa, manzara yanada yorqinlashadi: «Hamlet» postanovkasi ustida. Bu asarni saxnada qo'yish uchun «Hamza» teatrining zo'r berib ishga kirishganligi ko'rinib turadi. Artist, artistikalarning o'yini joyida. Mening muloxazam faqat shundan iborat: Hamletning oldiga otasining «arvoh» ravishda kelishi, meningcha, to'g'ri kelmaydi. Biz «arvoh» larni tanimaymiz. Ular, haqiqatda, dunyoda yo'q. Meningcha, Hamletni uxlatib, uning tushida otasini ko'rsatish tuzuk bo'lib chiqar edi», -deb yozadi T.Shokirov.

Badiiy asarning xususiyati, undagi shartlilik, adabiyotning badiiy tasvir vositalari, estetik printsiplari, tarixiy va zamonaviy mavzu xususiyatlari va xokazolar xususiyada mana shunday tasavvur hukmron bo'lgan bir vaqtda «Hamlet» tragediyasining ko'pgina tomoshabinlarga tushunarli bo'lmasligi ajab-lanarli hol emas.

«Hamlet» ning o'zbek tiliga tarjima qilinishi, o'zbek milliy teatri saxnasida o'ynalishi respublika madaniy hayotining ko'p sohalarida: adabiyot, teatrshunoslik, tarjimashunoslik va, kolaversa, til sohasida ham o'ziga xos iz qoldirdi. Bu postanovka, xususan, o'zbek aktyorlari uchun mislsiz ijodiy maktab, imtihon bo'ldi. «Pravda Vostoka» gazetasining 1935 yil 5 mart sonida e'lon qilingan bir maqolada artistka Sora Eshonto'raeva Ofeliyaning esidan og'ishi manzarasini ishonarli, tabiiy, ta'sirli yaratish maqsadida ruxiy kasalliklar shifoxonasi (jinnixonona) ga borib, u yerdagi xasta kishilarning xatti-xarakatlari va qiliqlarini kuzatgani hikoya qilinadi. Ayni vaqtda, original adabiyotda yozuvchilarimiz hayotdan ajralgan holda ijod qilayotganliklari tanqid ostiga olinadi. Masalan, Umarjon Ismoilov «Rustam» pyesasini yaratar ekan, Rustamning singlisi aqlidan og'ishini tasvirlashda jinnixonada ruxiy kasallarni kuzatmagan bo'lsa kerak, deyiladi.

Respublika adabiy tanqidchiligi xali o'ttizinchi yillardayoq «Hamlet misolida G'arbiy yevropa yozuvchilari asarlarining tilimizga tarjima qilinishi yozuvchilarimiz ijodiga samarali ta'sir ko'rsatishini qayd etgan edilar. Biroq bu ta'sir ijodiy bo'lishi kerak, agar faqat quruq taqliddan iborat bo'lib qolsa, samarali bo'lmaydi. Kezi kelganda, yana o'sha «Rustam» pyesasi tilgan olinadi. Rustam tilida Shekspirda mavjud uzun monologlar formasining ishlatilishidan ijodiy foydalanilmagani tanqid qilinadi,

Tarjima, ta'sir va tanqid masalasi - alohida, mustaqil ilmiy tadqiqot ishining mavzui. Bu mavzu filologiya fanlari nomzodi Dildor G'ulomovanning ilmiy ishida qisman o'rganilgan. Chunonchi, uning nomzodlik tadqiqot ida «Hamlet» tragediyasining Maqsud Shayxzoda tomonidan tilimizga tarjima qilinishi o'zbek shoirining «Mirzo Ulug'bek» asarini bunyod etishda sezilarli ta'sir qoldirgani ko'rsatib o'tiladi⁵. Boshqa tadqiqotchilarning ishlarida ham shu fikr qad etilgan. umuman olganda, endilikda Shekspir va o'zbek adabiyoti» mustaqil, jiddiy ilmiy-tadqiqot ishiga mavzu bo'la oladi. O'zbek adabiyotshunosligi fanining fozila tadqiqotchisi F. Sulaymonovanning keyingi yillarda chop etilgan monografiyasi xam bu fikrni tasdiqlaydi⁶.

Ko'zga ko'ringan jurnalist va tarjimon Sanjar Siddiq xam o'ttizinchi yillardayoq tarjima nazariyasining bir qancha masalalarini ko'tarib, unga ilmiy tus berishga harakat qilgan, bu yo'lda katta natijaga erishgan ham edi. Uning tarjimashunoslikka doir maxsus asarlari, maqolalari keyingi yillarda ancha faol o'rganila boshlandi.

⁵ Gulyamova D. Dramaturgiya **Shekspira** na o'zbek skom yazo'ke (Nekotoro'e voproso' istorii i teorii perevoda) AQTS Tashkent, 1971, s. 5-7.

⁶ Sulaymanova F. Shekspir O'zbekistonda. Toshkent, 1978.

Sanjar Siddiq «Saxnada til» nomli maqolasida jiddiy muammoni o'rtaga qo'yadi: bu til masalasidir. Saxnada til masalasi faqat o'ttizinchi yillardagina emas, balki hozirgacha ham kam o'rganilgan.

Sanjar Siddiq saxnada til masalasini Hamza teatrining o'n besh yillik yubileyi kunlari maxsus muxokama qilinishi lozim bo'lgan katta baxs mavzui deb xisoblaydi va maqolada til masalasiga, o'zining iborasi bilan aytganda, «qush boqish bir qarash» qiladi.

Sahna tilini S. Siddiq uch tomonlama tekshirish lozimligini qayd etib o'tadi. Birinchidan - dramaturgning adabiy mohirligi, uslubi; ikkinchidan – artist diktsiyasi (talaffuzi), so'zni tomoshabinga yetkazib berishi; uchinchi - ohang, so'zlash yo'sini. Muallif saxna tili masalasini bu tariqa uch qismga bo'lib o'rganish shartli, aslida uchchalovi birlashib, yahlit bir ijodiy mahsulotni tashkil etishini ta'kidlaydi.

Sanjar Siddiq ko'rsatishicha, o'n besh - yigirma yillar muqaddam (1915-1920 yillarda) teatr til masalasiga aloxida e'tibor bermagan-yu chunonchi, u vaqtlarda biron tilga muvofiq ohangda talaffuz qilish u yoqda tursin, hatto «ma'lum bir tilning o'zida, belgili bir shevada so'zlash ham talab etilmas edi». Har bir aktyor, o'zicha, «ixtiyoriy» til tanlagan, «shuning uchun ham bir asar yo'nalganda ozarbayjoncha, tatarcha, o'zbekcha bilan birga yana ayrim shevalar ham aralash-quralash bo'lib keta bera edi». Bundan ko'rinadiki, teatrning ibtidoiy davrlarida har bir obrazning o'ziga xos individual til xususiyatlari haqida gapirish u yoqda tursin, bu yagona adabiy tilning turli leksik qatlamlari (kasb-hunar so'zlari, sheva xususiyatlari, yangi yasalgan so'z-neologizmlar yoki arxaizmlar) ma'nosida emas, hatto, umuman, saxnada «til qorishliqligi» hukm surgan: har bir aktyor o'z «bilganicha gapiravergan. 1935 yillarga kelib bunday saxnada «til beboshvoqligi» ga barham berilishi, yagona o'zbek adabiy tiliga tarjima qilish, bunda muallif va asarning o'ziga xos uslub xususiyatlarini aks ettirish juda muxim axamiyatga molik edi.

Ana shu jihatdan Sanjar Siddiq «Hamlet» tragediyasining tarjimasida ayrim tiplar tilida bir muncha arxaik uslub, talaffuz va so'zlardan foydalanilganini «Ovrupadagi feodalizm davrida saroy aristokratlarining uslubini, so'zlash tarzlarini ko'rsatish uchun, bizning o'z tarzimizda, davriy kechgan ma'lum bir uslub qo'llanilgan» deb tushuntiradi, misol tariqasida Hamlet tilidan quyidagi so'zlarni keltiradi: «Intiqom! Intiqom!», «Tarki dunyo qil Ofeliya, tarki dunyo», «Uzlatga chekil!» (*Uzlat*-arabcha, Bir tarafga chekinish, kishilardan chetlashishi; *Uzlat* etmak) va xokazo. Bu so'zlar bugungi kun uchun yot bo'lsa-da, S.Siddiqning fikricha, «asar mavzuiga yaroqli bo'lgani uchun unga yopishib tushadi va tomoshabinga «etib» boradi».

Sanjar Siddiq saxna asarlarining tili va uslubi ustidagi ish hali puxta emasligidan, ko'pincha, til vositasi orqali tiplarning o'ziga xosligini yaratish masalasi oqsayotganligidan kuyunib gapiradi. Uning keltirgan misollari yorqin, ishonarli (Masalan, «Shodmon» pyesasida araq majlisida: «Ivan Nesterovichning qotillarining qatl qilinishining sog'ligiga qadax ko'taraman!»).

Maqola aktyorning talaffuziga ham jiddiy e'tibor berishi lozimligi ta'kidlanadi. Chunki «artistning san'atkorlik mahorati ko'proq uning talaffuzi bilan o'lchanadi». Bu jixatdan Hamlet rolida Abror Hidoyatovning talaffuzga - so'zlarni dona-dona qilib so'zlashgan yetarli e'tibor bermaganligi tanqid qilinarkan, «ba`zan artistlarda bo'laturgan so'z yalmash kasali Abrorda bu kungacha hech ko'rinmagan»ligini eslatadi.

Nihoyat, Sanjar Siddiq til ohangi bobida juda o'rinli misollar keltiradi. Chunonchi, inqilobning birinchi kunlarida quyilgan sahna asarlarida zorlanib so'zlash, yig'loq tovush bilan gapirish («Oh, otajonim! Sizga nima bo'ldi?» qabilida) avj olgan bo'lsa, o'ttizinchi yillarda «qaxramonlik» ohangi hukmron ekanligi («Ex xoin! Yo'qol ko'zimdan!!!» kabi) qayd etiladi.

Sanjar Siddiqning mana bu so'zlari hanuzgacha o'z aktualligini yo'qotgani yo'q: «San'at instituti «Hamza» ning ijodiy laboratoriyasi va ayrim teatrlarimiz (Yozuvchilar uyushmasining dramaturglar seksiyasi boshda bo'lgan xolda) til masalasini ham so'zlarining rejali ishlari qatoriga qo'yib, amaliy ish olib borishlari keyinga tashlanmayturgan zarur vazifalardandir».

II.2. «HAMLET» FOJEASI CHO'LPON VA SHAYHZODA TARJIMALARI QIYOSIY TAHLILI

"Hamlet" tragediyasining birinchi o'zbekcha tarjimasiga nisatan o'z davrida aytilgan achchiq-chuchuk gaplar vaqt imtixonidan o'tdi. O'z davrida bu fojeani "nechuk tarjima qilish kerak edi yoki qanday o'girish joiz emasdi" degan xoxishu istaklar, taklifi tanqidlarning "ratsional mag'zi"ni olib, ularga izxor etilgan jiddiy fikrlarni asarni keyingi ajoyib she'riy tarjimasini bilan mug'oyasi qilib ko'rilsa, ko'p narsalar ma'lum bo'ladi.

Cho'lpon "Hamlet" tragediyasini Sotti Xusayn aytganidek, shak-shubxasiz nazm bilan o'girib, o'zbek adabiyoti tarixida juda noyob asar sifatida sakdanib qoladigan ajoyib badiiy tarjima yaratish mumkin ekanligiga endi hech kimda shubxa bo'lmasa kerak. Ammo taqdir Cho'lponga emas, katta so'z san'ati Maqsud Shayxzodaga kulib boqdi. O'zbek tilida "Hamlet"ni birinchi ancha mukammal, to'kis she'riy tarjimasini yaratish Maqsud Shayxzodaga nasib etdi.

Biroq P.Kanshin tarjimasini bilan Cho'lpon tarjimasini, M.Loziński bilan M. Shayxzoda tarjimasini hamda Cho'lpon tarjimasini bilan Shayxzoda tarjimalarini qiyos qilinsa, nasriy va she'riy tarjima san'atining allaqancha "sir"larini bilib olish mumkin. Quyida birinchi pardaning uchinchi sahnasidan "Hamlet"ning chuqur hayajon bilan o'ldirilgan buzrukvori qirolning arvoxi murojaat qiluvchi monologi keltiriladi.

Ingliz tilida:

Hamlet:

Angels and ministers of grace defend, us! -
Be thou a spirit of health of goblin damn'd
Bring with thee airs from hearen or blasts hell,
Be thy intents wicked or charitable.
Thou comest in such a questionable shape
That I will speak to thee: I'll call thee Hamlet
King father; Royal Dane, o, answer me!
Let me not burst in ignorance: but tell
Why thy canoniz'd bones, hearsed in death,
Have burst their cerements; why sepulchre
Wherein we saw thee quitly inurn'd,
Hath oped his ponderous and marble jaws,
To cast thee up again. What may this mean,
That thpu, dead corse, again, incomplate steef,
Revisit'st thus the glimpses of the moon,
Making night hideous; and we fools of nature
So horridly to shake our disposition
With thoughts beyond the reaches of our souls?
Say, why is this? Wherefore? What should we do?⁷

P.Kanshin tarjimasida:

Gamlet: O, angely, sily, nebesnye, primite nas pod svoyu zashitu! -Kto b ni byl ty, - bagatvorny li dvuxb ili predanny proklyat'yu demon: nesesh' li ty s soboy strui nebesnogo efira ili palyasheye dyxanie ada: yavilsya li ty s gubitelnyimi, ili s dobryimi umyslami ty prinyal takoy charuyushiy obraz, chto ya doljen pogovorit' s tobou. Ya budu nazyyt' tebya Gamletom, korolem, ottsom tsarstvennym dattsaninom! O otvechay mne! He day mne terzat'sya nevedeniem: skaji pochemu tvoi mertvyeye kosti, poxoronnnyeye kak togo trebovali obryady tserkvi, razorvali svoyu slovan? Pochemu

⁷ V. SHEKSPIR "The story of Hamlet, prince of Denmark" 1973 .Moskva

tvoya mogila, v koteroy ty u nas na glazax lejal tak spokoyno, raskryla svoi tyajelyye mramornye chelnosti s izvergla tebya iz svoix ndr? Pochemu ty, bezjiznenny trup, ves' zakovanny v stal'nyye dospexi, brodish' pri lunnom siyanii noch' napolnyash' ujasami, a u nas jalkix igrushek prirody, s takoyu strashnoyu siloyu potryasaesh, voobrajenie i vozbujdan'e v nas voprosy, nedostupnyye nashemu ponimaniyu. Skaji, pochemu eto? Zachem? Chego ty ot nas xochesh?

Cho`lponning ilk o`zbekcha tarjimasida: (1934)

Hamlet: Ey, malaklar, ey ilohiy quvvatlar, bizni o`z himoyangizga olingiz! Ruhi yazdonmisan, yo zilli shaytonmisan-kim bo`lsang bo`l: o`zing bilan birga samoviy salsabil satralarini keltirdingmi, yo jahannamning olovli nafislarini olib keldingmi halok qilish fikrlari bilan keldingmi yo yaxshi niyat bilan marhamat qildingmi? Madomiki sen bilan gaplashishga majburman! Men seni Hamlet, Qirol-otam, Daniya xoqoni deb atayajakman! Hay, javob ber menga! Bilmaslik olovlarida qovurma meni: ayt: din amri bo`yincha er ostiga qo`shilgan sonsiz suyaklarning nima uchun kafanlarini yirtdi! Bizning ko`z oldimizda bu qadar tinchlik bilan seni o`z qo`yniga yotqizgan shohona nima uchun o`zning marmar joq suyaklarini ochib, o`z baqirlaridan seni irg`itib tashladi. Boshdan-oyoq po`lat sovutlarga burkalanib, sen ey jonsiz mayit, nima uchun oy yorig`ida daydib yurasan, nima uchun kechalarni vaxmalar bilan to`ldirasan, nima uchun biz ayanch tabiat qo`g`irchoqlarining shuurlarini shunday qo`rqinch kuchlar bilan larzaga keltirib, miyalarimizda idrokimiz etmaydigan savollarni qo`zg`atasan? Ayt, nima uchun shunday? Nima uchun? Nima tilaysan bizdan?

M. Lozinskiy tarjimasi:

Da oxranyat nas angelm gospodni! -

Blajenn'sh tm ili pronlyatlenn'sh dux,

Oveyan nebom ili apoklyatn'sh dux,

Oveyan nebom il' geennoy

D'shshlil' zl'IX ili dobrmx um'gslov ispolnen, -

Tvoy obraz tak zagadochen, chto ya k tebe

Vz'gvayu: Gamlet, povelitel'

Otets, derjavn'sh Datchanin, otvet' mne

He day sgoret' v neveden'e, skaji,

Zachem tvoi sxorokennne kosti.

Razodrali savan svoy: zachem grobnitsa,

V kotoroy b'sh Tbi mirno upokoen,

Raz'ev svoy tyajkiy mramorn'sh oskal,

Tebya izvergla vnov'? Chto eto znatsit,

Chto Tbi, bezdumny trup, vo vsem jeleze

Vstupaesh' vnov' v mertsanie lunn,

Noch' iskaziv, i nam, shutam prirodm,

Tak jutke notryasaesh' estestvo,

Metstoy, Dlya nashix dush nedostijnoy?

Skaji: zachem? K chemu? I chto nam delat'?

Cho`lponning Nasriy tarjimasini M.Shayxzodaning she`riy tarjimasi bilan solishtiramiz.

Ey ilohiy azizlar, najot beringiz!

Senruhi - yazdonmisan, yo zilli-shayton

Jannatning nafisimi, yo bodi do`zax

Niyatingda savobmi yoki jinoyat,

Bu kelishing men uchun cho`pchak-muammo

Shu sababli tergashga majburman seni

Seni qanday atayin: padarim, hamlet/

Daniyaning qiroli, hukmdor, gapir!
Meni haflat ichida qoldirma. So`yla
Nega erga ko`milgan suyaklarningning
Kafanlari yirtilgan? Nega qo`ynida
Seni quchgan tobuting esnamoq bo`lib,
Ochdi toshlik jag`larin, irg`itdi seni?
Nechun jonsiz jasading sovut-yaroqli
Oydin tunda yuradi ko`p vahimadir ?
Nechun bizday devona mahluqlarni sen
Matallarga chulg`aysan, qaltiratasan?
So`yla nechun? Sabab ne? Bizga ne chora?

Maqsud Shayxzoda Cho`lpon "Shekspir"idan biron narsa olganmi yoki hech narsa olmaganmi? Agar omon bo`lsa-qanday qilib? degan savol qiziqtiradi. Ana shu maqsadda nasriy va Shaxzodaning she`riy tarjimalarii satrma-satr, misrama-misra solishtirib qarashga to`g`ri keladi.

1. Nasriy tarjimada (Cho`lpon)

Ey malaklar, ey iloxiy quvvatlar, bizni o`z ximoyangizga olingiz! -

She`riy tarjimada (Shayxzoda)

Ey iloxiy azizlar, madad beringiz!

2. Ruhi yazdonmisan, yo zilli shaytonmisan - kim bo`lsang bo`l. - Sen ruhi-yazdonmisan, yo zilli-shayton.

3. O`zing bilan birga samoviy salsabil qatralarini keltirdingmi yo jahannamning olovli nafaslarini olib keldingmi. - Jannatning nafasimi, yo bodi-do`zax.

4. Halok qilish fikrlari bilan keldingmi yo yaxshi niyat bilan marhamat qildingmi? - Niyatingda sababli yoki jinoyat.

5. Madomiki sen bu jozib suvratda namoyon bo`libsan - Bu kelining men uchun cho`pchak - muammo.

6. Sen bilan gaplashmoqqa majburman. Shu sababli tergashga majburman seni.

7. Men seni Hamlet, qirol-otam, Daniya qoqoni deb atayajakman! qay, javob ber menga! - Seni qanday atayin: padarim, Hamlet. Daniyaning qiroli hukmdor, gapir! *

8. Bilmaslik olovlarida ho`qurma meni, ayt - Meni g`aflat ichida qoldirma. So`yla.

9. Din amri bo`yicha er ostiga ko`milgan suyaklarning ... - Nega erga ko`milgan suyaklarning -

10. Nima uchun kafanlarini yirtidilar? - Kafanlari yirtilgan? Nega qo`ynida.

11. Bizning ko`z oldimizda bu qadar tinchlik bilan seni o`q qo`yniga yotqizgan shohona seni kuchgan tobuting esnamoq bo`lib.

12. Nima uchun o`zining marmar toq suyaklarini ochib, o`q Bag`rilaridan seni irg`itib tashladi. Ochdi toshlik Jag`larin, irg`itdi seni? -

13. Boshidan-oyoq po`lat sovutlarga burkanib, sen ey jonsiz mayit. - Nechun jonsiz jasading sovut-yaroqli.

14. Nima uchun ey oy yorug`ida daydib yurasan, nima uchun kechalarni vaxmalar bilan to`ldirasan. Oydin tunda

yuradi ko'p vahimador?

15. Nima uchun biz ayanch tabiat qo'g'irchoqlarlarining -
Nechun bizday devona muhluqlarni sen.

16. Shuurlarni shunday qo'rqinch kuchlar bilan larzaga
keltirib, miyalarimizda idrokimiz etmaydigan savollarni qo'zqatibsan? -
Matallarga chulg'aysan, qaltiratasan?

17. Ayt, nima uchun shunday? Nima uchun? Nima tilaysan
bizdan? - So'yla nechun? Sabab ne?

Bizga ne satr va misralarni bu tarzda parchalab, ularni tarkibiy qismlarga
ajratish - badiiy matn qonuniyatiga zidligi va she'rlarning hayotini "to'xtatib"
qo'yishga olib kelishni to'la anglagan holda, bunday "anatomik" tekshirishga badiiy
tekst qonuniyatining ichki sirlari va she'riy tarjima mo'jizalari, individual uslub
unsurlarni aniqlash maqsadida o'tkazilayotgani uchungina mustasnoli bir hol sifatida
yo'l qo'yiladi. Hamonki, shartli mustasnogo yo'l qo'yilgan ekan, yana bir "formal"
urinishga ham jur'at etiladi: satr va misraning tartib rahamlarini qayd etgan holda,
ularning har biridan nechtadan so'z ishlatilgani sarhisob qilamiz:

Har bir so'zni semantik funktsiyasiga qarab emas, nominal ravishda olinadi.
Bundan tashqari satrlar va misralar birligi bir-biriga mutlaq to'g'ri kelmaydi, albatta.
Shuning uchun bu erda ham ma'lum darajada shartlikka yo'l qo'ydik.

Tahlildagi barcha shartlikdan qat'i nazar, bu muhoyasaan muayyan darajada
aniq hulosalar chiqarish mumkin.

1. Nasriy tarjimada hammasi bo'lib 153 ta so'z kelgan.

2. She'riy tarjimada 88 ta so'z bor.

3. Nasriy va she'riy tarjimalarda so'zlarning tavofuti 66 ta. Demak, nasriy
tarjimada she'riy tarjimaga

qaraganda 66 ta so'z "ortiq" qo'llanilgan.

4. So'zlarning ko'p ishlatilishini asos qilib olinsa, 17 misradan faqat 1 misrada
bu tavofut she'riy tarjima foydasiga taalukdi.

5. 2 misrada tavofut 0 ga teng.

Bundan chiqadiki, 17 misra (22 satr) dagina nasriy tarjimaga nisbatan she'riy
tarjimada 66 ta so'z kam ishlatilgan bo'lsa, ana shu "kamomat" nimaning hisobiga
bo'lganligi yoki, aksincha, shu kamchilikning o'рни nima bilan va qanday qilib
"to'ldirmaganligi" ni anikdash lozim bo'ladi. Negaki, inson tilida ma'nosiz belgilar,
simvollar yo'q. Binobarin, nasriy tarjimada mavjud 66 ta "ortiqcha" so'z qandaydir
qo'shimcha ma'no, tafsilot va hakoazolarni anglatgan.⁸

Endi bu yog'iga miqdoriy tahlil hech narsa bermaydi. Bu raqamlarni
"gapirtirish" uchun semantik taxdilga o'tamiz.

Umuman tarjimada, xususan she'riy tarjimada qurbon bermay iloji yo'q.
Chunki shoir-tarjimon o'zi tanlagan va asl nusxaga muqobil deb bilgan she'riy vazn
ichida chegaralangan. Albatta, u tarjima qilarkan, qurbon berishni o'ylamaydi.
Aksincha, muallifning ruhi va asarning asosiy bositini to'ka-to'kis etkazishga harakat
qiladi. Yozuvchining muddaosi, asl nusxaning biron o'rinda yoki bo'lak yo'l bilan
qoplaydi. Lekin baribir, insof yuzasidan aytish kerakki u qanchalik ilm hunar va
tadbir ishlatmasin, nimanidir qurbon berishga majbur. Masalan, Shayxzoda ana
shunday vaziyatda qanday tadbir qo'llaydi-yu, nimani qurbon berishi bilan
tanishaylik.

Birinchi misradan 5 ta so'zdan faqat birgina so'z (ilo'iy) nasriy tarjimada
uchraydi. qolganlarning hammasi "yangilangan".

Shoir hech qanday qurbon bermagan, aksincha, nasriy tarjimada so'zni ortiqcha

⁸ V. Shekspir tanlagan asarlar T.G'ofur G'ulom nashr. 1982. 79-b

ishlatish, takror-qurbonlar jumlasiga kiradi.

P.Kanshinda: arvoqga qarata Hamlet - primite nas pod svoyu zashitu, desa Cho'lpon: bizni o'z himoyangizga olingiz, deb to'g'ri o'giradi. Shayxzoda esa, "zashita" ekan, bunga muvofiq ravishda primite (olingiz)ni-antonim "beringiz" bilan almashtiradi. Go'yo chappasiga" ish tutdi! Mana san'atkorning tadbiri. Ammo bu shundaki tarjimon uchun bir "lisoniy" mashg'ulot, tashqi bezak emas, balki misra ichidagi so'zlarning maxrajidan paydo bo'lgan ichki semantik etiyojdir. Zotan, arvohdan yordam so'raganda "himoya qil" deyilmaydi. Cho'lpon diniy bo'yoq "quyuqlashib" ketmasin va teks "arxaiklashmasin", degan andisha bilan shunday qilgan bo'lishi kerak. Lekin arvoq so'ziga himoya ma'naviy jihatdan to'g'ri mutanosib bo'lolmaydi.⁹

Dramaturg uslubining bu muhim xususiyati nasriy tarjimada ham aks etgan. Lekin "to'la emas" Buning sababi shuki, Cho'lponda yoyiq jumlar, voqealarni "batafsil" hikoya qilish zahirida yorqin uslub bir oz so'niq bo'lib qolgan.

Ikkinchi misrani olaylik. Bunda bir-biriga zid qo'yilgan ikki komponent bor. Biri: ruqi yazdon, ikkinchisi: zilli, shayton, yazdan-tangri, shayton-la'in: ruh-mazmun, zill-soya. Mazmuni: xudoning ruhimisan yoki shaytonning soyasimisan. Monolog davomida nasriy tarjimadan Shayxzoda eng "foydalangan" -misra mana shu. Lekin Shayxzoda nasriy satrni she'riy maqomida qayta qurgan: "sen" olmoshini kiritib, murojaat qilinayotgan "sirli mavjudot"ni konkretlashtirilgan, ammo buning evaziga satrdosh qolgan to'rtta lug'aviy unurning bag'ridan o'tib yuborgan. Chunonchi, u "shaytonmisan" so'zidan-misol qo'shimchasini hamda kim bo'lsang bo'l so'zlarini bus-butun olmagan. Natijada misra tartib topgan. Ingliz va o'zbek tillarining bir-biriga butunlay muvofiq kelmaydigan bir xususiyatini qayd qilmoq kerak. Bu inglizcha so'zlarning ixchamligi. Ingliz tilida so'zlar rus tiliga nisbatan ham ancha qisqa. O'zbek tilida esa so'z o'zagiga yangi yangi qo'shimchalar qo'yishi bilan yangi ma'noli so'zlar hosil qilinaveradi.

Shu tariqa ikkinchi misradan bir-biriga tamoman zid ma'noli yazdon va shayton so'zlari qo'llanilib, bular misra ichida ichki qofiyani ham hosil qilgan, misra M.Loziyskiy tarjimasidan ham yorqinroq chiqqan.

Qiyoslang: Blojenniy ti ili proklyaniy dux, - sen ruhi yazdonmisan, yo zilli shayton.

Lug'aviy tarkib e'tibori bilan misraning tarjimasi bir-biridan juddiy farq qiladi. Ruscha tarjimani o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilinsa: "Sen "yaxshi" ruqmisan-, yo "yomon" ruhmisan" mazmunida bo'ladi. Misra ichida bittadan sifat zid qo'yilgan: blajenno'y (saodatli) va prokana shu saodatli va ma'lum tushunchalarning har biri o'z nomi bilan berilib, ularning aniqlanish komponentlari ham bir-biriga zid qo'yilgan.

Shunisi, diqqatga sazovorki, Maqsud Shayxzoda Cho'lpon tarjimasininig Sotti Xusayn inkor etgan sifati-arabcha va forsha so'zlardan keng miqyosda ma'mur bo'lishidan voz kechmadi. To'g'ri u, chinakamiga eskirib tildan butunlay chiqib ketgan eski so'z va iboralardan ular qaysi manbadan kirib kelgan (bo'lsada) bo'lishidan qat'iy nazar voz kechgan bo'lsa-dag o'rni bilan nasriy tarjimada ancha-muncha "zamonaviylashtirib" berilgan tushunchalarni bir oz arxaik uslubda ifodaladi. Masalan, "Sen ruhi yazdonmisan, yo zilli shayton" misrasida "sen" olmoshi bilan "yo" bog'lovchidan tashqari hamma so'zlar arab tilidan kirgan bo'lib, fors tiliga xos izofali konstruktsiya tanlangan. Zero, Shayxzoda ham Cho'lpon singari yaxshi biladiki, yazdon va zill so'zlari oddiy o'quvchi yoki tomoshabinga tushunarli bo'lmaydi. Axir, idrok etish jarayonini bu qadar murakkablashtirib o'tirmay, jo'ngina: sei xudoning ruhimisan, yo shaytonning soyasi" deb o'girilsa ham bo'lardi. Buni hamma osongina

⁹ O. QAYUMOV. "Chet el adabiyoti tarixi" O'qituvchi 1973

tushunib olardi. Cho`lpon bilan Shayxzoda singari allaqayerdagi eskirgan adabiy so`z va forsiy tarkiblardan foydalanib, uslubda qandaydir murakkab sirli vaziyat yuzaga keltirishga zarurat bormidi?

Zarurat bor edi. Chunki ana shu sirlilik ana shu mo`jizakorlik, ana shu ma`lum darajada tushunarli bo`lolmaslik Shekspir uslubiga xos asosiy jihatlardan biri ekanligi yuqorida eslatib o`tildi. Asl nusxaning besh fazilati, muallif uslubini to`g`ri aks ettirmagan tarjima esa mukammal tarjima bo`la olmaydi. Qolaversa, tasvirlanayotgan vaziyatning o`zi ham

Xuddi ana shunday arxaik uslubni taqozo etadi, aksincha, bu o`rinda inson bilan arvoq "munosabati" bergan holda sirlilik pardasini olib tashlashning o`zi "Hamlet" uchun tushunarli bo`lmagan, nomaqbul bir ish bo`lar edi. Rus tilida Shekspir asarlarni, jumladan "Hamlet" o`n martalab tarjima qilingan, bundan tashqari, ular asl inglizcha nusxasida ham chop qilinib, ilmiy sharxlangan, izox va lug`atlar berilgan. Shu sababli rus kitobxonlari uchun Shekspir ijodi bo`yicha tushunarli bo`lmagan narsalar nisbatan ancha kam.

"Hamlet" tragediyasining Cho`lpon va Shayxzoda tarjimalarida ham zarur izoxlar bor. Bu kitobxonning mushkulini osonlashtiradi. Biroq bu izoxlar, asosan, tragediyaning matniga, undagi ayrim afsonaviy obraz va tarixiy voqealarga xosdir. Vohalanki, bizningcha tarjimaning o`zi ham sharxdansa, ayrim tushunarli bo`lmagan so`z va iboralar izoxlansa, qisqacha lug`at ilova qilinsa va nihoyat, Shekspir asarlarining tarjimalari (asosida) yuzasidan yaratilgan tadqiqotlar ham nashr qilinsa ko`ngildagidek bo`lar edi.

Shunday qilib, ikkinchi misradagi qisqargan uchinchi misraning ham lo`nda qilib yaratilishiga imkon tug`dirgan. Bunda ham o`sha "uslubiy ziddiyat" sakdanib qolingan.

Uchinchi misra ikkinchisidan taklan tavofut qiladi. Misraning birinchi komponenti anikdovchi-aniqlanish munosabatida bo`lsa (jannatning nafasi), ikkinchi komponentda forsha izofali konstruktsiya bilan olingan. (bodi do`zax).

Asl nusxada airs (shaboda) bilan blasts (to`fon) bir-biriga zid qo`yilgan. M.lozinskiy buni oveyan nebom (osmon havolari) va geennoy do`shim' (do`zax nafasi) deb salsabil ?atralar bilan jahannamning olovli nafasi zid qo`yiladi.

Chog`ishtiring

P.Kanshin 1. Strui nebesnogo efira

2. Polyagtsee dmxanie ada

Cho`lpon. 1. Samoviy salsabil qatralari.

2.Jaxannamning olovli nafaslari

Lozinskiy

1. Oveyan nebom.

2. Geennoy d`shshshú

Maqsud SHayxzoda

1. Jannatning nafasi

2. Eodu duzax

Bunda P. Kanshin Cho`lpon tarjimasi mos kelsa, ikki o`zbekcha tarjima bir-biridan avgcha jiddiy farq qiladi. Chunonchi, Shayxzoda tafsiliy tasviridan kochadi. U 3 unsuridan iborat shamol tasviri:

1) samoviy

2) salsabil

3) qatralarni

Ikki so`zdan iborat qilib soddalashtiradi - 1) jannatning nafasi; ikkinchi komponentda ham xuddi shunday qiladi: 1) jahannamning 2) olovli

3) nafaslari - I) bodi do`zax.

Shunisi qiziqki, Shayxzoda Cho`lpon tarjimasida yomon, qurutuvchi,

kuydiruvchi o't degan jahannam shamoli ma'nosida berilgan nafas so'ziga ijobiy ma'no yuklab, tasvirlarning birinchi qismiga ko'chiradi.

"do'zax nafasi" - jannat nafasiga "aylanadi" do'zaxning yomon kuydiruvchi shamolini esa bod (el) deb oladi.

To'rtinchi misrada "Halok qilish fikrlari"ni Shayxzoda bitta so'z jinoyat, "yaxshi niyat"ni ham bitta - savob bilan beradi; "bilan keldingmi", "bilan marhamat qildingmi" kabi "ortiqcha" beshta so'z ma'nosini bitta niyatingda kalimasiga, jamlaydi. Tushunchalar (savob va jinoyat) o'zni almashadi. Nihoyat, gapning grammatik strukturasi ham o'zgaradi: nasriy tarjimada xarakter ma'nosi birinchi o'rinda tursa, Shayxzoda tarjimasida tushuncha va predmetlarning ravishi va yo'siniga e'tibor kuchaytiriladi.¹⁰

P.Kanshinda-"terzat'sya nevedeniem" (bilmay o'rganmoq), M.Lozińskiya - "sloret' v nevedeno'e" (bilmaslik aro yonmoq), Cho'lponda "bilmaslik olovlarida qovirulmoq" deb olinadi. Shayxzoda esa bu muammoni butunlay boshqacha hal qiladi. U ota arvohi bilan bo'layotgan voqealarni "bilmaslik" bilan emas, balki mazkur voqealarni mohiyati va sirli ravishni yanada aniq to'g'ri ifoda etadigan "g'afolat" so'zi bilan beradi.

To'qqizinchi va o'ninchi misralarni o'chirishda har ikkala ruscha tarjimada ham bir qil - "erga ko'milgan suyaklar o'z kafanlarini yirtgan bo'lsa, Cho'laonda kafanni go'yo tashqaridan kimdir "birov" yirtgan: Shayxzodada esa fe'ning majhul darajasi bilan (yirtilgan) ifodalanib (nega er ko'milgan suyaklarning kafanlari yirtilgan) sirlilik yanada kuchaytirilgan: kafanni arvohning o'zi yirtganmi yoki boshqa birov yirtganmi, umuman, ma'lum bo'lmay qolgan.

O'ninchi, o'n birinchi va o'n ikkinchi misralarda qirolning osoyishta, shohona dafn etilganligiga doir sifat va qabrlarning marmardan ekanligini anglatuvchi ayrim tafsilotlar qurbon berilganki ular ma'noga sezilarli ta'sir qilmagan.

Shayxzoda so'zda ham jumlada ham iborada ham ma'noga halol bermagan holda maqsadida qisqalikka intiladi. Masalan, Cho'lponda "nima uchun" degan savolni Shayxzoda nechun, "nima uchun kechalarni" vahimalar bilan to'ldirasan" jumlasini bitta vahimadir so'zi bilan ifodalab qo'ya qoladi.

O'n beshinchi misrada inglizcha fools of nature jumlasini P.Kanshin "jalkie igrushki prirodi (tabiatning ayanchli qo'g'irchoqlari) deb, M.Lozińskiy bo'lsa "shuti prirodi" (tabiat masxarabozlari) deb beradi. Bu iboraning inglizlardagi ma'lum tarixiy haqiqat bilan bog'liqligi haqida yuqorida aytib o'tgan edik. Uni "Cho'lpon" ayanch tabiat qo'g'irchoqlari" deb o'g'irsa, Shayxzoda "devona maxluq" deb juda yaxshi tarjima qiladi.

Chunonchi "Hamlet"ni o'zbek tiliga o'girish uchun asarning rus tilidagi tarjimalarini bir-biriga qiyoslab, hatolarni tuzatib, yagona bir matn yaratish va rus tilidagi tarjimalarini bir-biriga qiyoslab, xatolarini tuzatib yagona bir matn yaratish va rus tilida toki muammolar tarjima paydo bo'lguncha qadar, ana shu tekstni "yaratib turish" to'g'risidagi fikri badiiy tarjima printsipga to'g'ri kelmaydi. Chunki muayyan asl nusxadan qilingan har bir tarjima, agar unda xato va kamchiliklar har qancha ko'p bo'lsa ham, o'zicha mustaqil san'at asaridir. Masalan, Mixail Loziński tarjimasida juda kuchli tarjima hisoblanadi, ammo uning kamchiligi-xuddi ana shu kuchliligi zamiriga yashiringan. U Shekspirni bizning davrimizga olib kelishidan ko'ra, ko'proq kitobxonning o'zini sirli va xayratomuz Shekspir olamiga olib ketadi. Boris Pasternak tarjimasida esa, aksincha, saqnalashtirishga mo'ljallangan. U Shekspir siyomosida o'q zamondoshini ko'rishga intilgan. B.Pasternak tarjimasida Shekspir uslubiga xos "qo'pollik", sirlilik, jumboq deyarli yo'qolgan. Demak, bir asarni ikki san'atkor ikki xil muddao, ekki xil printsip, ikki xil (printsip) uslub, bilan tarjima qiladi. Bu ikki tarjimaning har birida o'ziga xos kuchli, o'ziga xos tomoni bor. Bas, ularni qanday

¹⁰ X.Ismoilov. Cho'lpon tarjimalari T.fan, 2000. 52-b

qilib birlashtirib bo`ladi? Bunday "Birlashtirishga" kim jur`at eta oladi?

Umuman Shekspir tilining eskirganligini mahorat qilib yubormaslik lozim, u o`qimishli ingliz kishisiga tushunarli",-deb yozadi. M.Morozov. Lekin xuddi shu yorning o`zidayoq Shekspir asarlarining deyarli har bir sahifadasida tushunilishi dushvor bo`lgan o`rinlar uchrashini qayd etadi. Buning ham sababi dramaturg asarlarida so`zlarning rang-barang ma`nolarda qo`llanishidir. Chunonchi, ko`pgina so`z va birikmalarning ma`nolarini tussmallabgina bilish mumkin, xolos. Ikki yarim asrdan buyon ayrim shekspirshunoslik fani mavjud, ammo xozirgacha ayrim shekspirshunoslar u yoki bu so`zlarning ma`nosi ustida bahs yuritadilar.

Shekspir tilda favqulodda kutilmagan semantik ma`naviy ixtiro yaratoddi: bir-biirdan uzoq, o`zaro qovushmaydigan so`zlarni biriktiradi va bu bilan o`ziga xos "uslubiy dag'allik", "qo`pollik"ni yuzaga keltiradi. Agarda ana shu "qo`pol" birikmalarni silliqshatirib, pardozlab, bizning tushunchamizdagi nafis bir holga keltirilsa u holda bu sira ham Shekspir bo`lmaydi. Shekspir o`z davrining yozuvchisi, uning o`ziga xos uslubi, go`zallik va qo`pollik haqida ham o`z e`tiqodi, o`z tasavvuri bor. Agar u bus-butun yigirmanchi asrning adabiy estetik go`zalligi ko`chirma Shekspir-Shekspir bo`lmay qoladi.

III. TRAGEDIK JANR TARJIMALARI VA TARJIMON MAHORATI

III.1. Aktyorlik san`ati va tarjima muammolari

O`ttizinchi yillarda tragediyaning o`zbek teatri saxnasida o`ynalishi, ayrim obrazlar ijrosi va, umuman, Shekspirning bu asari xaqida ko`plab maqolalar chop qilingan bo`lsa-da, asosiy masalalardan biri-«Hamlet» tarjimasini taxlil qilish hanuz nazardan chetda qolardi. Nihoyat, 1936 yil 27 iyulda gazetada Nazir To`raqulovning «Hamlet» ga tuxmat» nomli maqolasi bosilib chiqdi.

Nazir To`raqulov maqolasining mundarijasini, shartli ravishda. Uch qismga bo`lish mumkin:

- a) «Hamlet» fojiasining o`zbek tilida qo`yilishi;
- b) aktyorlik san`ati va tarjima nuqsonlari;
- v) tragediya tarjimasining yaroqsizligi.

Maqola, taxminan, quyidagicha rejada yozilgan:

Birinchi qism.

1. «Hamlet»ning Vaxtangov teatrida (Moskva) o`ynalishi va buning ulkan siyosiy, ma`rifiy axamiyati.

2. Mazkur tragediyaning umumiy axamiyati.

3. Umumiy g`oyaviy-badiiy ma`nosi.

4. Vilyam Shekspir va bizning zamonamiz.

Ikkinchi qism.

1. Rollarni ijro etishda yosh o`zbek aktyorlarining mhorati.

2. Hamlet («Abror o`rtoq») va Ofeliya («Sora Eshonto`raeva o`rtoq») rollarining ijrosi to`g`risida.

3. Hamlet rolini ijro etishda Aborning katta g'alabasi va istaklar.
4. Ofeliya rolini ijro etishda Sora Eshonto'raevaning ulkan muvaffaqiyati.
5. Til va talaffuzdagi kamchiliklar.
6. Tarjimaning nuqsonlari.
7. Buzuk tarjima uchun aktyorga dashnom berish uvol ekanligi.
8. Aktyor-rejissyor-tarjimon -nashr.
9. «Hamlet» tarjimasining butkul yaramasligi va uni yangidan o'girish zarurati.

Uchinchi qism.

1. Fojianing 1934 yilgi o'zbekcha tarjimasini haqida ma'lumot.
2. Tarjimonga qo'yilgan uch ayb,
3. Abduxoliq tarjimon haqida latifa.
4. Tragediyadagi «eng oz zararlik» xatolar.
5. Tarjimaning jiddiy nuqsonlari.
6. Mantiqsizlik illati.
7. Asarda tasvirlangan xalq hayotining milliy o'ziga xosligini buzish hollari.
8. Uslubiy qusurlar.
9. Hamlet obraziga lat beruvchi nuqsonlar.
- 10.«Qobil Shekspir» va «noqobil tarjimon».

Maqolaning tuzilish reja idan unda masalalarning qo'yilishini sezish qiyin emas. Undan esa muallifning maqsadi va muddaosini bilib olsa bo'ladi. Maqolaning kirish qismini o'qigan kishi unda tragediyaning postanovkasi va aktyorlar maxorati tahlil qilinarkan, deb o'ylaydi. Aslida esa muallif o'zining bosh maqsadi - tarjima taxlilini ishning ikkinchi qismiga ko'chirgan va muddaoni asta-sekin qabartira borgan. Maqolaning mazmuni bilan tanishaylik.

1936 yil iyul oyida Hamza nomidagi drama teatri «Hamlet» tragediyasini Vaxtangov nomli teatr saxnasida Moskva tomoshabinlariga namoyish qilgan¹¹.

Buyuk fojining o'zbekcha yo'nalishini N. To'raqulov «siesiy va madaniy bir hodisa» deb ta'riflaydi.

Asar XVI asrda yozilgan bo'lishiga qaramay, to hozirgacha uz qimmatini saqlab qolganligining boisi shuki, «dunyoda zulm va zulmat, jabr va jazo insonlarning esidan chiqmaguncha bu asar xam saxnadan tushmaydi». Muallifning ta'rificha, Hamlet Uyg'onish davrining sochgan nurlaridan ertaroq uygongan. Uni asarning fikrlari chulg'ab olgan, ammo vaxshiy, zolim va riyokor bir muxit ichida o'ziga yo'l topolmay qoladi. Daniya shahzodasi zulmga qarshi ko'tarilgan, lekin masalaning bir zarba bilan hal bo'lmasligini anglaydi. «Shekspirning ulug'ligi shundaki,-deb yozadi N.To'raqulov - otasining intiqomini olmoqchi bo'lib yurgan Hamletning xususiy dardini umumiy alamlarga bog'lab ko'rsatdi... «Hamlet» jaxon adabiyotining haqiqatan o'lmas bir asaridir, insoniyat bog'chasida so'lmas bir gulki, haqiqat va san'at oshiqclarini uning xush isi xar zamon mast qiladi, zulm va riyoga qarshi talpingan yuraklarni tebratadi».

Maqolaning kirish qismi ana shunday sharhiy ta'rif - tavsiflar bilan lirik kayfiyat ichida yozilgan, Hamlet, muallif ta'riflashicha, yuragidagi alamlar shiddatidan «na'ralar tortib», «ma'rakaga otilib», «chorasizlikdan iztiborlarini qo'lidagi yaltirab turgan qilichi bilan tindiradi».

Muallif fojining ijtimoiy ma'nosini ana shu yo'sinda ochib berarkan, Hamlet-shunchaki bir shahzoda, uning onasi, malika - shunchaki bevafo ayol, amakisi, Denmarkaning soxta qiroli-shunchaki xukmdor. Ofeliya-shunchaki ma'shuka va xokazo emas, balki bularning xammasi tipiklashtiradigan buyuk obrazlar bo'lib, ular katta ijtimoiy-falsafiy zaminda tasvirlangani alohida qayd etiladi. «Bo'lmasa bir podshoni uning raqibi o'ldirgan ekan, o'lganning o'g'li otasining o'chini olgan ekan-undan bizga nima?»- deydi N.To'raqulov (O'ttizinchi yillar matbuotining uslubi va o'sha davr gazetxonlarining saviyasi).

¹¹ N.To'raquloBNING maqolasi 27 iyulda bosilib chiqqan. Demak, «Hamlet» Moskvada rus tomoshabinlariga o'zbek tilida ko'rsatilganidan bir necha kun o'tgandan so'ng mazkur maqola yozilgan.

«Hamlet» va bizning zamonamiz» mavzuida muallif juda g'alati bir teskari muqoyasani keltiradi. Uchinchi parda, birinchi ko'rinishdan:

«Agar birgina zarb bilan rohatga yetmoq mumkin bo'lsa edi, zamonning istehzosiga, xalqning ojizligiga, zolimlarning zulmiga, mutakabirning ozoriga, unutilgan muxabbatning alamlariga, manfur maxluqlarning layoqatga qarshi nafratlariga kim chidab turar edi! Hayotning yukini ko'tarib, mehnatning og'irligidan belining buqilishiga qanday kishi rozi bo'lur edi?»

«Butun bizning vatanimizda,- deb yozadi N.To'raqulov,-u manfur maxluqlar o'rtadan chiqarilgan, mutakabrlarning ozoriga zamin qolmagan, zolimlarning zulmi bitirilgan, haq hokim bo'lgan, layoqatlarga keng yo'l berilgan. Mehnatning kulfatidan, zulmning jafosidan kecha beli bukilgan o'zbek xalqi bugun teatrida o'z tilida bo'lgan haqiqatlarning kechagi xayolini Shekspirday bir san'atkorning tamsilida tomosha qilsa, anglasa-ko'ngli qancha yayraidi, fikri va zehni qancha ochiladi! San'atning asl vazifasi, asl xizmati ham shu».

«Hamlet» tragediyasi Vxatangov nomli teatr saxnasida qo'yilar ekan, yosh o'zbek teatrining yosh artistlari o'z rollarini «nechuk» bajarar ekanlar, degan andisha to'g'iladi. Chunki yevropaning eng nomdor, mohir artistlari ham bu asarda o'ynashga ha deganda jur'at qilavermaydilar. Biroq o'zbek aktyorlari o'zlarining buyuk rollarini muvaffaqiyat bilan ijro etishga muvaffaq bo'ladilar. Buning sababi shuki, teatrning ansambli «g'oyat yaxshi tartib berilgan», artistlarning hammasi «bir-biriga uyg'un», o'yinlarning tarzi va harakatlarining shakli bilan «bir-birlariga kelishgan».

Shu tariqa «butun artist o'rtoqlarni» va ularga raxbarlik qilgan Mannon Uyg'urni katta muvaffaqiyat bilan tabriklagan N.To'raqulov buyuk Hamlet rolini o'ynagan «Abror o'rtoqdan» hamda go'zal Ofeliya rolini tasmiil etgan «Sora Eshonto'raeva o'rtoqdan» «ikki og'iz» so'zlaydi:

«Zehnidagi olov bo'lgan jasur fikrlarini bayon va bajara ko'nglidagi poyonsiz alamlarini shikoyat etishda Abrorning «xudo bergan» bir layoqati bor. «Dushman falakning terlariga» toqati qolmay jo'shib, daryo bo'lib toshgan chog'larida qip-qizil otash bo'lib o'rtaga otilishi bor».

Abror Hidoyatov Hamlet rolini ijro etishda juda katta muvaffaqiyat topganligi qayd etilib, bu rolning bag'oyat mushkulligi, shuning uchun boshqa artistlar biri ishlasalar, «Abror o'rtoq» o'n ishlashi, «Hamlet» tog'ining ustiga hamletchasiga ot qo'yib chiqsin va xalqimizga har martaba Hamletning javhalarini boshqa bir jilvasi bilan ko'rsatsin. O'zbekistonning layoqatli yosh artistiga bu vazifani loyiq ko'rdik»,- deyiladi maqolada.

Sora Eshonto'raevaning ham Ofeliya rolini ijro etishdagi maxoratiga yuksak baxo beriladi. Xususan, to'rtinchi pardaning beshinchi ko'rinishida «majnun Ofelya» rovida qo'shiq aytib, qo'lidagi gullarini bo'lib bergan choqdagi harakatlarining «moziyligi», juda nafis bayon etilgan qayg'u-hasratlari tomoshabinlarni «larzon qiladi». «halq tushunmagan bir tilda, majnun roli bilan saxnaga chiqib, teatr ishlarida puxta maskovliklarning olkishlarini olmok uchun kishida layoqat, san'at havosi bo'lishi lozim».

Darvoqe, katta shekspirshunos olim va tarjimon M.Morozov xam keyinchalik Ofeliya obrazini Sora Eshonto'raeva favqulotdda mahorat bilan ijro etganligini alohida tilgan olgan edi. Ofeliya rolini Sora Eshonto'raeva yuksak shoirona his bilan ijro etishi butunlay soxta sentimentallikdan xolidir, degan edi M.Morozov. «Hamza teatri saxnasida, majnuntol shohlari tagida gullar terib, «suv pariey» singari oqim og'ushida g'arq bo'la turib suzib borayotgan, o'sh shekspirona Ofeliya yashamoqda»,-deb baho bergandi atoqli rus shekspirshunos olimi¹².

Nazir To'raqulov «Hamlet» tragediyasining o'zbek teatri saxnasida qo'ilishini olkishlarkan, rollarni ijro etishdagi ayrim kam-ko'stlarni ham ko'rsatib o'tadi. Bunday kamchiliklar talaffuzda, ba'zan harakatlarning so'zlarga muvofiq kelmasligida ko'zga tashlangan. Olaylik, Abror Hidoyatov monolog so'zlaganida talaffuz jihatidan «ustida to'xtalib bo'lmaydigan so'zlarning ustida to'xtab, quvvat bilan so'ylagan» (bir -«birrr» tarzida) yoxud adabiy til normasi talabidan birmuncha chetga chiqqan (hissa o'rniga «xissa» kabi).

¹² Morozov M. Shekspir na stsene teatr imeni Hamzo'. «Zvezda Vostoka», 1950, № 8, s. 95.

«Hamlet» ning o'zbekcha tarjimasini asliga solishtirib ko'rgandan keyin boshqa fikrga keldim, deydi N.To'raqulov. Muallif fikricha, avvalo. Artistning qo'lga «birinchi darajada yaxshi tarjima»ni topshirmoq lozim. «Tarjima buzuq bo'lsa, artistni tanqid qilmoq, unga til tegizmoq uvol bo'ladi». Agarda aslida: «Men sendan yolvorib so'rayman» bo'lsada, tarjimada: «La`natlar bo'lsin senga» degan bo'lsa, ayb kimda bo'ladi? Bu ishda kim javobgar? Rejissyormi, artistmi, tarjimonmi yoki shu tarjimani tasdiqdan o'tkazib bostirgan noshirmi?

Masala «aybdorni qidirish» tarxida qo'yiladi.

Xo'sh, kim aybdor?

N.To'raqulov ta`biri bilan aytganda, Respublika hukumati, akademik drama teatri shuncha g'ayrat sarf qilib bunday asarni sahnaga chiqarsalarda, oxirida kelib - kelib, «tarjimaga o'xshash bir masalada» butun ish «cho'lok chiqsa», albatta har kim hafa bo'ladi, «Hamlet»ning tarjimasi buzuk,- deb yozadi u, - ammo shu darajada buzuqki, vujudida sog' joyi yo'q. Tanqidchining fikricha, bu tarjimani darhol sahnadan chiqarib, asarni yangidan tarjima qildirmoq va uni «ko'pchilikning sinovidan» o'tkazmoq kerak. «Hamlet» ning bu tarjima bilan o'ynalishi hammamizga ayb».

Shu tariqa Nazir To'raqulov tragediyaning «hammamizga ayb» keltiradigan 1934 yligi o'zbekcha tarjimasining nuqsonlarini taxlili qilishga kirishadi.

«Taxminimga ko'ra,- deb yozadi u,- asar ruschadan tarjima etilgan. Ruscha tarjimalar bilan solishtirib ko'rdim. Taqriban har jumlada yo bir xato, yo xatoning amakizodasi yo amakizodasining xolasi bor»,

«Hamlet» ni o'zbekchaga «tarjima» etgan (qo'sh tirnoq-piching maqola muallifniki) «tarjimon boshi»ga uchta dahshatli ayb qo'yiladi:

- 1) u ruschani bilmaydi;
- 2) «Hamlet» ning «qanday» bir asar ekanidan xabari yo'q;
- 3) o'zbekcha ba`zi jumladarg to'mtoq tuzilganki, ularni anglab bo'lmaydi.

Nazir To'raqulovning «Hamlet» tarjimoni haqidagi tasavvurini u keltirgan mana bu latifa ochiq-oydin ko'rsatib turadi.

1916 yilda Qo'qon hokimi rusiyaga jo'naydigan lashmon mardikorlarini shaxar maydonida taftish qilgan. Har ming mardikorga bir mingboshi tayin qilinib, maxalliy xokim va axoli bilan muomilada qiynalib qolishmasin degan mulohaza bilan har bir mingboshiga bittadan tilmoch tayin etilgan. Ruscha biladiganlar kam bo'lganidan, «chitayu», «pisayu», «Boymat» degan har bir kishi tilmoch bo'lavergan ekan. O'sha zamonlarda Qo'qonda Abduxoliq yoki Abdurahmonmi degan «osmonning shotisiday» uzun, «shishaburun» 42-45 yoshlardagi boy, bechora yashagan. U mayda-chuyda «zakonchilik» bilan qoziqonalarda kun ko'rib yurar ekan. U xam tilmoch bo'lib, «tizzasiga... zo'rg'a yetgan bir kosov qilichini yoniga taqib» maydonda turgan ekan, hokim kelib, tilmochga murojaat qilgan:

- Po - russiki ponimaesh ?
- Ponimaesh ,-shartta javob qilgan Abduxoliq.
- Molodets!-degan xokim boshqa tilmochlarning bundan xam besh battar ekanligini sezib.

Abduxoliq yana hozirjavoblik bilan hokimni xursand qilgan ekan:

- Eshmat Boymat!

O'sha Abduxoliq endigina zamonda o'ziga bo'lak biron yumush topolmay, yana tarjimon boshi bo'lib maydonga chiqqanga o'xshaydi, deb muqoyasa qiladi N. To'raqulov va gazetxon bilan «baxslashib», tarjimani taxlili qilishga kirishib ketadi.

Tarjimaning nuqsonlarini u bir necha guruxga bo'ladi.

«Eng oz zararlik» xatolar. Birinchi parda, birinchi kurinishdan:

Fgap tsisko: *Vo' vovremya prixodite na smenu.*

Fgap tsisko: juda vaqtida kelding.

Bernardo: *Uj zapolnoch .*

Bernardo: Endigina soat 12 ni urdi.

Fgap tsisko: *Blagodaryu za smenu. Xolod razkiy*

Fgap tsisko: Omon bo'l, birodar, meni bo'shatgali kelibsan. Sovuq yomon zabtiga oldi.
Bernardo: *Ueli vstetish tovarihey Goratsio i Martsello, tak poprosi ix pospeshit*
Bernardo: Horatsio bilan Martsel ikkovi man bilan birga poylokda urushmokchi edi.
Ko'rsang aytki tezroq kelishsin.

Horatsio: Shu mamlakatning
dustlari.

Goratsio: Druz ya
otechetsva.

Goratsio: Vzdor, ne pridet
on.

Horatsio: Mana ko'rarmih-u,
arvohimiz kelmaydi.

Goratsio: Kto to' polnochno'm zavladevshiy chasim. I obrazom voinstvennogo
perekrasno'm

Horatsio: Kisman san, nima uchun san tun qorong'isidan foydalanib, qonundan
tashqari marhum qirolning muazzam va jangovar qiyfasiga kirib olding? (savol arishdan javob
dashdan)¹³.

Shekspir «vaqt yarim kechadan o'tdi» desa, tarjimon boshi «endigina 12 ni urdi» deydi;
Shekspir qonundan so'zlamasa ham, «tarjimon boshining eski zakonchiligi tutib», «qonundan
tashqari» chiqqan deb tursa, bunga hozircha ahamiyat bermaylik, deydi muallif.

Bo'lak xatolarga misollar.

Goratsio: *Ya zaklinayu nebom - govori!*

Horatsio: Yarshi kursining la'nati bo'lsin seng, so'zla.

Goratsio: *Stoy i govori-tebya ya zaklinayu!*

Horatsio: to'xta, gapir, gapir, la'natlar o'qiyman senga, gapir!

Bu tarjimani N.To'raqulov quyidagicha sharxlaydi: «oson bo'l tarjimon boshi!
Horatsioning rolini o'ynagan o'rtoq Burhonov, tezroq la'natlaringizni qaytarib oling, chunki
bizning tarjimon bosh *proklinat* bilan *zaklinat* ning orasidagi farqni bilay, «qonundan tashqari»
Sizga la'nat o'qitib yuribdi. Eng yaxshisi bu la'natlarni tarjimon boshining o'zlariga qaytarib
yuboring. Shekspirga qaraganda, Horatsio la'nat o'qimaydi (ne proklinaet), tazarru` qilib
yolvorib so'raydi (zaklinaet)».

Boshqa bir o'rinda martsello tilidan ishlatilgan «A, proshay, moy braviy drug!» gapining
«Kechir, nomusli jangovor» deb o'girilganini tanqid qilib, tarjimon bunda xayrlapguv
ma'nosidagi *proshay* so'zini *prosti, izvini* ma'nosida notugri tushungan xolda, *kechir*, deb
berganini qayd etar va Martsello rolini o'ynagan «bechora» Tajiev ham, «hech bir yomonlik
qilmagan bo'lsa-da», tarjimon boshiga ishonib, *kechir, afu qil* deb sababsiz har yo'sinda aytib
yurgani ustidan kuladi. Holbuki, Martsello aslida «xayr, xo'sh, botir do'stim!» demoqchi.
«Kechir, deb afu so'ramoq tarjimon boshining o'ziga munosib» deb luqma tashlaydi munaqqid.

O'sha Martsello tilidan ishlatilgan «vassalo' korolya» so'zlarini «mamlakat qirollarining
sodiq tabaalari» deb o'girishni nomaqbul deb topiladi, chunki bu -asarning tarixiy fonini
«bulg'aydi», Zeroki, *podshoh* o'rnida *bek, bek* o'rnida *savdogar, savdogar* o'rnida *eshon, mulla*
ishlatilmoq qanchalik nomatlub bo'lsa *bek* (vassal) o'rnida tabaa deb berish ham ma'qul emas.

«Hamlet» ning ruscha tarjimasida Martselo tilidan qo'llanilgan *narod* (halq) so'zi *ko'cha*
(avom) deb berilgan ekan, buning noto'g'ri ekanligini o'sha kontekstdan ham bilib olsa bo'ladi.
Basharti, mutarjim tanlagan matnda xam shunday nuqson ketgan bo'lsa, «... tarjimonning
vazifasi bu ishga rasmiyat ko'zi bilan qaramay, ruschada mavjud boshqa matnlarini olmoq va
ularning ichidan sovet sahnasiga eng munosibini saylamoq lozim edi».

M a r t s e l l o :

Berut lyudi dlya korabelno'x verfey. Gde net im prazdnika, v mel ko bedni.

M a r t s e l l o : Nima uchun kema yasaydigan ishchilarni yakshanba bilan boshqa
konlar orasida farq qilmayturgan darajada ishlatadilar?

¹³ Nazir To'raqulov lo'qmasi

«O'zbekistonning adabiy tili shumi? - so'radi N.To'raqulov va xitob qiladi:-Yo'q! Bo'lmasa kerak. 41 darajada xarorat bilan kasalxonadan qochgan kasalning so'lashi bo'lmasa, o'zbekcha demak ayb bo'lar. Til tarafini bir chetga qo'ying-da, «yakshanba» qaerdan chiqdi deb so'gap g. Shekspir bu yerda na yakshanbasini so'ylagan va na jumasini! Asarga bunday buzuq bir chang bermoq ayb emasmi?»

Shuningdek, Bernardo tilidan aytilgan: «...so'zlarimizning kushi (?) o'tmaydigan quloqlarga (?) yana hamla qilay» so'zlarini munaqqid sharhlar ekan, piching otadi: «Yangi chiqqan o'zbekchani yo men bilmayman, yo tarjimon boshining o'zi sog' odam emas. Aqli va xushi joyida bo'lgan kishi «tish o'tmas quloqlarga xamla qilib yurmaydi».

Nazir To'raqulov asarning ruxini butunlay o'zgartirib yuborgan, uni badiiy quvvatini pasaitirgan nuqsonlarga alohida to'xtaydi. Uning fikricha, «dushman falakka qarshi is'yon etgan Hamletni tarjimon boshi «dil ozor falakdan» zorlanib, inqilob so'ldirgan hezga o'xshatib qo'ygan. Tarjimaadagi Hamlet biz bilan erkak Hdmllet emas, pichilgan, axta bir Hamlet».

Dalili sifatida Hamletning mashxur «yo o'lish, yo qolish» monologi keltiriladi:

«Bo't ili ne bit - vot v chyom vopros. Chto blagorodne: snositeli grom i strelo' vraydayuhey sud bo'» ili vosstat na more bed i konchit iz bortboy? Okonchit jizn - usnut . Ne bolee! I znat , chto etot son okonchit grust i to'syachi udarov - udel jivo'x. Takoy kontse dostoin jelaniy jarkix.

Umeret ? Usnut ? No yesli son videniya posetyat? Chto za mechto' na smertno'y son sletyat, kogda mo' stryaxnem suetu zemnyu.

Vot, chto dal neyshiy zagrajdaet put ! Vot, chto chego beda tak dogovechna! Kto sne bo' bich i posmeyanie veka, bessilie prava, tiranov pritesnenie, obido' gorodogo, zabo'tuyu lyubov , prezrenno'x dush prezrenie k zaslugaem, kogda bo' mog nas podarit pokoem odin udar? Kto nes bo' bremya jizni, kto gunleya pod tyajest yu trudov?»

O'zbekcha tarjimasi va unta N.To'raqulovning sharhlari: «Yo o'lish yo qolish –gap shunda! Ajabo, qaysi biri sharaflil va oliy janob: dil ozor (aslida: dushman) falakning zarbalariga chidashmi yoki balolar dengiziga qarshi bel bog'lab, ularga qarshi qo'zg'alib, ularni barham berish?» («konchit iz bor boy» qayga ketdi) O'lim bir uyqu, xolos... Bunday uyqu orasida biz nafeimizni merosi bo'lgan (tarjimon boshining niyati o'sha «udel jivo'x» degan jumlanil anglatmoq. Holbuki, aslida na meros bor, na merosxur va na nafs merosi! Aslida bo'lsa «tiriklarning nasibi» degan.) ko'ngil alamlariga minglarcha o'kir dardlarga xotima chega olamiz-zotan, ko'ngilning unga tomon ixtiyorsiz intilib turgani oqibat ham shu (Shekspir qayda, bizning tarjimon boshi qayda!). O'lmoq-uxlamoq demakdir. Chinakam uxlamoq-balki tush ko'rmoq? Mana shunisi yomon (tarjimaning mana shunisi yomon. Asli butunlay boshqa) Ustimizdan bu fano dunyoning butun iztiroblarini (aslida: «foniyl tashvishlarni» degan.) tushlar ko'rar ekanmiz? Shu yerad picha andishaga ehtiyoj bor. Mana shu masala orqasida (til emas shakar!) biz o'zimizni bu foniyl dunyoda qancha yillar umr qilish kulfatiga bog'lab beramiz (asli boshqa-ku buning!). Zamonning zarbalari va xunuk basharalariga, zolimlarning zulmlariga, kibrlilarning taxqirlariga, rad etilgan sevgining alamlariga, qonunlarning bajarilishidagi imillashlarga (aslida na qonun bor, na bajarilishi va na uning imillashi bor! Tarjimon boshining eski zakonchiligi tutgan, Aslida: «haq va huquqning ojizligi» degan. NB!), hukumatdorlarning zulmlariga (aslida: «zolimlarning zulmlariga» degan.) va qobil odamlarning boshlariga noqobil odamlar tomonidan tushiriladigan butun kulfatlarga (aslida hech muvofiq emas.) kimning toqati bor? Kichkinagina bir xanjarning birgina zarbi bilan shularning barchasidan qutulmoq mumkin -ku».

«Ey noqobil tarjimon boshi!-deb yakunlovchi muddaoga ko'chadi zardasi qaynagay tanqidchi. -Shekspir zulmining bir xanjar zarbi bilan ko'tarilmasligini so'ylab turibdi. Siz nima deysiz? Shekspirga zulm emasmi bu? Qobil Shekspirning boshiga noqobil tarjimangiz bilan tutpirgan zarbangizni to'xtating».

Ushbu maqolada «Hamlet» fojiasining o'zbekcha tarjimasi afandining tumshuti, oyoqlari va qonotlarini kesgan qushiga o'xshatiladi. Xulosa o'rnida esa asarni «darhol» yangidan tarjima qildiroq, uni «sinatmoq», «tanqid elagidan utkazmoq», ana shundan keyingina «respublika omonati» sifatida uni yosh artistlarimizning qo'llariga topshirish lozim ekanligi aytiladi.

Respublika gazetasida Nazir To'raqulovning «Hamlet» tarjimasini haqidagi shafqatsiz tanqidi bosilib chiqqan kunning ertasigayoq, o'sha gazetaning 1936 yil 28 iyul sonida tarjimon Cho'lponning unga javobi («Boshqarmaga xat») e'lon qilinadi. Bu javobda Nazir akaning «Hamlet» tarjimasini, keltirgan misollariga qaraganda, ruscha tarjimalarning tizmalisi (nazmlisi) bilan soligptirganligi aytiladi. Holbuki, tarjimon asarning inqilobidan burun chop qilingan sochmali (nasrli) ruscha tarjimasidan o'tirgan. Ana shu ruscha tarjimini ingliz tili «bilgichlaridan» Lann asl inglizcha nusxasiga solishtirib, ko'p joylarini iloji boricha, asliga yaqinlashtirib bergan. «Mazkur nusxa hali xam o'rtoq Lanning kutubxonasida saqlanadi. Men ana o'sha nusxadan bo'lgan tarjima uchungina javobgarman», -deb yozadi mutarjim. Holbuki, tarjima bilan tarjima orasida, ayniqsa, tizmali bilan sochmali katta farqi bo'ladi, deydi u.

«Boshqarmaga xat» da «Hamlet» day bir asarning tarjimasida bir necha xato ketmasdan «iloji yo'q» ligi aytiladi. Xayrixoxlik asosida ko'rsatilgan o'sha nuqsonlarni kelajakda tuzatishga va'da beradi u. «Bir nechta to'g'ri ko'rsatilgan tarjima xatolari Nazir aka maqolasida ham bor, buning uchun u kishiga xam tashakkur».

Mutarjim o'rtoq Lann qo'lidagi nusxani oldirib, o'z tarjimasini uning originaliga solishtirib, natijasini matbuotda e'lon qildirishni, buning uchun esa malakali tarjimonlardan iborat nufuzli komissiya tuzishni «O'zbekiston Yozuvchilar qo'mitasi» dan so'raydi.

Oradan yarim oydan sal ortiqroq vaqt o'tgach, yana usha gazetaning 1936 yil 16 avgust sonidan taniqli jurnalist, mohir tarjimon va tarjima nazariyachisi Sanjar Siddiqning «Tuxmatga o'xshagan tanqid» nomli kattagani maqolasi bosilib chiqdi, maqola «Hamlet» tragediyasini Nazir To'raqulov qilgan tanqidiga javoban yozilgan edi. Buni ana shu ikki maqolaning sarlavhasidanoq bilsa bo'ladi: «Hamletga tuxmat»-«Tuxmatga o'xshagan tanqid». Mazkur maqolalarning nomi nihoyatda ohangdosh bo'lsada, ammo mazmunan batamom ziddir. Brinchi maqola «Hamlet» fojiasining birichni o'zbekcha tarjimasini butkul inkor qilish, ikkinchi maqola esa «inkorni oshkor» etish ruxida yozilgandi.

Sanjar Siddiq maqolasida quyidagi masalalar ko'tariladi;

1. Tragediyaning rus tiliga tarjima qilinishi tarixi. Bu tarjimalarning xususiyatlari.
2. Bir asarning bir tilga qilingan bir nechta tarjimasida tafovut bo'lishi muqarrarligi.
3. Mavjud ruscha tarjimalarning («Hamlet») birchasida tafovut borligi.
4. Muayyan tarjimini tahlil qilganda asarning shu tilga qilingan har qanday boshqa tarjimasini bilan emas, balki «asl-tarjima-nusxa» bilan soltirish shart ekanligi.
5. «Hamlet» ning o'zbekcha tarjimasidagi nuqsonlar:
 - a) o'z tilga o'girish uchun asarning eski ruscha tarjimasini asos qilib olinganligi;
 - b) mavjud ruscha tarjimalarni «birlashtirib», qandaydir umumlashtiruvchi, «xolis », «original-tarjima» yaratish arzurligi;
 - v) rus tilida mukammal tarjima paydo bo'lgunga qadar ana shu «qo'lbola» tarjimadan tarjima qilib turish.

Sanjar Siddiq maqolasidan uning tarjima nazariyasi bobida o'zi yashagan davrdan ancha ilgari ketganligi, unda ko'tarilgan masalalar hozir ham o'zining aktualigini yo'qot-maganligi ko'rinib turadi. Uning muloxazalaridan «Hamlet» birinchi topqir endigina o'zbek tiliga o'tirilganligi, boshqacha aytganda, bizda hali bu singari yirik g'arb adabiyoti asarlarini tarjima qilishda uzoq yillik, qaror topgan an'ana yo'q ekanligi, binobarin, bu jabxada tajribali rus adabiyotidan o'rganish lozimligini anglash mumkin.

Muallif dalolat berishicha, «Hamlet» rus tiliga yuz yildan ortiq vaqtdan beri tarjima qilinib, ko'chirilib, o'zgartirilib tadbiiq etilib kelinmoqda. Rus adabiyotida «shekspirologiya» nomi bilan maxsus bir soxa, «ayrim ilmiy bir maslak» paydo bo'lgan. Rus adiblari va olimlarining eng kuchlilari bu sohada ish olib boradilar, tekshiradilar, talashib tortadilar, sharxlar beradilar.

Hozirgacha Shekspir asarlarini o'rganishga bag'ishlangan yuzlab, minglab maqolalar, kitoblar nashr qilingan. Eng atoqli rus adiblari bu masala ustida ish olib borganlar. Buyuk rus revolyutsion tanqidchisi V.G.Belinskiydan tortib to bizning davrimizdaga shekspirshunoslargacha, qanchadan-qancha zukko munaqqidlar, dono olimlar ilmiy tekshirish

o'tkazganlar, «Lekin... Lekin shunday bo'lsa xam rus adabiyotida bu kungacha Shekspir asarlarining to'g'ri va mukammal tarjimasi yo'q, yo'q!», shu kunlarning o'zida ham bu masalani muxokama qilmoqda. «Hamlet» kabi asarlarning to'g'ri tarjimasini yuzga chiqarish uchun urinmoqda.

«shu holda,-deb yozadi munakkid,-bundan ikki yilgina burun bo'lgan o'zbekcha tarjimadan, birinchi tarjimadan, bevosita emas, uchinchi qo'l orqali bo'lgan bir tarjimadan mukammallik, xatosizlik talab etish mumkinmi?

Albatta mumkin emas».

Shu tariqa Sanjar Siddiq masalani juda jiddiy, printsiptal tarixiy va ilmiy asosda qo'yishga, tarjima muammolarini yuzaki kuzatish, shoshma-shosharlik bilan talqin qilishdan chuqur nazariy asnoda tadqiq qilishga ko'chish uchun zamin hozirlashga kirishadi.

«Hamlet» kabi asarlarning tarjimasi va uning ustida muxokama yurgizish butun bir xalqning madaniy saviyasini o'lchashga mezon bo'laturgan narsalar. Bular bir yoki bir necha kishining ishlashi bilan bajarilaturgan ishlar qatoriga qo'yilmaydi. Bular ustida keng adabiy jamoatchilik ish ko'rishi lozim. Bir-biriga yordam, o'zaro tanqid va xatolarni muxokama qilish shu yerda asqotadi. So'quvchilar, quyushqondan tashqari kinoyalar ishning tuzalishiga emas, balki bu sohada xizmat qiluvchi kollektivning ishini sovutishga sabab bo'ladi».

Sanjar Siddiq masalani ana shu tariqa yoritib Nazir To'raqulovning «Hamlet» tarjimasi xususida aytgan gaplarini «adabiy harakat sha'niga yarashmagan so'zlar»deb ataydi.

S.Siddiq «Hamlet» ning rus tilida o'n beshdan ortiq tarjimalari mavjudligi, ularning xam har biri necha martadan bosilgan bo'lsa, shuncha o'zgarish va tuzatish ko'rganligini aytadi. U ilk o'zbekcha tarjima inqilobdan oldin rus tiliga nazmda emas, nasr bilan o'girilgan Kanshin tarjimasidan olinganligi haqida ma'lumot beradi. Bu xabarning muximligi shundaki, uni na N.To'raqulov, na tarjimon o'zi aniq eslatishmagandi. Bas, ma'lum bo'ladiki, shekspirshunos olim Yevgeniy Lann 1932 iilda tragediyaning Kanshin tarjimasini uning asl inglizcha nusxasi.

Asar ikki yil ichida o'zbek tiliga o'girilib, 1934 yilda bosilib chiqqan.

Kanshin tarjimasining Ye. Linn tahriri o'zbekcha tarjimaga asos qilib olingani to'g'rimi yoki to'g'rimasmi, bu boshqa masala, deb hisoblaydi tanqidchi. Lekin tarjimani tahlil qiluvchi kishi uni muqarrar ravishda usha Kanshin tarjimasi bilan solishtirishi lozim. Nazir To'raqulov esa bunday qilmagan. U qandaydir boshqa bir she'riy tarjima bilan qiyos qilgan.

«Bizning qo'limizda Kanshin tarjimasi yo'q. Shuning uchun o'zbekcha tarjima to'g'risida to'la bir gap aytishdan ojizmi-deydi Sanjar Siddiq - Ammo bizning qo'limizda bo'lganlari ham N.To'raqulovning Cho'lponga qo'ygan birmuncha ayblari «bekorchi gaplar» ekanini tasdiqlab turadi».

Sanjar akaning so'zlaridan ma'lum bo'ladiki, uning qo'lida 1930 yilda bosilgan K.R. tarjimasi hamda 1935 yilda nashr qilingan M.Loziinskiy tarjimasi mavjud ekan. Shu kunlarda toshkentlik ba'zi o'rtoqlar, - deydi S.Siddiq-«Hamlet»ning bulardan boshqa sham bir qancha tarjimasini ko'rganlarini so'zlaganlar. Lekin ularda ham Kanshin tarjimasi yo'q ekan,

Sanjar Siddiq N.To'raqulovning «Hamlet» tarjimasini badnom qilish uchun keltirgan dalillari qanchalik asosli ekanini sinab ko'rish maqsadida ularni o'z qo'lidagi tarjimalar bilan muhoyasa qiladi. Toki,-deydi u, - «41 darajali harorat bilan kasalxonadan qochgan kishining so'zlari» qaydan kelayotgani aniq bo'lsin.

A. 1. To'raqulov misolida:

Frantsisko: Vo' vo-vremya prizodite na smenu.

2. K.R. tarjimasida:

Frantsisko: Ispravno vo' i vo vremya prishli.

3.Loziinskiy tarjimasida:

Frantsisko: Vo' v samoe pojalovalni vremya.

B. 1. To'raqulov misolida:

Bernardo: Uje za polonch .

2. K.R. tarjimasida:

Bernardo: Dvenadtsat probilo.

3. Lozinskiy tarjimasida:
Bernardo: Dvenadtsat b yot.
4. B. 1. To'raqulov misolida:
Bernardo: yesli vstetish tovarihey Goratsio i Martsello, tak poprosi iz pospeshit .
5. K.R. tarjimasida:
Bernardo: Kol tebe Goratsiy i Martsell, to varishi moi po strane vstretyatsya, skaji im, chtobo' pospeshili..
3. Lozinskiy tarjimasida:
Bernardo: I yesli vstretish ostal no'x, Martsella i Goratsio, potoropi ix. G.
1. To'raqulov misolida:
Goratsio: Druz ya otechetsva.
2. K.R. tarjimasida:
Goratsio: Druz ya otechetsva.
3. Lozinskiy tarjimasida:
Goratsio: Druz ya strano'.
- D. 1. To'raqulov misolida:
Goratsio: Kto to', polnochno'm zavladevshiy chasom.
2. K.R. tarjimasida:
Martsello: Proshay, moldat primerno'y.
4. Lozinskiy tarjimasida:
5. Goratsio: Kto to', chto posyagunl na etot chas.
- E. 1. To'raqulov misolida:
Martsello: A, proshay, moy bratso'y drug!
2. K.R. tarjimasida:
Martsello: Proshay, moldat primerno'y.
2. Lozinskiy tarjimasida:

Martsello: S bogom, chastno'y vain.

Ana shu misollarning o'ziyoq, deydi Sanjar Siddiq, tarjima bilan tarjima o'rtasida farq borligini ko'rsatish uchun kifoya qiladi. Binobarin, bir tarjimani taxili qilinganda bu qadar hovliqmasdan, biroz «sovuqqonlik» bilan mulohaza yuritish darkor. Holbuki, K.R. xam, M.Lozinskiy ham va boshqa ko'p tarjimonlar ham bir matndan o'giranlar, Ularning tarjimalarini bir matn asosida solishtirib ko'rgan tadqiqotchilar ham bu qadar hovliqmaganlar,

Shu tariqa Sanjar Siddiq Nazir To'raqulovning taxlil usulini, badiiy tarjimaning umumiy xususiyati, asosiy shartlari va qonuniyatlariga asoslangan holda, nazariy tomondan rad qiladi, Shu bilan birga, u noto'g'ri deb bilgan ayrim misollar tarjimalarining xam aslida asosli, to'g'ri ekanligini isbotlaydi. Masalan, N.To'raqulov Martselloning « Gde im net prazdnika, v tol ko budni » degan bir jumlasini ushlab oladi -da: «Shekspir bu yerda na yakshanbani so'yilagan va na jumani! Bunday buzuk gap g berish ayb emasmi ?» deb dashnom berar ekan, Sanjar Siddiq masalani: aslida «buzuk gap g» beruvchi v a bunday «ayb ishni qiluvchi» kim?-degan tarzda qo'yadi va o'zi javob beradi.

K.R. ning tarjimasiga qagap g:

Pochemu sudostroitel n'yy, nevol n'yy trud, ne razlichaet dnya voskresnogo ot budnya?

Bu yerda N.To'raqulov «yakshanba qandaf chiqdi ?» deb so'kinmasdan, masalaga keng qarasa yaxshi bo'lar edi, deydi S.Siddiq.

Tanqidchi N.To'raqulovning boshqa bir da'vosini ham rad etadi.

Hamletning mashhur monologida «qonunlarning bajarilishidagi imillashlarga» degan jumla x~aqida N.To'raqulov yozgan edi; «Asli bunda na qonun bor, na bajarilishi va na imillashi! Tarjimon boshining eski zakonchiligi tutib, o'zidan «qo'shib qo'ygan».

Bu da'voning ham noto'g'ri ekanligini Sanjar Siddiq K.R. va M.Lozinskiydan keltirgan misollari bilan rad etadi.

K.R. tarjimasida:

Gamlet: ...lyubvi otvergnutoy terzanie, zakonov medalitel nost ,
vlastey bezsto`dno...

Lozinskiy tarjimasida:

Gamlet: ...bol prezrennoy lyubvi, sudey medlivost , zanoschivost vlastey...

Darhakiqat, banda qonun ham, qozi xam, imillash ham bor! Bunga Abduxoliq «zakonchiligi»ning hech qanday aloqasi yo`q,-deydi S.Siddiq.

«Hamlet» tarjiasida xato yo`q demaymiz,-yozadi munaqqid.-Xatolar bor. Ulardan bir qanchasini o`rtoq To`raqulov to`gri ko`rsatgan. Agarda xato bo`lmasa va birinchi o`zbekcha tarjima birdan to`lkin chiqsa juda g`alati gap bo`lar edi. Shekspir kabi ulug` yoquvchilarning asarlari bir emas, bir necha martalab tarjima etiladi. Xususan, boshqa til vositasi bilan qilingan tarjimalar albatta aslidan ancha uzoq bo`lishi tabiiy».

«Hamlet»ning o`zbek tiliga qilingan ilk tarjimasidagi asosiy nuqson nimada, unda bir talay kamchiliklarga yo`l qo`yilishi qaerdan kelib chiqqan?

Sanjar Siddiq, avvalo, inqilobdan oldin nashr qilinib, «oyoqdan qolib ketgan» tarjimini asos qilib olishning holati yo`q edi, deb hisoblaydi. Uning fikricha, «agarda eng so`nggi tarjimalardan ikkinchi-uchinchi bir kollektivda ishlab birlashtirilsa edi, u holda to ruschada mukammal tarjima paydo bo`lguncha shuning tarjimasini bizga yarab turar edi».

Ikkinchidan, bunday «jahonshumul» asarlarni tarjima qilganda shoshilishga yul qo`yib bo`lmaydi. Teatr shoshgan, tarjimon ham shoshgan. U asarni «o`qib» olmagan. Ana shuning natijasida «yolvorish» o`rniga «la`natlash», «xair» o`rniga «kechir»lar o`tib ketavergan. Umuman, bu shoshilish degan narsa umumiy bir kasalga o`xshaydi, deydi Sanjar. Chunonchi, teatr va tarjimon shoshgan ekan bunga yarasha tanqidchi xam shoshgan, Negaki, Kanshin tarjimasini topishga uning sabri chidamay, qo`liga tushgan tarjima bilan solishtirib, matbuotga maqola yozib yuboravergan,

Lekin bundan tarjima butunlay yaroqsiz ekan degan xulosa chiqarib bo`lmaydi. Mazkur o`zbekcha tarjimaning axamiyati bunday katta ishga birinchi *urinish ekanligi* bilan belgilanadi.

«Cho`lpon birinchi marotaba bizga Hamletni tanitgan ekan, uning ikkinchi tarjimasida xam xizmat etishiga ishona olamiz. Uni Abduxoliq ellikboshiga o`xshatish insofsizlik bo`ladi».

Gazeta o`z sahifalaridan «Hamlet» tarjimasining nuqsonlarini tanqid qilish, bu tanqidga nisbatan tarjimonning mavqei va munosabatini belgilash, shuningdek, tanqidning zaif, bir yoqlama, zararli tomonlarini rad etishga bag`ishlangan maqolalarga urin berar ekan, o`zi mumkin qadar «xolisona» yo`l tutishga harakat qiladi. Masalan, gazetaning xuddi shu 16 avgust sonida «Boshqarmadan» nomli javob xabari bosilgan. Unda Sanjar Siddiqning maqolasi qisqartirib berilganligi, maqolada tarjima qiyinchiliklari to`gri ko`rsatilganligi, jumladan, ruscha tarjimalar o`rtasidagi tafovutlar o`rinli qayd qilinganligi aytiladi. Lekin, shu bilan birga, «Boshqarma»dagi o`sha «xolis hakamlar» «tafaovutda tafovut bor» qabilidi Sanjarga «shama» qiladilar. Chunonchi, «Prohay, moy bravo`y drug» bilan « Prohay, moy bravo`y soldat» o`rtasidagi yuzaki tafovut bilan « Prohay, moy bravo`y drug»-«Kechir, nomusli jangovar» (!) o`rtasida farq juda katta ekanligi, «lekin har holda tafovutlar borligini iqror etish kerak»ligiga ishora qilinadi.

Biroq «Boshqarma»ga bir narsa ravshanki, «Hamlet» o`zbekchaga diqqat bilan, puxtalik bilan tarjima etilmagan, uning tilida xam, uslubida xam kamchiliklar juda ko`p, ma`noni buzib yuborgan xatolari xam ko`p, juda qo`pol va xunuk xatolar xam bor».

Tarjimini butunlay qaytadan tuzatib chiqish kerak, deb xisoblaydi «Boshqarma». «Bu ishni Cho`lponning o`zi qiladimi, boshqalar qiladimi gap bunda emas, gap shundaki, teatrni yaxshi tarjima bilan ta`min etish kerak. Muddao shu».

Gazeta muharririyati «Hamlet» tarjimasini haqida fikr bildirishni, shuningdek, shu yo`l bilan uning birinchi tarjimasidagi nuqsonlarni tuzatishga yordam berishni istagan o`rtoqlarga o`z sahifalaridan o`rin berishga va`da qiladi.

III.2. TUGALLANMAGAN TARJIMA, TANQID TAHLIL

1934 yilda «Hamlet» tragediyasining o'zbek tiliga tarjima qilinishi, shu tarjima asosida keyinchalik Hamza nomidagi o'zbek Davlat drama teatrida asarning sahnalashtirilishi bilan buyuk Vilyam Shekspir o'zbek diyoriga tashrif buyurdi va xalqimizning qalbidan mustaxkam o'rin oldi. Bu tarjimaning katta madaniy-ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lganligini o'ttizinchi yillardagi yirik adabiyotshunoslar: Sotti Husayn, A`zam Ayyubov, Sanjar Siddiq va boshqalar bir ovozdan e'tirof etadilar. Lekin tarjimaning yutug'i, unda yo'l qo'yilgan nuqsonlar nimalardan iborat va bu kamchiliklarni qanday bartaraf qilish mumkinligini aniqlash g'oyat muxim ahamiyatga molik edi, Ana shu jihatdan Nazir To'raqulovning yuqoridagi maqolasi xam ma'lum qiziqish to'g'iradi. Bu maqolaning ahamiyati quiddagilardan iborat.

Birinchidan, Nazir To'raqulovning o'zining shu maqolasi bilan butun respublikaning adabiy jamoatchiligi e'tiborini «Hamlet» tarjimasiga qaratdi. Ikkinchidan, bu orqali jiddiy davlat ishi hisoblangan badiiy tarjimaning o'rganilishi, xal qilinishi lozim bo'lgan eng muxim masalalarni kun tartibiga kiritdi. Uchinchidan, bevosita ushbu maqolaning o'zida yoxud shu munosabat bilan chop qilingan boshqa ishlarda badiiy tarjimaga qarash tarjimaning badiiy-estetik printsiplari, tarjima tekstlarini taxlil qilishda qiyoslash shartlariga doir ziyrak kuzatishlar keltirildi, tarjima nazariyasining qaror topishi va taraqqiy etishi uchun g'oyat zarur bo'lgan ilmiy xulosalar chiqarildi. To'rtinchidan, «Hamlet» fojiasining 1934 yilgi ilk o'zbekcha tarjimasida yo'l qo'yilgan xamma «kabil»dagi nuqsonlar: yirik xatolar xam, mayda qusurlar xam xaspushlanmasdan, umumlashtirib ko'rsatildi. Beshinchidan, «Qizil O'zbekiston» gazetasi sahifalarida N.To'raqulovning ishi e'lon qilinishi badiiy tarjima sohasida yo'l qo'yilayotgan nuqsonlarni bartaraf qilish, tarjimachilik xo'jaligida tartib o'rnatish va kelajakda uni alp qadamlar bilan rivojlantirishda sezilarli rol o'ynadi.

Ob'ektiv ravishda olib qaraganda, bu maqola tarjimangunoslikning ilk rivoshlanish davrida jiddiy ahamiyat qozondi. Biroq shunday xulosa chiqarganda, ishning yozilishi maromi, munaqqidning tutgan mavqei, maqolada yo'l qo'yilgan qo'pol nuqsonlar nazardan soqit qilinadi. Gap shundaki, ana shu maqolaning o'zilish davri, tarjima adabiyotining ko'lami, miqyosi, badiiy tarjima masalalariga qarashning o'ziga xosligi va hali o'zbek tarjimachiligida tarjima metodologiyasi masalalarining yetarli ishlab chiqilmaganligini hisobga olinadi. Nihoyat, gap yana shundaki, hatto N.To'raqulov maqoladi jiddiy nuqsonlarga yo'l qo'yganida xam, bu ta'bir joiz bo'lsa, foydali edi. Chunki tanqidchi ilgari so'rayotgan fikr, to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligidan qattiy nazar, taxlili etilayotgan masalaga e'tiborni qaratar, pirovardida, adabiy jamoatchilikning (jumladan, tarjimonning xam) ishtiroki, muxokamasi bilan muayyan to'g'ri xulosalar chiqarilishiga turtki bo'lgan edi.

Albatta, har bir narsaning, shu jumladan, tanqidning ham o'z me'yor bor. «Har qanday qaboxat xam shu qabohatga qarshi kurashishga sabab bo'ladi» degan mantiq bilan har qanday illatni iqlash mumkin. Har bir ishda me'yor buzilsa, tarkib va mutanosiblikka ham putur yetadi. N.To'raqulovning yuqoridagi maqolasida ham xuddi ana shunday hol ro'y bergan.

«Hamletga tuxmat» maqolasi boshdan-oyoq piching, kesatiq, qochirma ruxida yozilgan. Abduxoliq to'g'risidagi latifani keltirish bilan tanqidchi tarjimonni to'g'ridan-to'g'ri haqorat qiladi. Nazir To'raqulovning ishini aslida «maqola» emas, balki «adabiy felyeton» desa to'g'riroq bo'lar. N.To'raqulov «Hamlet» tragediyasining birinchi o'zbekcha tarjimasini taxlil qilari ekan, nima uchun bunday qo'pol uslub, buzuq ohangni tanladi? Bu ma'lum emas. Maqola ochiqdan - ochiq noxayrixoxlik ruxida yozilgan.

Nazir To'raqulovning aytishicha, «Hamlet» tragediyasi Moskvadagi Vaxtangov teatrida katta muvaffaqiyat bilan oynalغان. Aktyorlarni o'zbek tilidan mutlaqo bexabar bo'lgan moskvalik tomoshabinlar qizg'in qutlaganlar. Ularni «teatr olqishlagan»! Abror Hidoyatov va Sora Eshonto'raevalar Hamlet va Ofeliya rollarini ijro etishganda butun zal hayajonga kelgan.

Endi shunday savol tutiladi: boshdan –oyoq buzib tarjima qilingan bir asarni bu qadar muvaffaqiyat bilan sahnalashtirib bo'ladimi?

To'g'ri, noqobil aktyor juda mukammal tarjima qilingan asardagi rolni ham bo'sh o'ynashi mumkin. Bu ham asarning umuman zaif ekanligi yoki uning yomon tarjima qilinganini bildirmaydi. Aksincha hol yuz berishi ham mumkinmi? Ya'ni qobil aktyor umuman bush yozilgan yoinki yomon tarjima qilingan asardagi obrazni o'ynaganda o'z mahorati bilan dramaturg va tarjimonning zaif tomonlarini tuzatib yubora oladimi?

Albatta, qisman shunday bo'lishi ham mumkin bo'lsa-da, bu nisbiy ehtimoldir. Ha, buyuk aktyor ko'zga tashlanmaydigan mayda rolni ham yorqin unutilmadigan qilib o'ynashi mumkin. Bu - o'sha ushoq rolning tagida ulkan potentsial imkoniyat borligi ko'rsatadi, Ammo zaif tarjima qilingan asarni favqulodda muvaffaqiyat bilan ijro etish mushkul bir narsa. Binobarin, asarning tarjimasini (xususan, bu buyuk Shekspir dahosining o'zbek tilida asarda birinchi badiiy talqini ekanligi e'tiborga olinsa) boshdan - oyoq yomon deb bo'lmaydi. Durust, tarjimada o'ylamay-netmay ag'darilgan, buzib berilgan so'zlar, jummlalar, tarkiblar ko'p. Ammo bu butun tarjimaning taqdirini hal qila oladimi? Agar bir nechta tushunmasdan berilgan lugaviy qusurlarga qarab hukm chiqariladigan bo'lsa, jaxon adabiyotining tilimizga o'girilgan ko'pgina zo'r, badiiy barkamol, tarjimalarini, N.To'raqulov talab qilganiday, «darhol» bekor qilishga to'g'ri kelardi. Vaxolonki, «Hamlet» singari jahon klassik adabiyoti namunalrini «darhol» yaratib bo'lmagani singari, ularni «darhol» tarjima qilib, ham bo'lmaydi, binobarin, bunday tarjimalarga «darhol» man etish tamg'asini bosishni ham o'sha davr adabiy muxitini bezagan voqealar jumlasiga kiritishning iloji yo'q.

Har qanday badiiy tarjimaning taqdirini belgilaydigan asosiy omil, «ko'rsatkich» nima? Buni o'sha tarjimada muallif qalbi - asarning ruxi, uslubi, obrazlar dunyosi qanday aks ettirilganligi nechog'lik qayta yaratilganligi bilan belgilanadi. Nazir To'raqulov esa, asosan, lug'aviy qusular orqasidan quvgan. Garchi maqolada hamletning «yo o'lish, yo qolish» monologi xam taxlil qilinsada, ammo unda ham ayrim kalima va jummlalarning noto'g'ri berilganligiga e'tibor qaratilgan holda, bu e'tirozlar ham ko'pincha noo'rin bo'lib chiqadi.

Maqolada masala «aktyorlar mahoratidan-tarjima sifatiga» tezisi tarzida qo'yilgan. Aslida esa «tarjima sifatidan-aktyorlar mahoratiga» tezisi qo'yilishi lozim edi.

XULOSA

O'ttizinchi yillar adabiyoti tarixida «Hamlet» tragediyasining tarjimasini taxlil qilishning boshqa bir namunasi xam bor. Bu Sotti Husaynning «Literaturniy O'zbek iston» jurnalida bosilgan «Gamlet» v perevode Chulpana» maqolasidir. Sotti Husayn xam fojining birinchi o'zbek tarjimasida yo'l qo'yilgan nuqsonlar - til va uslub bobidagi xato va kamchiliklarni qattiq tanqid qiladi (Tanqid qilingan o'rinlarda Sotti Husayn mavqeini ham to'la ma'qullab bo'lmaydi, bular xozirgacha jiddiy munozaralarga sabab bo'lib kelayotgan masalalardir). Lekin, avvalo, u masalani jiddiy va tutri zaminga qo'yadi.

«Odatda, biz,-deb yozadi Sotti Husayn, - u yoki bu asarning sahnalashtirilishi qanchalik muvaffaqiyatli bajarilganligi bilan qiziqamiz-u, bu muvaffaqiyatni belgilab beradigan asosiy omillardan biri-uning tarjimaini o'ylab ko'rmaymiz»¹⁴.

Ofarin! Tarjimaning sifatini-aktyorlarning mahorati emas, balki atkryolar maxoratining ro'yobga chiqishini-tarjimaning sifati belgilaydi.

Sotti Husaynning «Hamlet» tragediyasi tarjimasining til v a uslubini jiddiy tanqid qilishi tarjimani umuman inkor etishga qaratilmagan, aksincha, bu nuqsonlar (yana bir marta takrorlaymiz: muxokama qilingan masala munozarali!) umuman yaxshi tarjimaning tuzatish mumkin bo'lgan kamchiliklari, qo'lga kiritilgan yutuqning zaif tomonlari sifatida talqin qilingan.

Nazir To'raqulovning maqolasidan uning, ya'ni muallifning, asosan, jurnalistligi, badiiy tarjimaning o'ziga xos badiiy ijod sohasi ekanligini tushunmasligi ko'rinib turadi. Bu-maqolaning sarlavhasidan xam, usuli va uslubidan ham, qo'llagan vositalari va masalani qo'yishi, xulosalashidan ham o'ziga tashlanadi. Uning fikricha, «O'zbek iston hukumati», dramteatr kollektivi shuncha (!) g'ayrat sarf qilib, asarni saxnaga qo'yishga -u, tarjimaga o'xshash bir masalada (?) butun ish (!) cho'loq chiqqan (??). Bu fikrni sharhlab o'tirishning hojati yo'q. Demak, N.To'raqulov uchun teatrning kuch - g'ayrati, aktyorlarning maxorati asosiy, hal qiluvchi narsa -yu, tarjima bo'lsa, shunchaki «bir masala» (Sotti Husayn tezisiga tamoman zid). Maqolaning butun ruxidan badiiy tarjima ishiga xuddi ana shunday «shunchaki bir masala» deb mensimay qaralganligi sezilib turadi. Zotan, butun fojia ana shundan kelib chiqqan: tanqidchi mazkur tarjimani jiddiy taxlil qilish o'rniga, undagi har bir so'z, har bir jumlagi yopishib, askiya, piching, qochiriq va taxqirlarga asosiy urin berib yuborgan. Munaqqid o'z oldiga *qanday maqsadini* qo'yganligini hozir, albatta, aytish qiyin. Har qalay, ishing ruhidan uning muallifi tarjimani ilmiy taxlil qilishdan ko'ra ko'proq va, asosan, tarjimomni qanday bo'lmasini badnom qilishni ko'zlagan ko'rinadi.

Tahlil metodikasiga amal qilinmaganligi, muqoyasa uchun ob'ekt to'g'ri tanlanmaganligi uning boshdan - oxir buzuq ruxda yozilishiga sabab bo'lgan. Tanqidchi «Hamlet»ning o'zbekcha tarjimasini «asliga soltishtirib ko'rganligini qayd etaroq, shundan sal keyin yozadi: «Taxminimga ko'ra, asar ruschadan tarjima etilgan. Ruscha tarjimalar bilan solishtirib ko'rdim...» Taxmin! Bunday taxmin, gumon va farazlar bilan yozilgan narsa esa hech qachon yaxshi oqibitga olib kelmasligi o'z-o'zidan ravshan. Shunday bo'lgan ham.

¹⁴ Xusayn S. «Gamlet» v perevode Chulpan. «Literaturno'y O'zbekistan» 1936, № 1 c 195

Asarning qaysi manbadan to'rtjima qilingani, ya'ni uning «ob'ekti»ni aniqlamay turib qo'lga tushgan boshqa har qanday tarjimalar bilan chog'ishtiraverish mumkin emas. Boshqacha aytganda, muayyan bir asarning tilimizga qilingan tarjimasini uning o'sha ikkinchi tildagi B¹, B², B³, tarjimalari orasidan istagan biri yoki bir nechatasi bilan solishtiraverib bo'lmaydi. Chunki, shartli ravishda, asl nusxani A-«mutloq o'zgarmas» mant deb olinsa, uning ikkinchi tilga qilingan B¹ tarjimasi hech qachon B² tarjimasiga «mutlaq ekvivalent» bo'la olmaydi. Buning ustiga, B¹, B², B³... tarjimalari maqsad, davr, xususiyat, usul jihatidan ham farqlansa, ularni sira ham uchinchi tildagi V tarjima bilan qiyos etib taxlil qilishni printsip darajasiga ko'tarib bo'lmaydi. (Bu bilan bir asarning ikkinchi tildan uchinchi tilga qilingan muayyan bir tarjimasini ayni asarning ugla ikkinchi tildagi bo'lak tarjimalari bilan umuman qiyos qilish yaramaydi, demoqchi emasmiz. Bunday emas. Aytoqchimizki, muxoyasa qilish uchun avalo ikkinchi tilda uchinchi tildagi tarjimaga asos bo'lgan, asl nusxa vazifasini o'tagan tayanch tarjimini topgandan so'ng, zarurat bo'lgani holda, uni o'zga tarjimalari bilan qiyoslash mumkin. Hatto bo'lak tillarga, xususan, qardosh tillarga qilingan tarjimalar bilan ham chog'ishtirish foydali bo'ladi.) Masalan, «Hamlet» tarjimalari rus adabiyotida butun bir davrni tashkil etadi. Ular orasida tarjima hodisasiga ta'lluqli qariyb hamma tushunchalar, usullar, janrlarni uchratish mumkin. Faqat til tomoninigina olaylik: asar artiklashgan tilda xam, zamonaviy tilda ham o'girilgan. Shuningdek, rus tilida «Hamlet»ning nasriy, she'riy, to'la, qisqa, taqlidiy, talqiniy, erkin, xijjaliy tarjimalari uchraydi. Bir tarjimada Shekspir-klassik bo'lsa, boshqasida-zamondosh, birida-romantik bo'lsa, boshqasida realist sifatida ko'rinadi.

Bas, shunday ekan, fojining o'zbek tiliga rus tilidan inqilobi oldingi nasriy yo'ldan o'girilgan, so'ngra taxriridan o'tkazilib, asl inglizchasiga birmuncha «yaqinlashtirilgan» tarjimasidan qilingan tarjimini ko'lga tushgan har qanday nazmiy tarjima bilan soltirib, va shu asosda tarjimanni aybdor qilib bo'ladimi?

Durust, aybning 1934 yilgi ilk tarjimasida shunday joylar anchagina uchraydiki, bularning noto'g'ri ekanligini ochish uchun umuman xech qanday qiyosning xam hodati yo'q. Bir talay bunday qusurlarni Nazir To'raqulov to'liq kursatadi. Lekin gap taxminiy faktlar asosida tarjimon gardaniga yuklangan dahshatli aybnomalar ustida boradi. Masalan, «tarjimadagi Hamlet biz bilan erkak Hamlet emas, pichinlgan, axta bir Hamlet» deb ta'riflash, umuman qo'polligidan tashqari, tarjimonga ko'yilgan o'ta vahimaliy aybnomalardirki, bu tez isbotlanmagan.

Taniqli jurnalist, va tarjimashunos olim Sanjar Siddiq, Nazar To'raqulovning deyarli barcha asossiz davolarini rad etdi va «Hamlet»ning birinchi o'zbekcha tarjimasining chinakam bo'sh joylari nimalardan iborat ekanligi hamda ular qaerdan kelib chiqqanligini ko'satib bergan. Ammo uning qo'lida hamm... Kanshini tarjimasi yo'q edi. Binobarin, u ham Nazar To'raqulovning davolarini boshqa tarjima manbalaridan asoslangan holda rad etgandi.

Ordan rosa-qirq uch yil o'tdi. Bu o'rtada juda ko'p daraxtlar kesilib ketdi. Yana mazkur tarjima tarixiga qaytarish zaruriyat faqat tarixiy bir qiziqish taqozosi bilan tug'ilgan emas. Buning sabablari quyidagilardan iborat.

«Hamlet»ning birinchi tarjimasi haqidagi munozaraga «qaytish» unga ayrim «aniqliqlar» kiritish vaqat adabiy tarixiy ahamiyatgagina ega emas (garchi sovet davri tarjimachiligimiz tarixini o'rganish tomonidan ham juda ham muxim bo'lsada), balki G'ayrbiy yevropa adabiyotidan qilinayotgan hozirgi o'zbek tarjimachiligini va tarjima istiqbolini belgilash uchun xam katta ahamiyatga molikdir.

Mana Nazar To'raqulovning xam, Sanjar Siddiqovning xam «qo'llari yetmagan», juda katta shov-shuvlarga sabab bo'lgan. O'sha Kanshin tarjimasi bizning qo'limizda.

Kanshin tarjimasi...

Qirqi uch yillik noaniqlikning tutuni. Ajoyib «Hamlet» tragediyasini o'zbek xalqiga ilk bor tanitgan tarjimon xam, uning adabiy tarixiy va o'z davri uchun ahamiyatini belgilashga urungan, kam-ko'stlarini rad etgan Azam Ayyub, Sotti Husayn, Nazar To'raqulov, Sanjar Siddiqovlar... endi oramizda yo'q.

Jahonshumul «Hamlet» fojeasini ikkinchi bor, nazm bilan o'zbek tiliga jo'shib tarjima qilgan uni qayta tiklagan zabardast shoirimiz Maqsud Shayxzoda ham olamdan o'tib ketdi...

...Ammo hali «Hamlet»ning o'zbekcha tarjimasi tugagani yo'q. Hali munozara ham yakunlangan xam emas.

Albatta, tragediyaning birichni o'zbekcha tarjimasiga nisbatan aytilgan nohaq tanqidlarni endi qanchalik bartaraf qilmaylik, turgan gapki, uni hozir qayta nashr qilib ham, u asosda asarni saxnalashtirib bo'lmaydi. Tarjima o'z ishini qilib bo'ldi. U faqat adabiy tarixiy va ilmiy tadqiqiy ahamiyatiga ega. Ammo tarixiy tajriba sifatida xam Shekspir dahosiga tomon qo'yilgan ko'prik sifatida ham, katta madaniy xizmat sifatida xam bu ajoyib tarjima, shubxasiz, o'z qimmatini saqlab qoldi.

Endilikda bizning qo'limizda uchta qudratli vosita bor.

Birinchisi -, asarning eng ishonchli nusxasi-qudratli Shekspir originali (ingliz tilida).

Ikkinchisi 1934 yilgi ilk o'zbekcha tarjima uchun «asl nusxa» rolini o'ynatan Kanshin tarjimasi.

Uchinchisi-Maqsud Shayxzodaning o'zbekcha she'riy tarjimasi.

SUMMARY

William Shakespeare, English playwright and poet recognized in much of the world as the greatest of all dramatists. Hundreds of editions of his plays have been published, including translations in all major languages. Scholars have written thousands of books and articles about his plots, characters, themes, and language. He is the most widely quoted author in history, and his plays have probably been performed more times than those of any dramatist.

Shakespeare's plays communicate a profound knowledge of human behavior, revealed through portrayals of a wide variety of characters. His use of poetic and dramatic means to create a unified artistic effect out of several vocal expressions and actions is recognized as a singular achievement, and his use of poetry within his plays to express the deepest levels of human motivation in individual, social, and universal situations is considered one of the greatest accomplishments in literary history. William Shakespeare was born in 1564 in Stratford-on-Avon. No one knows the exact date of William's birth, although we do know that he was baptized on Wednesday, April 26, 1564. His father was John Shakespeare, tanner, Glover, dealer one of the famous English plays writers and poets of the world of literature and translation. His works had been spread all over the world, of course some of you have even heard about him. I would like you to pay attention on his past life.

He studied at Grammar school, where Latin-Greek and as well as literature and history were taught. Living in a provincial town, he had the possibility of getting in close contact with common people. This gave Shakespeare a profound knowledge of English folklore and national English language spoken by his folk.

In addition, the main part is, his creative work can be divided into four periods.

In addition, the main part is, his creative work can be divided into four periods.

The first period (1590-1593) may be named the apprenticeship. It includes, histories, comedies "King Henry VI", "King Richard III", "The comedy of Errors", poems "Venus and Adams"(1593), "Lucrece"(1594).

During the second period (1599-1600), the following works of Shakespeare were created:

"A Midsummer Nights Dream", "As you likes it", "King Richard II", "Romeo and Juliet", "Junes Caesar."

The third period (1601-1608) includes tragedies that appear in success on "Hamlet prince of Denmark," "Othello", "The moon of Venice," "King Lear," this period is characterized by the author's interest for tragic conflicts and tragic heroes. Shakespeare emphasizes dramatic circumstances in human life.

The fourth period (1609-1612) contains "Chamberlain," "King Henry VIII", "The Tempest." The Sonnets of Shakespeare considered being the height of English poetry of the Epoch of Renaissance.

"Translation" is changing the form of speech or text keeping its meaning. Many works of outstanding writers playwrights, and poets have been translating up to now and are being translated into

O'zbek for ages, but of course, we are not mistaken to say that there are successes and faults in those translations, because every field has its success and faults.

My scientific work is on theme, "The problem of creating an adequate translation." The terminology and the meaning of "Adequate translation" is widespread in using among the social scientists of O'zbekistan. The meaning of: "adequate" is from Latin "adaequatus" means equal, made right or suitable, we can say either meaning of adequate as to having the full ability or qualities of the copy of the original one, suitable for, or can be equal as well.

The eminent works of distinguished play writers like Shakespeare, Shiller, Goethe, Pushkin, Balzac, Tolstoy, and other many Russian and European writers were translated into O'zbek and were given to voracious readers. Nowadays there are few amount of specialists-translators knowing English, French, German, and other foreign languages among O'zbek translators. The reason of this problem of not knowing any of these languages made a problem for specialists to translate the work not from the original but from translated version as well. There

are three types of great tragedy of Shakespeare "Hamlet" which was translated into O'zbek , and all of them were translated from Russian version. The beginner of this was Abdulhamid Chulpon, in 1934; he was the first who put a hand on the translation of "Hamlet" into O'zbek . He translated from the Russian version of P. Kanshin. Then after 14 years in 1948, Makhsud Shayhzoda translated into O'zbek from Russian translation of B. Pastiriak. In 1960 Makhsud Shayhzoda retranslated this tragedy once more. Jamol Kamol translated the tragedy from original without using Russian translation unsimilar than other translators above.

Now here is the example and I came across like this: *As scene II.*

The castle "We will teach you to drink deep are you depart" 46U75

M. Shayhzoda gave this variant in such way:

"Hali sizni mayxo'r ham qilib qo'yamiz"

And I would give "Hali sizni o'rgatamiz mayxo'rlikka xam"

Ophelia: "I do not know, my lord, what I should think," Polonius: Marry I will teach you. Think yourself baby. That you have

Ta-en these tedious so true say

Which are not sterling. Tender yourself more deeply. Tendering it thus you will tender me a fool!

1) present me with a fool

2) present me with a baby

M. Shayhzoda gave this variant: Hech narsa tushunmayman o'zim Tingla, senga urgatay, olgin garoving,

qalbaki tanga degin va bundan keyin,

qimmat baxo garovlar olishga tirish

Bo'lmasachi, xoy qizim, bo'sh garovlarga

Yutqazib qo'ymay tagin keksa aklim, (38 bet)

Therefore, there is a great deal of misunderstanding in these because of not knowing of the foreign language as well.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. "Bilimli va aql-zakovatli avlodni tayyorlash—mamlakatni barqaror rivojlantirish va modernizatsiyalashning muhim sharti" mavzusidagi 2012 yil 16—17 fevral kunlari xalqaro konferentsiyada so'zlagan nutqi
2. Karimov. I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" "O'zbekiston" nashriyoti, 2011
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - T.: O'zbekiston, 2009.- 56 b
4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2010.- 56 b
5. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilliga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zi, "O'zbekiston ovozi" gazetasi, 2010 yil 1- sentyabr';
6. Karimov I.A. "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom - taraqqiyotimizning muhim omilidir", "Ishonch" gazetasi, 2010 yil 8 dekabr';
7. Karimov I.A. "Barcha reja va das turlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi", "Xalq so'zi" gazetasi, 2011 yil 22 yanvar'
8. Baqoyeva M., Muratova E., Ochilov M. Ingliz adabiyoti T.: 2006
9. Anikin G. B. Mihalskiy N. P. Ingliz adabiyoti tarixi. M., 1985
10. Ivasheva V. V. XX asr Angliya adabiyoti. M., 1967
11. Grajdanskaya Z.T. Shekspirdan Shougacha
12. Shahova K.A. XX asr Angliya adabiyoti. Kiyev 1987
13. F. Salomov. Adabiy an'ana va badiiy tarjima. Toshkent, 1980
14. M. Shayxzoda. Asarlar. Olti tomlik, Toshkent, 1972
15. Dashtentts X. Shekspir v Armenii. M., 1966
16. Radlova A. Kak ya rabotayu nad Shekspiom. «Literaturno'y sovremennik», 1934

17. V. Vil mont. «Gamlet» v perevoda Borisa Pasternaka T., 1940
18. Levin Yu. Russkie perevodo' Shekspira. «Masterstvo perevoda», M., 1966
19. Kado'rov M., Tursunov T. Shekspir na o'zbek skoy stsene., 1964
20. S. Xusayn «Gamlet» v perevode Chulpana., «Literaturno'y O'zbek istan», 1936
21. D. Gulyamova. Dramaturgiya Shekspira na o'zbek skom yazo'ke, AKD, Tashkent, 1971
22. Sulaymonova F. Shekspir O'zbekistonda, T., 1978
23. W. Shakespeare. Hamlet. Prince of Denmark, 1939
24. V. Shekspir. Tragedii. M., 1964
25. U. Shekspir. P yesalar. Toshkent, 1960
26. V, Shekspir. Daniya shahzodasi, Toshkent, 1948
27. D. Gulyamova. Pervoda Shekspira v O'zbek istane, 1964
28. Salomov. F. Til mo''jizalari haqida, 1961
29. «Masterstvo perevoda», M., 1959
30. V.Shekspir. “ Otello” 1991
31. V. Shekspir. Saylanma : 1-jild T. Fan nashriyoti -2007
32. V.Shekspir “G'ulom G' nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti” 1986
33. V. Shekspir “ New York Dover publications : “ Hamlet” 1992
34. V. Shekspir “ The story of Hamlet, prince of Denmark” 1973 .Moskva
35. V. C. Anikin . N.P. Mikhalskaya.” Reading from English literature “ 1972
36. O. Qayumov . “ Chet el adabiyoti tarixi” O'qituvchi 1973
37. Falsafa qomusiy lug'at
38. “ Jahon dabiyoti” jurnali
39. “Tafakkur” ijtimoiy – falsafiy , ma'naviy –ma'rifiy jurnal 1/2008
40. V. Shekspir “ Romeo and Julet' Higher School publishing House Moscow 1972
41. V. Shekspir “ As you like it” Moscow 1973
42. V. Shekspir “ Qish ertagi” (Jamol Kamol tarjimas) G'. Gulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1985
43. V. Shekspir “ Hamlet” Daniyoia shahzodasi fojeasi “ Sharq “ nashriyoti Toshkent 2006 M . Shayxzoda tarjimas
44. V. Shekspir Tanlangan asarlar “ Qirol Lir” , “Yuliy Sezar” , “ Qiyiq qizning quyilishi” Toshkent G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1981
45. V. Shekspir Tanlangan asarlar . Toshkent nashriyoti -1983
46. “ Hamlet “ ,” Antoniy va Kleopatra Venesiya savdogari” Toshkent G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1983
47. V. Shekspir “ Romeo va Julietta “ , “ Otello” “ O'n ikkinchi kecha yoki turfa hangomalar” M. Shayxzoda tarjimas Toshkent G'.G' nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1981

INGLIZ TILIDA

48. I.A.Karimov “The global financial-economic crisis, ways and measures to overcome it in the conditions of Uzbekistan”.
49. I.A.Karimov «Uzbekistan: national independence, economy, policy, ideology»
50. I.A.Karimov “Uzbekistan on the Threshold of the Twenty-First Century” Curzon, 1997
51. Appolova M. A. Grammatical difficulties of translation. - M.: 1977.
52. Barkhudarov L. S. Language and translation. - M.: 1975.
53. Breus Ye. V. Theory and practice of translation from English language into Russian. - M.: 2001.
54. Vannikov P. A. Theory of translation. - M.: 1983
55. VereshaginYe. M., Kostomarov V. G. Linguistic theory of the word. - M.: Russkiy yazyk, 1980.
56. Vinogradov V. S. Introduction into translation. - M., 2001.
57. Zrazhevskaya T.A., Belyaeva L. M. Difficulties of translation. - M.: 1972.
58. Kazakova T.A. Practical translation. - Spb: Soyuz, 2001.
59. Komissarov V. N. Word about translation. - M.: 1973.

60. Komissarov V. N. Modern translation. - M.: Vysshaya shkola, 2002
61. Burgess A. English Literature. Longman. 1990
62. Abduvaliyev M. Pages from the History of English Literature. A., 1996
63. Drabble, Margaret. *The Oxford Companion to English Literature*. Oxford University Press and Foreign language and Research Press, 1998.
64. Alfred Bates *The Drama: Its History, Literature and Influence on Civilization*, vol. 13. ed.. London: Historical Publishing Company, 1996. pp.
65. M. Hecker. English Literature. Prosveshcheniye. M., 1975
66. Burgess A. English Literature. Longman. 1990
67. Abduvaliyev M. Pages from the History of English Literature. A., 1996
68. Campbell, K. Hoey, AClifton "Careers 10" Canada 2000
69. J. Forshaw, S. Howell, T. Lindsey, R. Stallcup "Birding" Time life books.
70. *The advanced learners dictionary of current English* Stavropoulos 1.2.3 books, 1992
71. "Webster New World Thesaurus" New York, 1990 "Oxford" dictionary
72. Gary Dyck "Research proposal paper" Translating Medieval Uzbek poet Alisher Navoiy. Tashkent October 4th, 2003
73. Burgess A. English Literature. Longman. 1990
74. *English and Western Literature*. Macmillan McGraw-Hill. 1984

INTERNET SOURCES:

75. [Google.com/ William Shakespeare](http://Google.com/William%20Shakespeare)
76. [http://en.wikipedia.org/ William Shakespeare](http://en.wikipedia.org/William%20Shakespeare)
77. [http://www.sparknotes.com/lit/ /summary.html](http://www.sparknotes.com/lit/summary.html)
78. <http://www.online-literature.com/Hamlet/>
79. <http://www.barnesandnoble.com/writers/>
80. [http://www.geocities.com/Athens/ 8078/William Shakespeare.html](http://www.geocities.com/Athens/8078/William%20Shakespeare.html)
81. www.encyclopedia.hertage.com
82. <http://www.usingenglish.com/glossary/backchaining.html>
83. <http://www.teachingenglish.org.uk/think/knowledge-wiki/backchaining>